

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida
UDK: 336.2:6P2.15.7:338(575.1)

PARDAYEV JAMSHID MUZAFFAROVICH

**KORXONALARNI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINI
TAKOMILLASHTIRISH (xizmat ko'rsatish korxonalari misolida)**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**IQTISODIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar:
i.f.d. (DSc), professori. S.K.Xudoyqulov

Toshkent – 2024-yil

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I BOB.	XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	14
1.1-§.	Xizmat ko‘rsatish korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati	14
1.2-§.	Xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortishning ilmiy-nazariy masalalari	28
	Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	43
II BOB.	XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI	46
2.1-§.	Xizmat ko‘rsatish korxonalarining milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni va ularni soliq-moliya tizimi orqali qo‘llab-quvvatlashning yo‘nalishlari tahlili	46
2.2-§.	Xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyoti tahlili	62
2.3-§.	Xizmat ko‘rsatish korxonalarini to‘laydigan soliq tushumlarini ekonometrik tahlillar asosida o‘rta muddatli prognozlashtirish masalalari.....	84
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	98
III BOB.	XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	100
3.1-§.	Xizmat ko‘rsatish sohasini soliqqa tortish bo‘yicha xalqaro tajriba va uni milliy soliq tizimida qo‘llash istiqbollari	100
3.2-§.	Xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish	110
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	126
	XULOSA.....	129
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	132
	ILOVALAR.....	141

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo amaliyotida uchinchi sektor sifatida qarab kelingan xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatning natijasida bugungi kunda rivojlangan davlatlarda xizmatlar sohasi butun jahon hamjamiyatining iqtisodiy o‘rishini ta‘minlashning ustuvor yo‘nalishiga aylanib ulgurdi. Jahon iqtisodiyotida birlamchi va ikkilamchi tarmoqlar ulushi kamayib borayotgan bir paytda, xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi ortib bormoqda. Jahon yalpi mahsuloti tarkibida 2020-yilda xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi 68 foizni, rivojlangan mamlakatlarda 75-78 foizni, rivojlanayotgan mamlakatlarda 50 foizni tashkil etdi.

Jahon banki ma‘lumotlariga qaraganda¹ dunyoda xizmat ko‘rsatish sohasi ichida raqobatning kuchayishi va bu tarmoqqa davlatlarning moliyaviy quvvatlashi natijasida ularning orasida yirik transmilliy kompaniyalar (TMK) to‘laydigan soliqlar, ayrim olingan qashshoq mamlakatlarning yillik budjetidan yuqori bo‘lmoqda. Jumladan, xizmat ko‘rsatish sohasida TMK sanaladigan reklama biznesidagi - Grey Advertising (AQSH), xalqaro tezkor transport – DHL (Germaniya), tadbir xizmatlari - Pico Global Services LTD (Gonkong) va Google, Apple, Facebook, Amazon va Microsoft kabi kompaniyalar tomonidan to‘lanadigan soliqlar katta miqdorni tashkil etadi. Bu esa jahon amaliyotida xizmat ko‘rsatish korxonalarini rivojlantirish bilan parallel ravishda ularni soliqqa tortish mexanizmlarini ham qayta ko‘rib borishga va bu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirishga keng e‘tibor berilmoqda.

O‘zbekistonda oxirgi besh yil davomida xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali aholining hududiy va ijtimoiy, yangi iqtisodiy hududlarni o‘zlashtirishni, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni va moddiy ne‘matlarni iste‘mol qilishni ta‘minlashga harakat qilinmoqda, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 13 mln so‘mga yetib, bu 2022-yilga nisbatan o‘rish sur‘ati 120 % ni tashkil etgan. Shu bilan birgalikda xizmatlar

¹ <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/about/annual-report/leadership-perspectives>.

sohasida faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari dastklari asosida qo'llab-quvvatlanib kelinmoqda, ayniqsa, ularga alohida rag'batlantiruvchi soliq rejimlarining qo'llanilishi ularning faoliyatiga ijobiy ta'sir etib bormoqda. "Hududlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, alohida yondashuvlar asosida xizmatlar sohasini rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy resurslar va infratuzilma bilan ta'minlash hamda ularga qulay soliq rejimini joriy etish"² bugungi kundagi dolzarb masalalar sifatida belgilab olinganki, bu esa xizmat ko'rsatish korxonalariga qulay soliq rejimlarini qo'llash va uning natijadorligiga erishishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-son «Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son «O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida»gi, 2019-yilning 6-sentabrdagi PF-5813-son "Savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi hisob-kitoblar tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6098-son «Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2021-yil 15-sentabrdagi PF-6314-son "Tadbirkorlik subyektlari uchun ma'muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2011-yil 4-apreldagi PF-4296-son "Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2022-yil 9-noyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 15-sentabrdagi PF-6314-son «Tadbirkorlik subyektlari uchun ma'muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 апрелдаги 104-сонли "Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарори.

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2023-yil 10-fevraldagi PF-21-son "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 12-iyundagi PF-93-son "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2012-yil 10-maydagi PQ-1754-son "2012-2016-yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi, 2019-yil 10-iyuldagi PQ-4389-son "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 11-maydagi "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5113-sonli qarorlari, hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ularni soliqqa tortishning ilmiy-nazariy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar F.Kotler, T.Xilla, M.Katels, I.Kulisher, G.Linkova, Ye.Tyutyunnikova, S.Yegorova, D.Maloletko, N.Milogolov, A.Dishlevskiy³ kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan bo'lsa,

³ Котлер, Ф., Маркетинг менеджмент. Экспресс-курс. 2-е изд. / Пер. с англ. под ред. Божук С. Г. СПб.: Питер, 2006.- 464 с., Сфера услуг: новая концепция развития/В.М. Рутгайзер, Т.И. Корягина, Т.И. Арбузов и др. - М.: Экономика, 1990. - С. 148., Кулишер И.М. Очерки финансовой науки, 1919, с. 147., Линькова Галина Георгиевна. Активизация предпринимательской деятельности. В сфере услуг методами налогового стимулирования. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Санкт-Петербург. 2018.г., Тютюнникова Елена Сергеевна. Формирование налоговой политики Предприятия в современных условиях хозяйствования. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2003 г., Егорова Стелла Курбановна. Информационное обеспечение управления в сфере бытового обслуживания. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Москва 2000 г., Малолетко Дмитрий Николаевич. Мониторинг налогового вклада предприятий общественного питания коллективных средств размещения. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2013 г., Милоголов Николай Сергеевич.

respublikamiz iqtisodchi olimlaridan I.Ochilov, G'.Mustafojev, B.Ismailov, I.Tuxliyev, R.Hayitboyev, N.Ibodullayev, R.Amriddinova, T.Malikov, Sh.Toshmatov, B.Toshmurodova, E.Gadojev, N.Xaydarov, N.Ashurova, J.Urmonov, I.Niyazmetov, S.Xudoyqulov, O.Aripov, A.To'uchiyev, M.Masharipova, O.Pardayeva, Sh.Sultonov, I.Ergashev, J.Urakov, J.Isakov, D.Mutalova, Q.To'qsonov, B.Sanaqulova, A.Botirov⁴lar tomonidan xizmat

Налог на добавленную стоимость по операциям международной торговли услугами. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2014 г.

⁴ Очилев И. Бозор муносабатлари шароитида хизматларнинг турлари ва уларнинг тавсифи. // Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари. Монография. Т.: "Iqtisodiyot-moliya", 2008 йил., Мустафоев Голиб Султонмуродович. Хизмат кўрсатиш ва рақамли хизматлар: ривожланиш босқичлари ҳамда ижтимоий-иқтисодий аҳамияти. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020 yil. 188 bet., Исмаилов Б.А. Хизмат кўрсатиш соҳаси ривожланишининг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти ва тамойиллари иқтисод ва молия / экономика и финансы 2021, 8(144), Тухлиев И.С., Ҳайитбоев Р., Ибодуллаев Н.Е., Амриддинова Р.С. Туризм асослари: Ўқув қўлланма – С.: СамИСИ, 2010 - 247 б., Э.Ф.Гадоев ва б. Билвосита солиқлар: қўшилган қиймат солиғи, акциз солиғи. Тошкент: «NORMA», 2011. 327 б.; Ш.А.Тошматов Қўшилган қиймат солиғи. Монография. Тошкент.: «Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси», 2004. -160 б.; Т.С.Маликов, Н.Х.Ҳайдаров Молия: умумдавлат молияси. Ўқув қўлланма. Т.: «Iqtisod-moliya», 2009. -556 б.; С.С.Азимов, "Камерал солиқ текширувини ташкил этишда ташқи манба маълумотларидан самарали фойдаланиш" мавзусидаги PhD илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси, 2022 йил., Б.А.Норматов, "Ўзбекистон Республикасида солиқ текширувларини ҳуқуқий тартибга солишни такомиллаштириш" мавзусидаги (PhD) диссертацияси автореферати, Тошкент-2020; И.А.Эргашев, "Солиқ маъмуриятчилиги ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш" мавзусидаги PhD илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси, , Корпоратив солиқ менежментида ички солиқ назорати ва таҳлили, "Молия" илмий журнали.-2010.-№3; Ж.Ж.Урмонов, (2018), Тадбиркорлик субъектлари фаолиятини солиқ механизми воситасида тартибга солишни такомиллаштириш масалалари. Иқтисодиёт фанлари доктори (DcS) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. 27-38 б. / Urmonov J.J. (2018) Issues of improving the regulation of business entities through the tax mechanism. Dissertation for the degree of Doctor of Economics (DcS), Н.Б.Ашурова Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. и.ф.д. (DS) Диссертацияси. Т: 2018 йил. 247 б.; Ж.Ж.Урмонов Тадбиркорлик субъектларини солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш масалалари: Монография/ Т.: "Iqtisod-Moliya", 2018 й. 240 б.; И.М.Ниязметов "Солиқ юкини оптималлаштириш: назария, услубият ва амалиёт" Монография.-Тошкент: "Молия", 2016. 192 б.; Худойкулов С.К. Солиқ тушумларини прогноз қилиш методологиясини такомиллаштириш. и.ф.д. дисс. автореферати. Т., 2019. 77 б.; Ф.И.Исаев Солиқ таҳлили методологиясини такомиллаштириш. И.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. 2022. 242 б.; У.Х.Нормурзаев Солиқ имтиёзларининг самарадорлиги: назария, методология ва амалиёт. Иқтисодиёт фанлари доктори (Doctor of Science) диссертацияси. 2022. 247 бет., Арипов Ойбек Абдуллаевич. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солиш ва ишбилармонлик муҳитини ривожлантириш. Иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солиш ва ишбилармонлик муҳитини ривожлантириш. 2020 й., Тўйчиев Абдурахмон Гофурович. Кичик бизнесга инновациялар трансферини молиялаштириш механизмини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. 2020 й., Машарипова Манзура Алимбаевна. Хизмат кўрсатиш тармоқларида кичик бизнесни ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. 2020 й., Пардаева Озода Мамаюновна.Хизмат кўрсатиш соҳасида оилавий тадбиркорликни ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш йўллари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. 2020 й., Султонов Шодиёр Абдухалилович. Хизмат кўрсатиш соҳасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг самарадорлигини ошириш йўллари (Қашқадарё вилояти мисолида). Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. 2011 й., Эргашев И.И. Хизмат кўрсатиш соҳасида инновацион-инвестицион жараёнларни ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. 2018 й., Ураков Жамшед Ражабович. Хизмат кўрсатиш корхоналари фаолияти самарадорлигини оширишнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш. (Самарқанд вилояти мисолида). Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация

ko'rsatish korxonalarini rivojlantirish va ularni soliqqa tortishning dolzarb muammolarining yechimlari hamda uni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ilari olib borilgan. Jumladan, O.Aripovning kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirishga oid, dotsent A.To'ychiyevning kichik biznesga innovatsiyalar transferini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishga oid, dotsent M.Masharipovning xizmat ko'rsatish tarmoqlarida kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid, dotsent O.Pardayevaning xizmat ko'rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va samaradorligini oshirishga oid, iqtisodiyot fanlari nomzodi Sh.Sultonovning xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning samaradorligini oshirishga oid, dotsent I.Ergashevning xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion-investitsion jarayonlarni rivojlantirish va samaradorligini oshirishga oid, J.Urakov tomonidan amalga oshirilgan xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga oid, I.Ochilovning xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo'llariga oid, B.Mo'minovning ko'p ukladli iqtisodiyot sharoitida agroximservis xizmati ko'rsatishning tashkiliy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirishga oid, professor J.Isakovning xizmat ko'rsatish sohasining samaradorligi va uning rivojlanishini ekonometrik modellashtirishga oid ilmiy tadqiqot ishlarini keltirish mumkin. Ammo bugungi yangi O'zbekiston sharoitida va keng islohotlar davrida xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish

автореферати. 2012 й., Очилов И.С. Хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналарида самарадорликни ошириш йўллари. Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. 2010 й., Мўминов Б. О. Кўп укладли иқтисодиёт шaroitида агрохимсeрвис хизмати кўрсатишнинг ташкилий ва иқтисодий асосларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. 2020 й., Исаков Ж.Я. Хизмат кўрсатиш соҳасининг самарадорлиги ва унинг ривожланишини эконометрик моделлаштириш (Қорақалпоғистон Республикаси мисолида). Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. 2001 й., Муталова Д.М. Солиққа тортишнинг соддалаштирилган тартибини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. 2010 й., Санакулова Б. Р. Кичик тadbirkorлик субъектларининг солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш орқали иқтисодий ўсишни таъминлаш. Иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. 2016., Ниязметов И. М. Солиққа тортиш механизмларини такомиллаштириш орқали солиқ тизими барқарорлигини таъминлаш. Иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. 2018., Ботиров Азамат Ахмедович. Кичик тadbirkorлик субъектларини солиққа тортиш амалиётини такомиллаштириш йўллари. Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. 2012.

bilan ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj saqlanib qolinmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xizmatlar sohasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va uning mohiyatining ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berish;

xizmat ko'rsatish korxonalarining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rnini ilmiy tahlillar asosida ko'rsatib berish;

xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortishning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish;

xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishning amaliyotini tahlil qilish va tegishli ilmiy xulosalarni shakllantirish;

xizmat ko'rsatish korxonalarini to'laydigan soliqlarni ekonometrik tahlil qilish va soliq tushumlarining o'rta muddatli prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash;

xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishning xorij tajribasini o'rganish va undagi uslubiy jihatdan ilg'or jihatlarni O'zbekiston soliq tizimida qo'llash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyotidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularning sabablarini ko'rsatib berish;

xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish amaliyotini yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va shu kabilar.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimi va xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarining faoliyati olingan.

Tadqiqot predmeti bo‘lib xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda dialektik yondashuv, tahlil va sintez, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, ekonometrik tahlil va prognoz qilish, statistik guruhlash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kichik biznes maqomidagi xizmat ko‘rsatish korxonasi qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘i to‘lab kelayotgan holda uning o‘tgan yil yakunlari bo‘yicha jami daromadi o‘n milliard so‘mdan oshmagan holda ham ularga soliq qarzi yuzaga kelgan sanadan e‘tiboran bir oy ichida soliq organlariga soliqlarni bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqi to‘g‘risida xabarnomani davlat soliq organiga yuborish sharti bilan soliq qarzini foizsiz bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish taklifi ishlab chiqilgan;

xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadigan norezident korxonalarini agar, faoliyati uchun montaj, ishga tushirish-sozlash xizmatlari, xodimlarni o‘qitish xizmatlari va boshqa shu kabi xizmatlar ko‘rsatilishini nazarda tutuvchi asbob-uskunalar sotib olish (sotish) bo‘yicha xalqaro shartnomada ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati alohida ko‘rsatilmagan bo‘lsa, norezidentning soliq solinadigan daromadini bunday xizmatlarning bozor qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlash zarurligi ilmiy asoslangan;

xizmat ko‘rsatish korxonalarining (jumladan, yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar va yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar) soliq davri davomida jami daromadi bir milliard so‘mdan oshgan taqdirda, ularning daromadi ko‘rsatilgan miqdorga yetgan kundan e‘tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tishi yuzasidan ilmiy taklif ishlab chiqilgan;

solig ma'murchiligini soddalashtirish, xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar aylanmasidan olinadigan soliqlarni to'g'ri hisoblanishini ta'minlash maqsadida amaldagi soliq stavkalarini unifikatsiya qilish taklifi ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

xizmat ko'rsatish korxonalarini moliyaviy qo'llash va soliqqa tortish mexanizmlarini yanada takomillashtirishning konseptual yo'nalishlari ishlab chiqilgan;

xizmat ko'rsatish korxonalarini tomonidan soliqdan qochish yo'nalishlarining oldini olish yuzasidan takliflar shakllantirilgan;

Savdo-sanoat palatasining "20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis" dasturiga kiritilgan tadbirkorlik subyektlarini (jumladan, xizmat ko'rsatish sohasidagi) qo'llab-quvvatlash maqsadida soliq va bojxona ma'muriyatchiligini soddalashtirish yo'nalishida, ya'ni qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rnini qoplash (qaytarish), shuningdek, barcha soliq turlari bo'yicha mavjud ortiqcha to'lov summasini qaytarish bir kun muddatda tezlashtirilgan tartibda amalga oshirish lozimligi ilmiy asoslangan;

qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha maxsus ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning bekor qilinmasligi lozimligi hamda tovarlarni import va (xizmatlarni) realizatsiya qilishda to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summalarini bojxona va soliq organlarining hisob tizimlarida o'zaro hisobga olinishiga imkoniyat berish, shuningdek, soliq tekshiruvlarini o'tkazmaslik maqsadga muvofiqligi bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

2025-yilgacha ayrim savdo va xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz etib belgilash, 2027-yilga qadar mehmonxona va maydoni 5 ming m² dan ortiq bo'lgan savdo komplekslari uchun yer solig'i va mol-mulk solig'i stavkasini 90 foizga kamaytirish, 2025-yilga qadar 28 ta tuman (shahar)lardagi turizm hududlarida ayrim savdo va xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasini 1 foiz etib belgilash maqsadga muvofiqligi ilmiy asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan

olinganligi hamda tegishli xulosa va takliflarning O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va boshqa mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirishga oid nazariy-metodologik va soliq tizimiga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyotini yanada takomillashtirishda, bu bilan bog‘liq davlat siyosatini ishlab chiqishda, soliq qonunchiligining tegishli yo‘nalishlarini ishlab chiqishda hamda mavzuga oid ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishda, xizmatlar sohasi va soliqqa tortish yo‘nalishida ilmiy va o‘quv adabiyotlarini tayyorlashda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

kichik biznes maqomidagi xizmat ko‘rsatish korxonasi qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘i to‘lab kelayotgan holda uning o‘tgan yildagi yakunlari bo‘yicha jami daromadi o‘n milliard so‘mdan oshmagan holda ham ularga soliq qarzi yuzaga kelgan sanadan e‘tiboran bir oy ichida soliq organlariga soliqlarni bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqi to‘g‘risida xabarnomani davlat soliq organiga yuborish sharti bilan soliq qarzini foizsiz bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish bo‘yicha muallifning taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda O‘RQ-812-sonli Qonuni bilan Soliq kodeksining 100-moddasida tasdiqlanib, amaliyotga joriy qilindi. (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2023-yil 27-yanvardagi 15-10240-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada kichik biznes maqomidagi xizmat ko‘rsatish korxonalariga ham soliq qarzini foizsiz bo‘lib-bo‘lib to‘lash

huquqidan samarali foydalanish orqali ularning moliyaviy imkoniyatlarini tiklab olishga sharoit yaratgan;

xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadigan norezident korxonalarini agar faoliyati uchun montaj, ishga tushirish-sozlash xizmatlari, xodimlarni o'qitish va boshqa shu kabi xizmatlar ko'rsatilishini nazarda tutuvchi asbob-uskunalar sotib olish (sotish) bo'yicha xalqaro shartnomada ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati alohida ko'rsatilmagan bo'lsa, norezidentning soliq solinadigan daromadini bunday xizmatlarning bozor qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlash yuzasidan taklif O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda O'RQ-812-sonli Qonuni bilan Soliq kodeksining 351-moddasida tasdiqlanib, amaliyotga joriy qilindi. (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2023-yil 27-yanvardagi 15-10240-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishda soliq bazasini obyektiv shakllantirishga asos bo'ldi;

muallifning xizmat ko'rsatish korxonalarining (jumladan, yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar va yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar) soliq davri davomida jami daromadi bir milliard so'mdan oshgan taqdirda, ular daromadi ko'rsatilgan miqdorga yetgan kundan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga o'tishi yuzasidan ilmiy taklifi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda O'RQ-812-sonli Qonuni bilan Soliq kodeksining 462-moddasida tasdiqlanib, amaliyotga joriy qilindi. (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2023-yil 27-yanvardagi 15-10240-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi oqibatida o'zining tegishli qismidagi QQS va foyda solig'i summasi, ayrim yirik toifadagi xizmat ko'rsatish korxonalarini uchun katta hajmdagi soliqlarni o'zining qaysidir davri uchun hisoblashi osonlashdi, ikkinchidan, soliq ma'murchiligi ancha soddalashdi, soliq to'lovchining umumiy daromadi bir milliard so'mdan oshsa, ulardan tegishli tartibda QQS va foyda solig'ini o'zlari buxgalteriya qoidalariga asosan soliqlarni hisoblashga o'tishi va o'zlariga nisbatan soliq majburiyatlarini to'g'ri aniqlab borishga xizmat qildi.

Tadqiqotchining soliq ma'murchiligini soddalashtirish, xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar aylanmasidan olinadigan soliqlarning to'g'ri hisoblanishini ta'minlash maqsadida amaldagi soliq stavkalarini unifikatsiya qilish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda O'RQ-812-sonli Qonuni bilan Soliq kodeksining 467-moddasida tasdiqlanib, amaliyotga joriy qilindi. (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2023-yil 27-yanvardagi 15-10240-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi oqibatida soliqqa tortish tizimi soddalashtirgan bo'lsa, ikkinchidan, xizmat ko'rsatish korxonalari zimmasidagi soliq yukini birmuncha bo'lsa ham yengillashtirilishiga erishildi, uchinchidan, soliq to'lovchilarda soliqlarni hisoblash tizimi soddalashtirildi, eng muhim soliq to'lovchilar ixtiyorida bir yilning o'zida o'rtacha hisob-kitoblarga ko'ra, 458 mlrd so'mdan ortiq mablag'lar qoladigan bo'ldi va ularning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishga erishildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 2 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta, shundan, nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 135 betni tashkil etadi.

I BOB. XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Xizmat ko‘rsatish korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati

Xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortish masalalarini nazariy jihatdan tadqiq qilishda bizning fikrimizcha, quyidagi asosda yondashish lozim, deb hisobladik. Dastlab, xizmat ko‘rsatish tushunchasi va tizimining mohiyatini ochish, uning boshqa tarmoqlardan o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatish, bu turdagi korxonalarda iqtisodiy faoliyatning jihatlarini va bu turdagi faoliyat ko‘rsatuvchilarning korxonalar sifatidagi iqtisodiyotdagi rolini aniqlash, shuningdek, xizmat ko‘rsatish korxonalarining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyatini hamda ularni soliqqa tortishning ilmiy asoslarini yoritib berish doirasida amalga oshiramiz. Bu esa bizning fikrimizcha, xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortishning nazariy jihatlarini ko‘rsatib beradi.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortishda bu turdagi korxonalarining xususiyatlarini anglash uchun ham xizmat ko‘rsatish tushunchasining mohiyatini aniqlashimiz lozim. Ayrim manbalarga ko‘ra, “xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan, umumlashtirilgan toifadir”⁵.

1-jadval.

Xizmat kategoriyasiga ilmiy-nazariy yondashuvlar⁶

F.Kotler	“Xizmat – bu bir tomon boshqasiga taklif qilishi mumkin bo‘lgan har qanday faoliyatdir.	Котлер Ф. Маркетинг менеджмент. Экспресс-курс. 2-е изд. / Пер. с англ. под ред. Божук С. Г. СПб.: Питер, 2006.- 464 с.
F.Kotler	Xizmatlar deganda, yirik xilma-xillikdagi faoliyat turlari va tijorat mashg‘ulotlarini ta’riflab, ular “bir taraf ikkinchi tarafga taklif qilishi mumkin va asosan ularni his qilib bo‘lmaydi hamda biror-bir narsaga egalik qilishga olib kelmaydi. Xizmatlarni ko‘rsatish moddiy ko‘rinishdagi tovar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin yoki aksincha bog‘liq bo‘lmasligi ham mumkin.	Котлер Ф. Основы маркетинга. - М.: Прогресс, 1993. - С.63-8.


⁵ Stat.uz. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. Статистик кўрсаткичларга қисқа методологик Тушунтиришлар. Тошкент-2022.

⁶ Илмий-ўқув адабиётлар асосида Муаллиф томонидан тuzilgan.

I.S.Tuxliyev	Xizmatlar – bu ko‘zga ko‘rinmas tovarning o‘ziga xos turidir.	Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Ibodullayev N.Ye., Amriddinova R.S. Turizm asoslari: O‘quv qo‘llanma – S.: SamISI, 2010 - 247 b.
T.Xilla	Xizmat – qandaydir iqtisodiy birlikka tegishli bo‘lgan shaxs yoki tovar holatining boshqa iqtisodiy birlik tomonidan oldindan birinchi birlikning roziligi bilan sodir etiladigan faoliyati natijasidagi o‘zgarishidir.	Сфера услуг: новая концепция развития / В.М. Рутгайзер, Т.И. Корягина, Т.И. Арбузов и др. - М.: Экономика, 1990. - С. 148.
I.Ochilov	Xizmat deyilganda, insonning, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning, davlatning va jamiyatning ma‘lum bir ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan, kishilarning naf keltiradigan xizmat jarayoni bilan bog‘liq ongli faoliyati tushuniladi.	Ochilov I. Bozor munosabatlari sharoitida xizmatlarning turlari va ularning tavsifi. // Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. T.: “Iqtisodiyot-moliya”, 2008-yil.
G‘.Mustafoyev	Xizmat - bu ma‘lum tomon tarafidan yo‘naltirilgan, o‘z qiymatiga ega bo‘lgan nomoddiy ko‘rinishdagi harakat yoki mehnat mahsuli tushuniladi.	Mustafoyev G‘olib Sultonmurodovich. Xizmat ko‘rsatish va raqamli xizmatlar: rivojlanish bosqichlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020-yil. 188-bet.
N.A. Barinov	Xizmat – bu mahsulotning (narsaning) foydali harakati yoki insonning o‘ziga xos, oqilona ehtiyojlarini qondirish uchun faoliyat shaklida namoyon bo‘ladigan, foydalanish qiymatlarini yaratadigan, mehnat natijalari bo‘yicha paydo bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlardir.	Баринов Н. А. Указ. Соч. - С. 17.
M.Katels	Xizmatlar kategoriyasi tarixan turli xil ijtimoiy tuzilmalar va ishlab chiqarish tizimlaridan shakllanib kelayotgan faoliyat.	Кастельс М. Информационная эпоха: Экономика, общество и культура: Пер. с англ. Под ред. О.И. Шкаратана – М. : ГУВШЭ, 2000.
Ismailov Baxit Abdireymovich	Xizmat – uni bajaruvchi va iste‘molchi o‘rtasidagi bevosita o‘zaro aloqalarning natijasi bo‘lib, iste‘molchining talabini qondirish bo‘yicha bajaruvchining foydali faoliyatida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatdir.	Ismailov B.A. Xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va tamoyillari / Iqtisod va moliya. 2021, 8(144)

1-jadvalda keltirilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlariga e‘tibor beradigan bo‘lsak, xizmat kategoriyasiga turlicha, masalan, uni bajaruvchi va iste‘molchi o‘rtasidagi bevosita o‘zaro aloqalarning natijasi (B.Ismoilov), bu

mahsulotning (narsaning) foydali harakati yoki insonning o'ziga xos, oqilona ehtiyojlarini qondirish uchun faoliyat shaklida namoyon bo'ladigan, foydalanish qiymatlarini yaratadigan, mehnat natijalari bo'yicha paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar (N.Barinov), bu ma'lum tomon tarafidan yo'naltirilgan o'z qiymatiga ega bo'lgan nomoddiy ko'rinishdagi harakat yoki mehnat mahsuli (G'.Mustafoyev), bu ko'zga ko'rinmas tovarning o'ziga xos turidir (I.Tuxliyev) kabi yondashuvlarni ko'rishimiz mumkin. Fikrimizcha, xizmat kategoriyasi va u bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat hisoblangan xizmatlar sohasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini yoritish esa o'z navbatida bunday korxonalarini soliqqa tortishda nazariy ahamiyatga ega. Buni kengroq yoritish maqsadida quyidagi rasmdan foydalanamiz.




1-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari⁷

Biz tomonimizdan keltirilgan 1-rasmdagidek xizmat ko'rsatish korxonalarining vujudga kelishining asoslari sifatida, avvalo, iqtisodiy tizimning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tizim shaklida mavjud bo'lishida namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarish sohasidagi tovarlar ishlab chiqarilishning iqtisodiy-texnologik xususiyatlari va bu tizimning bir maromda ketishi uchun ma'lum bir qo'shimcha faoliyatga ehtiyoj tug'iladiki, bunday ehtiyojlarni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish mohiyati jihatdan xizmat tushunchasi bilan izohlanadi. Bundan tashqari ishlab chiqarilgan tovarlarni iste'mol qilishning xususiyati esa ishlab chiqarilgan tovarlarni uning iste'molchilariga yetkazishda oraliq bo'g'inni talab

⁷ Muallif tomonidan tuzilgan.

qiladiki, bu jarayon esa xizmatlar sohasini yoki uni amalga oshirishni – korxonalariga bo‘lgan ehtiyojni taqozo etadi. Tovar ishlab chiqarish hajmining oshib borishi, uning diversifikatsiyalashuvi, tovarlarni iste‘mol etishda ma’lum bir qo‘shimcha xizmatlarni talab etishi ham xizmat ko‘rsatish korxonalarining yuzaga kelishida muhim omil sifatida yuzaga chiqadi. Bundan tashqari iqtisodiy tizimda ayrim tovarlarni ishlab chiqarishning o‘ziga xosligi ma’lum bir xizmatlarga bo‘lgan talabni shakllantiradi (masalan, tog‘-kon sanoati, kimyo sanoati, formokologiya sanoati va shu kabilar). Xizmat ko‘rsatish korxonalarining yuzaga kelishida aholining turmush tarzi xususiyatlari juda katta rol o‘ynaydi. Jamiyatda iqtisodiy taraqqiyotning o‘sib borishi, yangi turdagi tovarlarning paydo bo‘lishi, aholining pul mablag‘larining oshib borishi aholining yangi turdagi ijtimoiy ehtiyojlarini keltirib chiqaradi. Bu kabi yangi ehtiyojlar esa xizmatlarni yangi turining paydo bo‘lishiga va uni amalga oshiruvchi korxonalarining vujudga kelishiga zamin hozirlaydi. Xizmat kategoriyasining vujudga kelishi, iqtisodiy tizimda aholining turli xil iqtisodiy manfaatlarining paydo bo‘lishi xizmatlar sohasining alohida katta tizim sifatida faoliyat ko‘rsatishini taqozo etadi. Bunday iqtisodiy tizimning faoliyati esa uni amalga oshiruvchi korxonalarining vujudga kelishini ta‘minlaydi. Bu turdagi korxonalar esa xizmatlarning xususiyatlariga muvofiq tarzda o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud bo‘ladiki, buni quyidagi rasmda ko‘rsatib o‘tishga harakat qilamiz.



2-rasm. Xizmat ko'rsatish korxonalarining o'ziga xos xususiyatlari⁸

Biz tomonimizdan 2-rasmda keltirilganidek xizmat ko'rsatish korxonalarini o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu turdagi korxonalarining muhim xususiyatlari sifatida: *birinchidan*, ularning iqtisodiy-moliyaviy jihatdan bozor talablariga tez moslashuvchanligi, ya'ni agar ixtisoslashgan faoliyat yo'nalishida raqobat kuchayib ketgan holatda xizmat ko'rsatishning yaqinroq (o'rinbosar xizmat) xizmat turiga moslashishi nisbatan tez amalga oshadi. Masalan, mehmonxona xizmatidagi talabning kamayishi oqibatida ovqatlanish xizmatiga moslashishi tez va kam xarajatlar bilan amal oshishi mumkin, bu esa xizmat sohasining tez moslashuvchanligini ko'rsatib, tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalariga nisbatan ushbu xususiyatlari bilan afzallikka egadir. *Ikkinchidan*, uning moslashuvchanligi bu turdagi korxonalarining boshqa bir muhim xususiyatiga nisbatan risk darajasining kamligini ham ko'rsatadi, bu kabi korxonalarini tashkil qilishda unga tikilgan moliyaviy sarmoyalarning qaytishi va samaradorlik ko'rsatkichlarini keltirishda risk boshqa yirik korxonalariga nisbatan kamroq bo'ladi, bu esa xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalar oqimining ortishiga, shuningdek, bu turdagi korxonalarining ko'payishiga muhim omil bo'ladi. *Uchinchidan*, xizmat ko'rsatish korxonalarini yirik ishlab chiqarish subyektlari

⁸ Muallif tomonidan tuzilgan.

tomonidan iqtisodiy jihatdan nomaqbul bo'lgan faoliyatni amalga oshirishning qulayligi, ya'ni iqtisodiy tizimda oraliq operatsiyalarni bajarish uchun moslashganligi bilan ham muhim ahamiyatga ega. *To'rtinchidan*, tovar ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini iste'molchilarga yetkazishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki tovar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan korxonalar tomonidan o'z tovarlarini iste'molchilarga to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berish hamma vaqt ham samarali bo'lmaydi, bunda xizmat ko'rsatish korxonalarini katta rol o'ynaydiki, bu tovar ishlab chiqaruvchi uchun ham iste'molchilar uchun ham qulay hisoblanadi. *Beshinchidan*, xizmat ko'rsatish korxonalarini aholining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga moslashgan bo'ladi, bu esa aholining turmush tarzining yaxshilanishida katta ahamiyatga ega. *Oltinchidan*, aholi bandligini ta'minlashda katta ahamiyatga egaligi, asosan kichik biznes shaklda mavjud bo'lishi hamda moliyaviy resurslarning tez aylanishligi kabi xususiyatlarga egaligi bunday korxonalarining bozor munosabatlarini tashkil etish va uning rivojlanib borishida o'ziga xos ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy-sotsial mohiyati va ahamiyatini tadqiq qilishda respublikamizning milliy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda yondashishni maqsadga muvofiq, deb hisoblagan holda milliy iqtisodiyot doirasidagi ayrim ilmiy ishlarni tahlil qilmoqchimiz. Bu borada tadqiqotchi B.Ismailovning ayrim ilmiy qarashlari ancha e'tiborga loyiqdir. Mazkur tadqiqotchi o'z tadqiqotlarida "xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o'z mazmuniga ko'ra turmush farovonligi va uning sifatini oshirish, zamonaviy tarmoqlarning shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan inson kapitalini rivojlantirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish, mehnat taqsimotini nisbatan yuqori darajasini ta'minlash bo'yicha xo'jalik faoliyatining turli yo'nalishlarini qamrab oladi, iqtisodiyotning transformatsiyalashishi sharoitida aksariyat xizmatlar turlari tarkibida moddiy buyumlar ahamiyatli o'ringa ega bo'lsa, buning aksi moddiy ishlab

chiqarish tarkibida nomoddiy ko‘rinishdagi elementlar hissasi ortib bormoqda”⁹, degan fikrlari ancha o‘rinlidir.

Bundan tashqari mazkur iqtisodchi xizmatlarni taqdim qilishning *to‘rtta bosqichi* (zarur resurslar bilan ta‘minlash, ijro etishning texnologik jarayoni, nazorat qilish, sinovdan o‘tkazish, qabul qilish, baholash, xizmat ko‘rsatish jarayoni) va ushbu sohada faoliyat yuritadigan korxonalar va tashkilotlar rivojlanishining *asosiy tamoyillari* (maqsadga yo‘naltirilganlik tamoyili, xizmatlarni realizatsiya qiluvchi va xaridorning yakuniy natijalariga muvofiqligi tamoyili, talab va taklif muvofiqligini ta‘minlash tamoyili, xizmatlar bozorini rivojlantirishning transversallik (xizmat ko‘rsatish sohasida infratuzilmaviy va institutsional cheklolarni bartaraf etish, hududiy iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish bo‘yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va realizatsiya qilish, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda an‘analar va innovatsiyalarning integratsiyasini ta‘minlash) tamoyili, xizmat ko‘rsatish sohasida mehnat unumdorligini uzluksiz o‘rishini ta‘minlash tamoyili)ni ko‘rsatib berganki, bu xizmat ko‘rsatish korxonalarini tashkil qilish va ularni boshqarishda muhim ahamiyatga egadir.

Bundan tashqari, xizmat ko‘rsatishda ularni ma‘lum bir xususiyatlariga ko‘ra, turkumlarga ajratgan holda ularning mazmunini anglash ilmiy-uslubiy jihatdan o‘z mohiyatiga egadir. Shu boisdan ham B.Ismoilov tomonidan keltirilgan turkumlanishni keltirib o‘tish lozim deb hisobladik.

2-jadval.

Xizmatlarning muayyan tasnifiy belgilari bo‘yicha turlarga ajratilishi¹⁰

№	Xizmatlarning tasnifiy belgilari	Xizmatlar turlari
1	Xizmatlarning turlari bo‘yicha	Ishlab chiqarish; taqsimlash; kasbiy; iste‘mol (ommaviy); ijtimoiy
2	Moddiy-buyum mazmuniga ega xizmatlar	Moddiy ishlab chiqarish xizmatlari; nomoddiy xizmatlar.
3	O‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra	Yangi iste‘mol qiymatini yaratuvchi; tovarlarning iste‘mol xususiyatini tiklovchi xizmatlar; shaxsiy tavsifdagi xizmatlar
4	Ishlab chiqaruvchining xarakteriga bog‘liqligi	Insonlarga taqdim qilinadigan xizmatlar; mashina va mexanizmlarga taqdim qilinadigan xizmatlar.

⁹ Исмаилов Б.А. Хизмат кўрсатиш соҳаси ривожланишининг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти ва тамойиллари иқтисод ва молия / экономика и финансы 2021, 8(144)

¹⁰ Исмаилов Б.А. Хизмат кўрсатиш соҳаси ривожланишининг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти ва тамойиллари иқтисод ва молия / экономика и финансы 2021, 8(144).

	bo'yicha	
5	Xizmatlarni ko'rsatish vaqtida mijozlarning ishtirok etishiga bog'liqligi bo'yicha	Mijozning ishtirokini talab qiluvchi xizmatlar (kosmetolog, shifokor); mijozning ishtirokini talab qilmaydigan xizmatlar (adabiyotlarni qidirish, maishiy xizmat buyumlarini ta'mirlash).
6	Iste'molchilarning motivatsiyasiga bog'liq holdagi xizmatlar	Insonlarning shaxsiy zaruratini qondirishga mo'ljallangan xizmatlar (ta'lim, madaniyat, sport); korxon va tashkilotlarning jamoaviy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan xizmatlar (ishbilarmonlik tavsifidagi xizmatlar); ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan xizmatlar.
7	Ishlab chiqaruvchilarning motivatsiyasiga bog'liq holdagi xizmatlar	Insonlarning shaxsiy zaruratini qondirishga mo'ljallangan xizmatlar (ta'lim, madaniyat, sport); korxon va tashkilotlarning jamoaviy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan xizmatlar (ishbilarmonlik tavsifidagi xizmatlar); ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan xizmatlar.
8	Ishlab chiqaruvchilarning motivatsiyasiga bog'liq holdagi xizmatlar	Maqsadi foydaga yo'naltirilgan tijorat xizmatlari; muayyan ijtimoiy samarani olishga yo'naltirilgan muhtojlarga yordam berish bo'yicha xizmatlar.
9	Xizmat ko'rsatish shakllari bo'yicha	Tomonlarning kelishuv shartlari bilan muvofiqlikda xizmatlar olish huquqini taqdim qiluvchi hujjatga asoslangan xizmatlar; Ish, dam olish, turar joylari bo'yicha; vaqt oralig'ida amalga oshiriladigan shoshilinch xizmatlar; o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish.
10	U yoki bu tarmoqqa tegishliligiga ko'ra	Sog'liqni saqlash, ta'lim, maishiy, kommunal, turizm, ko'chmas mulk sohasidagi, bank, axborot, moliyaviy va boshqa turdagi xizmatlar
11	Samaradorlikni oshirishga ta'siri bo'yicha	Progressiv xizmatlar; subyektiv xususiyatga ega xizmatlar; individual xizmatlar.

O'ylaymizki, xizmatlarni ushbu keltirilgan shaklda turkumlanishi ilmiy-uslubiy jihatdan boshqa turkumlanishga qaralganda nisbatan ilmiylikka egadir. Shu bilan birgalikda fikrimizcha, xizmatlarni turkumlanishida raqamlashtirilgan xizmatlar turlariga ko'ra ham tasniflash o'z mohiyatiga egadir. Bundan tashqari xizmatlar ko'rsatishda daromad olish nuqtayi nazaridan mulkiy huquqlarni rasmiylashtirish orqali ularni boshqalarga foydalanishga berishga yo'naltirilgan xizmatlar yoki vositachilikka asoslangan xizmat turlariga bo'lgan ehtiyojlarning oshib borishi an'anaviy xizmatlardan ko'ra raqamlashgan xizmatlarga transformatsiyalanuvining kuchayib borishi xizmatlarning turkumlanishiga yangicha yondashuvlarni keltirib chiqaradi. O'z navbatida bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan G.Mustafoyev tomonidan xizmatlarning milliy iqtisodiyotda evolyutsion rivojlanish tendensiyalarini guruhlanishi ham alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

Xizmatlarning evolyutsion rivojlanish bosqichlari va turlari¹¹


<p>Xizmat (dastlabki ibtidoiy shakl):</p> <p>Shaxsiy qorin to‘yg‘azishga urinish</p> <ul style="list-style-type: none"> • O‘zini o‘zi himoya qilish • Ovchilik (yakka manfaat uchun) • Rasm chizish, turli qurollar yasashning dastlabki shakllari • O‘zini-o‘zi davolash • boshqalar
<p>Xizmat ko‘rsatish</p> <ul style="list-style-type: none"> • Qorin to‘yg‘azish uchun jamoaviy maqsad uchun birlashish • Yollanma jangchilar, ovchilar, uy xizmatkorlari • o‘zi yoki boshqa birovning talabiga ko‘ra rasm chizish, rassomchilik qilish shu kabilar • Manfaat uchun yollanma faoliyatning barcha ko‘rinishlari • Ta‘lim berish, tabiblik qilish • Boshqa birovlar uchun qurol yasash, kiyim tikish, uy qurish va shu kabilar
<p>Xizmat ko‘rsatish sohasi</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ta‘lim sohasi • Sog‘liqni saqlash sohasi • Turizm sohasi • Bank, moliya va sug‘urta xizmatlari sohasi • Transport xizmatlari sohasi • Aloqa xizmatlari sohasi • Kommunal va maishiy soha • Madaniy multimedia, audio-video televideniye, dasturiy ta‘minot sohasi

Ushbu tadqiqotchining ko‘rsatishicha, xizmatlar sohasining keyingi shakllangan guruhi qatoriga raqamli xizmatlar sirasiga quyidagilar: “ta‘lim sohasidagi onlayn darslar, elektron darsliklar, elektron jurnallar, maxsus pedagogik vositalar; sog‘liqni saqlash sohasidagi kasallikni aniqlashda foydalaniladigan barcha maxsus apparatlar, onlayn maslahatlar, moslashtirilgan web-dasturlar; sayyohlik, dam olish, safar qilish uchun ma‘lumotlarni taqdim etadigan dasturiy ta‘minotlar; mobil qurilmalar, bankomat, elektron dasturiy vositalar va elektron pullar; internet, aloqa liniyalari, router, kabellar, to‘lqin tarqatuvchi qurilmalar; brauzer, veb-sayt, maxsus portallar, elektron hukumat, mo‘ljallangan dasturlar”¹² ham kiradiki, ushbu xizmatlarning boshqa xizmatlardan farqli jihatlari shundaki, ularning qiymati

¹¹ Мустафоев Голиб Султонмуродович. Хизмат кўрсатиш ва рақамли хизматлар: ривожланиш босқичлари ҳамда ижтимоий-иқтисодий аҳамияти. “Иқтисодийот ва innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020 yil. 189 bet.

¹² Қаранг: Ўша манба.

nisbatan arzonroq bo'lsa, boshqa tomondan ularni iste'mol qilish darajasi tez va sifati ham anchayin yaxshiroq hisoblanadi, shu jihatdan olganda bizning fikrimizcha raqamli xizmatlarni ko'paytirish va boshqalarini raqamlashtirishni tezlashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, raqamli xizmatlarni ko'paytirish bugungi kunda jahon mamlakatlarida iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida alohida e'tibor berilayotgan bo'lsa, boshqa tomondan raqamli xizmatlarni rivojlantirish ham uni ishlab chiqaruvchisi uchun ham uni iste'mol etuvchisi uchun juda qulay va samarali hisoblanadi. Oddiy misol tarzida kompyuter dasturiy mahsulot xizmatlarini ko'rsatish bugungi kunda jadallashib borayotgan xizmat turlaridan biri bo'lib, uni iste'mol etish darajasi va uning sifati juda katta hisoblanadi, jumladan soliq xizmati organlari tomonidan ko'rsatilayotgan interaktiv soliq xizmatlari yoki adliya bo'linmalari tomonidan ko'rsatilayotgan bepul yuridik xizmatlar va shu kabilar uni iste'mol etuvchilari uchun katta amaliy ahamiyatga egadir. Bundan tashqari raqamli texnologiyalarga asoslangan xizmatlarni eksport qilish bugungi kunda mamlakatimizni rivojlantirishdagi eng muhim masalalardan biri sifatida ham belgilanganligi katta ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.





Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar

Ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalar

3-rasm. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining turlari¹³


O'zbekiston Respublikasi "Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi"ga (IFUT 2-tahrir) ko'ra, respublikamizda xizmatlar sohasi ma'lum bir belgilariga ko'ra tasniflangan. Ushbu tasniflagichga asoslangan holda xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy ahamiyati jihatidan guruhlashtiramiz. Buni esa quyidagi rasmda keltirib o'tamiz.

Bugungi kunda xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalarining faoliyat turiga ixtisoslashuviga ko'ra, yuqorida keltirilgan xizmat ko'rsatish korxonalardan tashqari, yana bir qator ularning turlari bor, ular jumlasiga, oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar, umumta'lim, maktabgacha ta'lim davlat muassasalarida tijorat asosida ta'lim olishni, shuningdek, radio va televideniye, internet-kanallar va pochta aloqalarini qo'shgan holda har qanday darajadagi xususiy ta'lim olish va xohlagan kasbga o'qishni ixtisoslashgan *ta'lim sohasidagi xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalar*, statsionar shifoxona muassasalari, poliklinikalar, stomatologiya muassasalari va tibbiy laboratoriyalar tomonidan pullik asosida ko'rsatilgan kompleks xizmatlarni ko'rsatadigan *sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ko'rsatadigan korxonalar*, shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar hamda ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa muhandislik xizmatlar ko'rsatadigan *me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalar*ni ham keltirish mumkin.

Albatta, yuqorida ham ta'kidlab o'tganimizdek, xizmatlar sohasi tovar ishlab chiqarish sohasidan o'z ichki va tashqi xususiyatlari va ularning iste'mol etilishi nuqtayi nazaridan anchayin farqlanadi. Chunki, xizmatlar moddiy shakldagi

¹³ Амалдаги меъёрий хужжатларга асосланган ҳолда Muallif tomonidan tuzilgan.

tovarlarni ishlab chiqarish jarayonidagi ayrim nozik oraliq bosqichlarda namoyon bo‘lib, ishlab chiqarishning bir maromda ketishiga o‘ziga xos funksiyani bajarsa, boshqa tomondan uning qiymatlarini aniqlash ham o‘ziga xos bo‘ladi. Hozirgi kunda esa respublikamizda xizmatni bajarish va uni iste‘mol qilish davrining bir xil vaqtga to‘g‘ri kelishi xizmatning o‘ziga xos xususiyati sifatida ma‘lum “bir vaqt davomida ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini o‘lchovchi “Ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlar hajmi” statistik ko‘rsatkichi, iste‘molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo‘shgan holda) ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi. Xizmatlar oldi-sotdi obyekti sifatida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to‘laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda, xizmatlar bozor uchun mo‘ljallanib ishlab chiqarilgan hisoblanadi”¹⁴. Shu jihatdan olganda xizmatlarning



4-rasm. Xizmatlarning qiymati va yo‘nalishlari bo‘yicha guruhlanishi¹⁵

Keltirilayotgan 4-rasm mazmuniga e‘tibor beradigan bo‘lsak, nobozor ishlab chiqarilgan xizmatlar ular ijtimoiy yo‘naltirilgan bo‘lib, uning tarkibini aniqlashda

¹⁴ Stat.uz. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. Статистик кўрсаткичларга қисқа методологик Тушунтиришлар. Тошкент-2022.

¹⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.

har qanday darajadagi budget mablag'lari yoki budgetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari, shuningdek jamoat tashkilotlari jamg'armalari hisobidan to'langan xizmatlarni ham o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi, bu xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ishlab chiqaruvchilari (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar hajmida ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha, qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz, hisoblangan to'lovlar hisobga olinadi. Faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarni tasniflash, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladiki, bozor xizmatlari hajmi tasniflash bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi. Bozor xizmatlarining fizik hajmi indeksi ma'lum davr oralig'idagi xizmatlar hajmining o'zgarishini aks ettiruvchi o'lchangan qiymatdir. Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan, shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin¹⁶.

*Tadqiqot ishimizning mazkur bandi doirasida amalga oshirgan nazariy tahlillarga asosanib xulosa qilishimiz mumkinki, **birinchidan**, xizmatlar sohasi texnologiyalari va tarmoq tuzilmasining murakkablashishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va xilma-xilligini yaxshilash, shuningdek, yuqori texnologiyali va intensiv xizmat ko'rsatish tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxonalar, tashkilot va*

¹⁶ Stat.uz. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. Статистик кўрсаткичларга қисқа методологик Тушунтиришлар. Тошкент-2022.

xo'jaliklarning samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga, aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar hajmida ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz hisoblangan to'lovlar hisobga olinadi. Xizmatlar oldi-sotdi obyekti sifatida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda, bozor uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlari hisoblanadi.

Uchinchidan, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanadigan barcha xizmatlar ishlab chiqaruvchilari (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari qiymatidir.

To'rtinchidan, xizmatlar sohasi tovar ishlab chiqarish sohasidan o'z ichki va tashqi xususiyatlari va ularning iste'mol etilishi nuqtayi nazaridan anchayin farqlanadi. Chunki, xizmatlar moddiy shakldagi tovarlarni ishlab chiqarish jarayonidagi ayrim nozik oraliq bosqichlarda namoyon bo'lib, ishlab chiqarishning bir maromda ketishiga o'ziga xos funksiyani bajarsa, boshqa tomondan uning qiymatlarini aniqlash ham o'ziga xos bo'ladi.

Beshinchidan, bu turdagi korxonalar iqtisodiy-moliyaviy jihatdan bozor talablariga tez moslashuvchan bo'ladi, agar ixtisoslashgan faoliyat yo'nalishida raqobat kuchayib ketgan holatda xizmat ko'rsatishning yaqinroq, (o'rinbosar xizmat) xizmat turiga moslashishi nisbatan tez amalga oshadi, xizmat ko'rsatish korxonalari yirik ishlab chiqarish subyektlari tomonidan iqtisodiy jihatdan nomaqbul bo'lgan faoliyatni amalga oshirish qulayligi ya'ni iqtisodiy tizimda oraliq operatsiyalarni bajarishga moslashganligi bilan ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Oltinchidan, xizmat ko'rsatish korxonalari tovar ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini iste'molchilarga yetkazishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki, tovar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan korxonalar tomonidan o'z tovarlarini iste'molchilarga to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berish hamma vaqt ham

samarali bo'lmaydi, bunda esa xizmat ko'rsatish korxonalari katta rol o'ynaydiki, bu tovar ishlab chiqaruvchi uchun ham iste'molchilar uchun ham qulay hisoblanadi.

Yettinchidan, xizmat ko'rsatish korxonalari aholining sotsial-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga moslashgan bo'ladi, bu esa aholining turmush tarzini yaxshilanishida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Sakkizinchidan, aholini bandligini ta'minlashda katta ahamiyatga egaligi, asosan kichik biznes shaklda mavjud bo'lishi hamda moliyaviy resurslarning tez aylanishligi kabi xususiyatlarga egaligi bunday korxonalarining bozor munosabatlarini tashkil etish va uning rivojlanib borishida o'ziga xos ahamiyatligini ko'rsatadi.

1.2. Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishning ilmiy-nazariy masalalari

Yuqorida qayd etganimizdek, xizmat ko'rsatish sohasi har qaysi milliy iqtisodiyotda muhim bo'g'in sifatida amal qiladi. Bu faoliyat bilan ma'lum turdagi va xizmat ko'rsatishning xususiyatlariga asoslangan korxonalar va tashkilotlar shug'ullanadi. Xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat olib borayotgan korxonalar amaldagi qonunchilikka ko'ra¹⁷, o'zlariga yuklatilgan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshiradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 20 va 85-moddalariga ko'ra, "soliq kodeksiga muvofiq, zimmasiga belgilangan soliqlar hamda yig'implarni to'lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq to'lovchilar deb e'tirof etiladi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan soliq to'lovchilar zimmasiga yuklatilgan soliqlarni va yig'implarni to'g'ri hisoblab chiqarish hamda o'z vaqtida to'lash majburiyati ularning soliq majburiyatidir"¹⁸. Xizmat ko'rsatish korxonalari ham Soliq kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga ko'ra, faoliyat yo'nalishlaridan kelib chiqib soliqlarni to'laydi. Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishning nazariy masalalarini ko'rib

¹⁷ Masalan, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, Ўзбекистон Республикаси "Фуқаролик кодекси", Ўзбекистон Республикаси "Хусусий корхона тўғрисида"ги қонуни, Ўзбекистон Республикаси "Солиқ кодекси", "Давлат корхоналари тўғрисидаги Низом" ва шу каби меъёрий ҳужжатлар.

¹⁸ Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодексининг 20 ва 85-моддалари.

chiqish uchun fikrimizcha, ularni soliqqa tortishda qanday yondashuvlar bo‘lganligini ko‘rib chiqish lozim bo‘ladi, bunda ularning tarkibini ko‘rish katta ahamiyatga egadir. Shu jihatdan olganda xizmat ko‘rsatish korxonalarini ko‘lamliligi jihatdan qanday tarkibga egaligini aniqlab, soliqqa tortishning nazariy asoslarini ko‘rish maqsadga muvofiqdir, shu ma’noda quyidagi jadvalni keltirib o‘tamiz.

3-jadval.

O‘zbekistonda xizmatlar sohasida jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi¹⁹ (1-yanvar holatiga ko‘ra)

№	Yillar	Xizmat ko‘rsatish korxonalarini, jumladan:	
		Kichik tadbirkorlik subyektlari	Yirik korxonalar
1.	2019	153767	59308
2.	2020	199929	62050
3.	2021	247043	62344
4.	2022	283214	64367
5.	2023	325809	66978

Keltirilgan 3-jadval ma’lumotlari respublikamizda 2023-yilning 1-yanvar holatiga xizmat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining (523 556 birlik) 325 809 birligi kichik tadbirkorlik subyektlari sanaladi, bu esa xizmatlar sohasiga oid faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidagi ulushi 82,9 % ni tashkil etdi. Xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yirik tashkilotlarning ulushi 17,1 % ni (66 978 birlik) tashkil etadi. Agar, buni 2019-yilga nisbatan dinamik jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, 2019-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 153 767 birlikni yoki ularning umumiy sonining 72,2 % ini tashkil etgan. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan ularning o‘shish sur‘ati 112,4 % ni tashkil etgan. Ushbu tahlil natijalari xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortishning nazariy asoslaridan ikkita muhim jihatga e’tibor qaratilishini taqozo etadi.

Birinchisi bu turdagi korxonalarini yagona soliqqa tortish (soddalashtirilgan tartibda) va umumiy tartibdagi (yirik soliq to‘lovchiga ega xizmat ko‘rsatish korxonalariga nisbatan) soliqqa tortish mexanizmlari qo‘llanilib kelganligini ko‘rsatadi, shu jihatdan olganda xizmat ko‘rsatish korxonalariga nisbatan qo‘llanilib

¹⁹ Ўзбекистон Республикаси Статистика агентлиги маълумотлари асосида Muallif tomonidan tuzilgan.

kelinayotgan yagona soliqqa tortishning ilmiy asoslarini ko'rib chiqishni lozim deb hisobladik.

Soliqqa oid nazariyalarning rivojlanishida soliqlarning adolatlilik tamoyilining o'rnatilishi bilan bog'liq masalalarning muhokama qilinishi soliqqa tortishning muqobil variantlarini yuzaga keltira boshladi. Qanday tartibda soliqqa tortish soliqlarning adolatlilik tamoyilini o'zida aks ettirishi haqidagi bahslar yagona soliqqa tortish nazariyasining vujudga kelishiga asos bo'ldi. Yagona soliqqa tortish nazariyasi tarafdorlarining fikriga ko'ra bunday tartibda soliqqa tortish barcha soliqlarni bitta manbaga qaratadi, uni undirishning qulayligi davlatning soliqlarni to'plashdagi xarajatlarini kamaytiradi (chunki, tarixiy taraqqiyotning aksariyat davrlarida soliqlarni undirish bilan bog'liq davlatning katta apparati shug'ullanishgan, ba'zi vaqtlarda ularga qilingan xarajatlar undirilgan soliqlardan oshib ketgan), soliq to'lovchi esa bitta soliq to'laganligi sababli davlatning soliq siyosatidan norozi bo'lmaydi degan g'oyalar o'rta asrlarda, keyinchalik esa XVIII asrlarga kelib oxirida bunday ta'limotlar kuchaya boshladi.

Yagona soliqqa tortish amaliyoti aslida dastlab Fransiyada fransuz yozuvchisi va davlat arbobi Sabasten De Vobanning taklifiga ko'ra amaldagi soliqlarning o'rniga yerlardan va sanoatdan olinadigan daromadlardan 5 foizdan 10 foizgacha miqdorda yagona soliq undirish joriy qilingan.²⁰ Ammo Fransiyada va boshqa Yevropa davlatlarida sanoatning rivojlanishi soliqqa tortishning umumiy tartiblarini rivojlantirishni taqozo qildi. Fransiyada yuzaga kelgan fiziokratlar tomonidan ilgari surilgan yagona yer rentasi sifatidagi soliqqa tortish nazariyasining rivojlanishida ularning qishloq xo'jaligi milliy daromadni yaratuvchi asosiy manbai sifatidagi qarashlaridan kelib chiqadi. Ularning namoyandalaridan bo'lgan F.Kene yerning unumdorligi va uning kadastr xususiyatidan kelib chiqib, yerdan olinadigan daromadning 2/7 qismi sifatida undirilishi lozim, deb hisoblagan.

XIX asrda Amerika yozuvchisi va iqtisodchisi Genri Djordj yerlar mehnat bilan yaratilmagan, undan keladigan daromad davlatning asosiy daromadi

²⁰ Кулишер И.М. Очерки финансовой науки, 1919, с. 147.

hisoblanib, barcha soliqlar yerdan keladigan daromadga bog‘liq bo‘ladi, shu boisdan ham hamma soliqlarni bekor qilib yagona soliq undirish lozim degan g‘oyani ilgari surgan. Iqtisodchi K.Marks esa o‘zining 1848-yilda yozgan “Kommunizm manifesti”da kapitalizmning soliq tizimini tanqid qilib, yagona progressiv daromad solig‘ini undirish lozimligi ilgari surgan. Uning fikricha, daromaddan yagona soliqni undirish kapital va kapitalizmni yo‘q qilish quroli sifatida baholab, yagona soliqqa tortishning siyosiy jihatlarini ko‘rsatib bergan.

XIX asrning 50-yillarida Fransuz iqtisodchilari E.Jirarden va E.Menelar kapitalga nisbatan yagona soliqqa tortish nazariyasini ilgari surgan. Ular o‘z nazariyalarini barcha daromadlarning manbasi va ularning qayta aylanishi bu kapital bo‘lib, kapitalning shakli ko‘pligi va uning harakati yuqori bo‘lganligi tufayli kapitaldan 1-2 foiz soliq undirish davlat xarajatlarini qoplashga yetadi degan g‘oya bilan asoslaydi. Ayrim iqtisodchilar, jumladan P.Prudon o‘z tadqiqotlarida yagona soliqqa tortish tartibi boshqa barcha soliqlarning xususiyatlarini o‘zida aks ettira olmaydi, yuqori daromad oluvchilar bilan kam daromadga ega bo‘lganlarni soliqqa tortishda yagona soliqqa tortish adolatli tarzda soliqqa torta olmaydi. Yagona soliqqa tortishda egri va to‘g‘ri soliqlar uyg‘unlashib ketadi, ammo egri soliqlar bilan to‘g‘ri soliqlarni bitta tizimida umumlashtirish soliqlarning adolatlilik tamoyilini aniqlash imkoni mavjud emas deb hisoblaydi.

Italiyalik olim F.Nitti esa yagona soliqqa tortish o‘zida soliqlarning tenglik va umumiylik tamoyillarini aks ettira olmaydi va shu jihatdan uni istisno holatlarda qo‘llash lozim deb hisoblagan. Kolumbiya universiteti (AQSh) professori E.Seligman to‘g‘ri soliqlarni soliqqa tortish mexanizmlarini tahlil qilib barcha to‘g‘ri soliqlarni bitta yagona soliq orqali undirishning afzalliklarini isbotlab bergan bo‘lsa, o‘z navbatida Rossiyalik olim A.Isayev esa yagona daromad solig‘i(tartibi)ni amaliyotda undirish imkoni yo‘qligini ko‘rsatib, daromadlar hajmi va ularning manbalari turli-tuman sharoitda bir xil tartibda soliqqa tortish o‘z mohiyatiga ega emas deb hisoblagan. A.Isayev yagona soliqqa tortish tartibini asosan yer uchastkalari, uylar va hunarmandchilik sohasini soliqqa tortishda samara berish mumkinligini izohlagan.

Yagona soliqqa tortish nazariyasining ildizi asosan klassik iqtisodiyot namoyandalaridan bo'lgan U.Pettining qarashlariga borib taqaladi. U.Petti yagona tartibda soliq undirish soliqlarning adolatlilik tamoyilini o'zida aks ettiradi, soliq to'lovchi qancha soliq to'layotganligini emas, balki, oz sonli soliq to'lashini his qiladi, bu esa davlatga soliq undirishda qo'l keladi. U. Petti o'zining 1662-yilda yozgan "Soliqlar va yig'imlar haqida traktatlar" nomli asarida yagona aksiz solig'ini joriy qilish nazariyasini ham keltiradi. U.Pettining fikricha aksiz bu iste'mol jarayonida undirilishi bois, kim daromadga ega bo'lsa, uning iste'moli ko'p bo'ladi, bu esa soliqlar boy tabaqaning zimmasiga ko'proq tushishini bildiradi, shu boisdan ham barcha soliqlarni bitta aksizda aks ettirish soliqqa tortishning samaradorligini beradi deb hisoblagan. U davlatning soliqlarni undirish xarajatlarini yagona soliq o'zida ifodalab, soliq og'irligini kamaytiradi degan g'oyani ilgari surgan. Ammo U.Pettining bu qarashlari ko'p tanqidga uchraganligi bois bu g'oyani qattiq himoya qila olmagan. Shuningdek, yagona soliqqa tortishning afzalliklariga bag'ishlangan ilmiy nazariy qarashlar ingliz iqtisodchisi va faylasufi J.Lokk (1632-1704), Rus iqtisodchilar maktabining asoschilaridan biri I.T.Pososhkovlar (1652-1726) tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, nemis iqtisodchisi E.Pfeyffer esa yagona xarajatlar solig'ining tarafdori sifatida, davlat xarajatlari qancha ko'p bo'lsa, soliqlar ham shuncha ko'p bo'lishi lozim va shunga muvofiq soliqlar xarajatlardan yagona tartibda undirilish g'oyasini ilgari suradi.

XX asrda yuz bergan jahon iqtisodiy inqirozlari transmilliy kompaniyalar iqtisodiy taraqqiyotda muhim rol o'ynasa-da, ammo iqtisodiyotning barcha qoidalariga to'la javob bera olmasligini ko'rsatdi. Shu boisdan iqtisodiyotda muhim bo'lgan tarmoq yoki faoliyat sohalarini alohida davlat siyosati orqali rivojlantirish lozimligi kun tartibiga chiqa boshladi. Bu borada qishloq xo'jaligi, tadbirkorlikning kichik shakli, ya'ni kichik biznesni rivojlantirishda soliqlar orqali rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishga urg'u berila boshlandi. O'tgan asrning 70-yillaridan so'ng bu jarayon kuchayib bordi, ayniqsa AQShdagi 70-80 yillarda yuz bergan iqtisodiy inqirozlar kichik biznes subyektlariga nisbatan soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibini qo'llashni kuchaytira boshladi. Ayniqsa, bu "Reyganomika"

deb nom olgan 80-yillardagi soliq iqtisodiy islohotlar, jumladan, soliq islohotlari davrida yagona soliqqa tortish tizimini yanada kuchaytirdi.

Respublikamizda ham iqtisodiy islohotlarning dastlabki davrlaridanoq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida huquqiy asoslar yaratila boshlandi, ularning moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlashning muhim usullaridan biri sifatida soliqlar orqali rag'batlantirish mexanizmlari yaratildi. O'zbekiston soliq tizimining oldiga qo'yilgan vazifalardan biri sifatida kichik biznesning faoliyatini rag'batlantirish vazifasi belgilandi. Respublikamizda soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibining joriy qilinishi va uning kichik biznes subyektlariga qo'llash asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 27-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 1997-yilgi Davlat budjeti munosabati bilan soliq islohotini chuqurlashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-1565-sonli farmoniga muvofiq amalga oshirildi. Unga ko'ra 1997-yildan boshlab amaldagi soliqlar o'rniga mahsulotni sotish (ishlar, xizmatlarni bajarish)dan tushgan daromadning 25 foiziga qadar miqdordagi yagona soliqni joriy etish yo'li bilan barcha mulkchilik shaklidagi kichik korxonalar uchun soliqqa tortishning tabaqalashtirilgan va soddalashtirilgan tizimi joriy qilindi. Bu davrda soliq siyosatidagi eng muhim yo'nalishlardan biri bu kichik biznes subyektlariga nisbatan alohida tartibdagi rag'batlantiruvchi soliqqa tortish tartiblarining qo'llanishi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 1998-yil 9-apreldagi PF-1987-sonli farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-apreldagi Soliq solishning soddalashtirilgan tizimiga o'tgan kichik korxonalarga soliq solish tartibi to'g'risida"gi 159-son qaroriga²¹ asosan kichik korxonalar uchun soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo'llash tartibi yalpi umumdavlat soliqlarini, shuningdek, davlat hokimiyati mahalliy organlari tomonidan joriy

²¹ Ушбу қарор Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 27 декабрдаги 244-сонли «Ўзбекистон Республикасининг 2006 йилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва давлат бюджети параметрлари тўғрисида»ги қарorigа асосан бекор қилинган.

etiladigan mahalliy soliqlar va yig'implarni to'lash o'rniga yagona soliq to'lashni nazarda tutadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishning nazariy asoslarini tahlili shuni ko'rsatadiki, bu masala mamlakatlarning qonuniy talablariga tabiiy bo'lib, ularning ishlash shakli, tashkilot tuzilishi va hisobotlariga amalga oshirilib kelingan. Bular asosan xizmat ko'rsatish uchun narxlarga ko'rsatiladigan ko'maklar va xizmatlarga soliqlar, xizmat ko'rsatish korxonalarining ishchilariga to'lovlar, ularning pensiyalariga o'tkaziladigan to'lovlar, soliqlar va to'lovlarni monitoring qilish uchun hisobotlarni taqdim qilinishini soliq nazorati shaklida muvofiqlashtirish, xizmat ko'rsatish korxonalarining o'ziga muhtoj moliyaviy vositalarga (masalan, kreditlarga) o'tkazishlari uchun soliqlar va to'lovlarni o'tkazish tartiblarida rivojlanib kelgan. Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish ko'plab omillarga bog'liq holda rivojlangan, masalan, xizmat ko'rsatish turi, biznesning hajmi va mulki, mintaqaviy va milliy soliq qonunlari va boshqalar.

Biroq odatda xizmat ko'rsatish korxonalariga nisbatan qo'llaniladigan ba'zi soliqlar, masalan, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) dunyoning aksariyat mamlakatlarida xizmatlar ko'rsatuvchi ko'pchilik kompaniyalar uchun majburiy soliq hisoblanadi, bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlari o'z hududida amaldagi muayyan shartlar va qoidalarga ko'ra daromad solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i va boshqa soliqlarni to'lashlari belgilab qo'yilgan. Ayrim mamlakatlarda tadqiqot va ishlanmalar, infratuzilma va texnologiya kabi turli xizmatlarga sarmoya kiritadigan korxonalar uchun maxsus soliq imtiyozlari va imtiyozlar ham mavjud. Bunday soliq imtiyozlari korxonaning umumiy soliq yukini kamaytirishi va uning moliyaviy holatini yaxshilashi mumkin.

Soliqqa tortish mexanizmlari takomillashib borishi bilan, xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish juda murakkablashib bordi, qator muammolar ham paydo bo'la boshladi, o'z o'rnida soliq qonunchiligi ham takomillashib bordi. Shu sababli, soliq risklarini samarali boshqarish va soliq imtiyozlarini maksimal darajada oshirish uchun tadbirkorlarga soliq maslahatchilari institutlari ham shakllangan. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining soliqqa tortilishi ko'pgina omillarga, jumladan,

ular qaysi mamlakatda joylashganligiga, huquqiy maqomiga, daromadiga va ular ko'rsatadigan xizmat turiga bog'liq holda rivojlanib kelmoqda.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni soliqqa tortish ko'plab omillarga, jumladan mulkchilik shakliga, faoliyat turiga va hududiy qonunlarga bog'liq. Umuman olganda, daromad solig'i xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari uchun soliq solishning asosiy manbai hisoblanadi. Ba'zi hollarda xizmat ko'rsatish korxonalari biznes hajmi, xodimlar soni va biznes turi kabi bir qator omillarga qarab soliq imtiyozlari yoki imtiyozlarga ega bo'lishi mumkin.

Albatta, xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish masalalari ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlarining obyekti sifatida o'rin olib kelmoqda. Shu jihatdan quyida ana shu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilamiz.

4-jadval.

Xizmat ko'rsatish tarmog'ini soliqqa tortish masalalariga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar²²

Ilmiy tadqiqotning nomi yoki yo'nalishi	Muallif(lar)i	Asosiy yo'nalishi
Xizmat ko'rsatish sohasida soliqni rejalashtirish: strategiyalar va xavflar	Smirnova E.A., Sheveleva I.A.	Xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar tomonidan qo'llaniladigan soliqni rejalashtirishning turli strategiyalari ko'rib chiqilgan, shuningdek, bu bilan bog'liq soliq risklari va ularni boshqarish imkoniyatlari baholangan.
Soliq siyosatining iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga ta'siri	Bezrukova I.Yu, Xachatryan A.R., Jukov D.V, Matveev I.V.	Soliq siyosati va uning iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga ta'siri tahlil qilingan, shu jumladan soliq stavkalarining investitsiyalarga ta'siri va soliq imtiyozlaridan foydalanish samaradorligi baholangan.
Xizmat ko'rsatish sohasidagi soliqqa tortish: xususiyatlar va istiqbollar	Kozlova E.V., Larina E.V.	Xizmat ko'rsatish sohasidagi soliqqa tortishning xususiyatlari, shuningdek, uning muammolari va rivojlanish istiqbollari ko'rib chiqilgan, ushbu sohaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda maxsus soliq mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligiga e'tibor qaratilgan.
Soliq yukining xizmat ko'rsatish korxonalarining raqobatbardoshligiga ta'siri	Artemeva O.A., Kiseleva R.A.	Soliq yukining xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining raqobatbardoshligiga ta'siri ko'rib chiqilgan.
Soliqlarning xizmat ko'rsatish sohasiga ta'sirini baholash	Nikolas Kiefer, Ron Sabin, Metyu Scheffer va Jonas Scher.	Soliq siyosati xizmat ko'rsatish sohasining o'sishi va rivojlanishiga ta'siri tadqiq qilingan.
Xizmatlarga soliq solishning iqtisodiy jihatlari	Bernard Bell, Gerald Melinskiy.	Xizmat ko'rsatish sohasidagi soliqqa tortish bilan bog'liq turli masalalar, jumladan, soliqlarning

²² Ilmiy tadqiqotlariga o'z ilmiy adabiyotlar ta'hlili asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

		ushbu sohadagi tadbirkorlik subyektlariga ta'siri, shuningdek, soliqlarning xizmatlar iste'moliga ta'siri ko'rib chiqilgan.
Xizmat ko'rsatish sohasiga investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini baholash	Patrisiya Barrera, Maykl Best.	Xizmatlar sohasiga investitsiyalarni jalb qilishda qanday soliq imtiyozlari eng samarali bo'lishi mumkinligi ko'rsatib berilgan.
Soliq solish va xizmat ko'rsatish dinamikasi	Erik Tardiff, Maykl Graber.	soliqlarning xizmat ko'rsatish korxonalarining xatti-harakatlariga, jumladan narxlar, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sifati o'zgarishiga qanday ta'sir qilishi baholangan.
Xizmatlardagi texnologik innovatsiyalarga soliqlarning ta'siri	Charlz Eduard Orlean, Filipp Musson.	Soliq siyosati xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsiyalarni rag'batlantirish masalalari tahlil qilingan.
Raqamli iqtisodiyotda xizmatlarga soliq solish	S.V.Shvetsov	Raqamli iqtisodiyotda soliqqa tortish muammolarini tahlil qilishga, shuningdek, soliq qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga bag'ishlangan.
Rossiya va xorijiy mamlakatlarda xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish	O.I.Korobova	Rossiya va xorijiy mamlakatlardagi xizmat ko'rsatish korxonalarini uchun soliq tizimini qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan.
Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini uchun soliq imtiyozlari	I.N. Balabanova	Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalariga berilishi mumkin bo'lgan soliq imtiyozlari va ularning bunday korxonalarining iqtisodiy natijalariga ta'sirini tahlil qilishga bag'ishlangan.
Iqtisodiy beqarorlik sharoitida xizmatlarga soliq solishni optimallashtirish	A.V.Borodin	Iqtisodiy beqarorlik sharoitida xizmatlarga soliq solishni optimallashtirish usullarini ishlab chiqishga bag'ishlangan.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish borasidagi ilmiy tadqiqotlarni olib borgan G.Linkova xizmat ko'rsatish korxonalar faoliyatini rag'batlantirishda soliq imtiyozlarini qo'llash mexanizmlarini tahlil qilgan, bu turdagi korxonalar faoliyatini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashning zamonaviy shakllarini tasniflab bergan, xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash shakli sifatida investitsion soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish yo'llarini ko'rsatib bergan, xizmat ko'rsatish korxonalaridan mulk solig'ini undirishda investitsiya jarayonlarini rag'batlantirishning iqtisodiy modelini asoslab bergan, xizmat ko'rsatish korxonalarida soliq majburiyatlarini bajarishi va soliq to'lashdan bo'yin tovlashga qarshi kurashishning moliyaviy usullarini ko'rsatib bergan²³.

Y.Tyutyunnikova ham korxonalarini soliqqa tortish muammolarini ilmiy jihatdan o'rganib, unda xizmat ko'rsatish korxonalariga oid ilmiy qarashlarini ham

²³ Линькова Галина Георгиевна. Активизация предпринимательской деятельности В сфере услуг методами налогового стимулирования. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Санкт-Петербург. 2018.г.

keltirib o‘tadi. U o‘zining nomzodlik dissertatsion tadqiqotida korxonaning soliq siyosatini mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida ajratib ko‘rsatishga imkon beruvchi soliq siyosatining mazmuni va uning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash orqali korxonalar faoliyatini, jumladan xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan korxonalar davlatning tartiblovchilik va rag‘batlantiruvchilik soliq siyosatini ishlab chiqish masalalarini ko‘rib chiqqan. Jumladan, “soliqqa tortish sohasidagi zamonaviy konseptual apparatni tanqidiy tahlil qilish, shuningdek, korxonaning soliq siyosatini shakllantirish bilan bog‘liq masalalarning rivojlanish darajasini o‘rgangan, soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida qabul qilingan qarorlarning xizmat ko‘rsatish korxonalarining boshqaruv qarorlari bilan aloqasini baholagan, korxonalarining soliq siyosatini shakllantirishga ta’sir etuvchi asosiy omillarni ochib bergan, davlat soliq siyosatining korxonalar soliq siyosatini ishlab chiqish jarayoniga ta’sir qilish mexanizmini o‘rgangan, bu yo‘nalishda ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqqan²⁴.

Xizmat ko‘rsatish korxonalariga oid ilmiy tadqiqotlardan yana biri S.Yegorova tomonidan bu kabi korxonalarda maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalarida buxgalteriya hisobi va tahlil bilan birgalikda soliqqa tortish masalalarining tadqiqiga qaratilgan ilmiy tadqiqotdir. Tadqiqotchi o‘zining doktorlik dissertatsion tadqiqotida xizmat ko‘rsatish sohasida maishiy xizmat ko‘rsatishning o‘rni va rolini aniqlash hamda maishiy xizmat ko‘rsatishga xos bo‘lgan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarning xususiyatlarini aniqlagan, xizmat ko‘rsatish sohasidagi iqtisodiy hodisa va jarayonlarni boshqarish mexanizmining mohiyatini oydinlashtirgan va uning fundamental xususiyatlari va mohiyatini aniqlagan, maishiy xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish tendensiyalarini o‘rgangan, davlat xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalarini axborotlashtirishning me‘yoriy, uslubiy va amaliy darajasini tahlil qilib, ularning boshqaruv jihatini baholab bergan, maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalarida buxgalteriya hisobini

²⁴ Тютюнникова Елена Сергеевна. Формирование налоговой политики Предприятия в современных условиях хозяйствования. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2003 г.

tashkil qilish va amalga oshirishda soliq to'lovlarini to'g'ri hisobga olish hamda uni yanada takomillashtirish yo'nalishlarini ko'rsatib bergan²⁵.

Maloletko Dmitriy Nikolayevich tomonidan umumiy ovqatlanish korxonalarining soliqqa tortishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ham katta ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotchi ilmiy tadqiqot doirasida "Soliq to'lovi monitoringi" tushunchasini ta'riflagan, umumiy ovqatlanish korxonalarining turar joy obyektlaridagi faoliyatining tashkiliy-huquqiy jihatlarini tahlil qilgan, umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan to'lanadigan soliq tushumlarini ulushli monitoring qilishning asosiy ko'rsatkichlarini umumlashtirilgan uni to'ldirgan va rasmiylashtirish va tizimlashtirish yo'llarini ko'rsatib bergan, bu yo'nalishdagi muammolarni hal qilish bilan bog'liq ilmiy tavsiyalarni bergan²⁶. Mazkur tadqiqotchi umumiy ovqatlanish korxonalaridagi soliq to'lovlarini monitoring qilish mexanizmlarini tahlil qilish asnosida ularning soliq majburiyatlarini bajarish orqali ularni turli xil moliyaviy jarimalarga tortilishi oldini olishga imkon beruvchi masalalarni ko'rsatib berganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Tadqiqotchi N.Milogolov xalqaro savdo xizmat ko'rsatish jarayonlariga oid ilmiy tadqiqot olib borgan. U soliqqa tortishning zamonaviy tushunchalarini umumlashtirish asosida xizmatlarning xalqaro savdosida QQSni soliqqa tortishning nazariy yondashuvlarini ishlab chiqqan, Yevropa Ittifoqi misolida amaldagi xizmatlarni sotish joyini aniqlash qoidalarini qiyosiy tahlil qilgan, bu boradagi mamlakatlar o'rtasidagi ikki tomonlama soliqqa tortish amaliyotidagi muammoli muammolarni aniqlab bergan va uni hal etish yo'llarini ko'rsatib bergan, mamlakatlar o'rtasidagi xizmatlarning xalqaro savdosi bo'yicha operatsiyalarni QQS solig'i bazasidan chiqarib tashlashga oid ilmiy takliflarini asoslagan, qo'shilgan qiymat solig'i solig'i obyektini aniqlash bo'yicha xizmatlarni amalga oshirish yo'nalishlarini tahlil qilgan, xalqaro savdo jarayonida xizmatlarning xalqaro savdosi operatsiyalarida "karusel firibgarligi"dan foydalanganda budjetga QQS

²⁵ Егорова Стэлла Курбановна. Информационное обеспечение управления в сфере бытового обслуживания. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Москва 2000 г.

²⁶ Малолетко Дмитрий Николаевич. Мониторинг налогового вклада предприятий общественного питания коллективных средств размещения. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2013 г.

tushumlarini kamaytirish uchun davlatning soliq risklarini aniqlash yo'llarini ko'rsatib bergan. Mazkur tadqiqotning muhim ilmiy ahamiyati shundaki, unda xalqaro savdo aloqalarini jonlantirishda soliq tizimining ta'sirchanligini oshirish, bu yo'nalishda faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarni soliq tizimi orqali rag'batlantirishning asoslariga ham alohida to'xtalib o'tgan²⁷.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishda mehmonxona xo'jaligini soliqqa tortish muammolari va uning yechimlariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar bu yo'nalishda katta ahamiyatga ega deb hisoblanadi. Bu yo'nalishda ham bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bunda A.Dishlevskiyning tadqiqotlarini alohida ko'rsatib o'tish mumkin. Ushbu tadqiqotchi Rossiya misolida mehmonxona tuzilmalarini samarali soliq tizimini qo'llash orqali bu turdagi korxonalarni faoliyatini tartiblash yo'llarini ko'rsatib bergan. Tadqiqotlari doirasida mehmonxona xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarni soliqlar orqali qo'llab-quvvatlash, so'ngra samarali soliqqa tortish tizimini yaratish bo'yicha takliflarni ishlab chiqqan, bu korxonalarni soliqqa tortish amaliyotini tahlil qilgan, bu jarayondagi ayrim muammolarni ko'rsatib bergan, mehmonxona tipidagi korxonalar, shuningdek, hozirgi bozor sharoitida mehmonxona tuzilmalariga soliq solishning ustuvor yo'nalishlari va shartlarini belgilab bergan, mehmonxona tipidagi korxonalarda mavjud buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish amaliyotini tanqidiy baholagan, ularning o'zaro uzviy bog'liqligini ko'rsatib uni takomillashtirish yo'llarini asoslab bergan, mehmonxona tizimidagi korxonalarida buxgalteriya hisobi va soliq hisobi va rejalashtirish sohasidagi eng murakkab masalalarni hal qilish yo'llarini ko'rsatib bergan. Bundan tashqari mazkur tadqiqotda mehmonxona xo'jaligi subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni rivojlantirish, iqtisodiy risklarni minimallashtirish va investitsiya jarayonlarini kengaytirish zarurligini hisobga olgan holda, mehmonxona xo'jaligini soliq jihatdan tartibga solishni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan²⁸.

²⁷ Милоголов Николай Сергеевич. Налог на добавленную стоимость по операциям международной торговли услугами. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2014 г.

²⁸ Дышлевский Алексей Сергеевич. Налогообложение предприятий гостиничного типа. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2007 г.

Bu boradagi ilmiy tahlillarimizni davom ettiradigan bo'lsak, xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini soliqqa tortish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud. I.A.Kozlova tomonidan bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmatlarga soliq solishga oid tadqiqotlarida, bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish xususiyatlarini ko'rib chiqqan, Yu.M.Jukov tomonidan "Xizmat ko'rsatish sohasida soliqqa tortishni optimallashtirish" nomli ilmiy tadqiqotlarida esa xizmat ko'rsatish korxonalarining soliqqa tortishni optimallashtirish yo'llarini muhokama qilingan, V.V.Petrovaning "Soliq siyosatining xizmat ko'rsatish korxonalarini rivojlanishiga ta'siri"ga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarida esa soliq siyosatining xizmat ko'rsatish korxonalarini rivojlantirishga ta'sirini tahlil qilingan va bu sohada soliqqa tortishning asosiy muammolar aniqlanib, ma'lum bir ilmiy tavsiyalar berilgan, "Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlari" nomli ilmiy tadqiqot muallifi E.A.Medvedeva esa xizmat ko'rsatuvchi korxonalariga beriladigan soliq imtiyozlarini ilmiy tadqiq qilgan.

Bundan tashqari N.A.Mamedovanning "Xizmatlarni soliqqa tortish: muammolar va istiqbollari" nomli maqolasidagi ilmiy tadqiqotlarida xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq turli xil soliq muammolarini o'rganadigan va ularni hal qilish yo'llarini taklif qilinganligi, "Jahon amaliyoti kontekstida xizmatlarni soliqqa tortish" (D.X.Nguen tomonidan amalga oshirilgan) yo'nalishdagi tadqiqotda dunyoning turli mamlakatlarida xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq soliq amaliyoti tahlil qilingan. Uning umumiy tendensiyalarni ko'rsatib berilganligi, "Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini soliqqa tortishni optimallashtirish" yo'nalishdagi (I.Y.Boikova tadqiqoti) ilmiy tadqiqotda esa xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalarini soliqqa tortishni optimallashtirish usullarini taklif qilinganligi, "Onlayn tijorat xizmatlari bilan bog'liq soliq muammolari" tadqiqotda (A.V.Korneev tadqiqoti) - onlayn tijorat bilan bog'liq holda yuzaga keladigan soliq muammolarini tahlil qilishga va ularni hal qilish yo'llarini taklif qilinganligi, "Rossiyada xizmatlarga soliq solish: davlat va muammolar" deb nomlangan (muallif A.V.Bogdanova) tadqiqotda esa Rossiyada xizmatlarga soliq solishning hozirgi

holatini tahlil qilingan va u bilan bog‘liq muammolarni aniqlab berganligini ham keltirib o‘tish mumkin.

Shuningdek, AQShda xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortish masalalarini qamrab olgan “AQShda xizmatlarga soliq solish: muammolar va yechimlar” (D.S.Baranov tomonidan amalga oshirilgan, 2017) ilmiy tadqiqotni, Yevropa Ittifoqidagi xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortish tizimi tahliliga bag‘ishlangan "Yevropa Ittifoqida xizmatlarga soliq solish: tahlil va istiqbollar" nomli ilmiy tadqiqotni (A.I.Petrov tomonidan amalga oshirilgan, 2016-yil) – xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarini soliqqa tortishni optimallashtirish imkoniyatlari o‘rganilgan “Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarini soliqqa tortishni optimallashtirish” nomli ilmiy tadqiqotni (M.V. Ivanov tomonidan amalga oshirilgan, 2015), Assaf Razin, Efraim Sadka, Chi-Va Yuenlar tomonidan tadqiq qilingan "Soliqlarning investitsiyalar va xizmat ko‘rsatish sektoridagi iqtisodiy o‘shishga ta‘sirini baholash" yo‘nalishdagi tadqiqotda esa mualliflar turli soliq siyosatlarining xizmat ko‘rsatish sohasidagi investitsiyalar va iqtisodiy o‘shishga ta‘siri baholanganligini keltirib o‘tish mumkin.

Xizmat ko‘rsatish sohasi yoki ushbu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalarining iqtisodiy faoliyati, jumladan, ularning moliyalashtirish, investitsion faoliyati va soliqqa tortish masalalarining ayrim jihatlari bo‘yicha mahalliy tadqiqotchilar tomonidan muayyan ilmiy ishlar olib borilgan. Bunday tadqiqotlar sirasiga iqtisodiyot fanlari doktori O.Aripovning kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirishga oid, dotsent To‘ychiyev Abduraxmon G‘ofurovichning Kichik biznesga innovatsiyalar transferini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishga oid, dotsent M.Masharipovanning xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid, dotsent O.Pardayevaning xizmat ko‘rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va samaradorligini oshirishga oid, iqtisodiyot fanlari nomzodi Sh.Sultonovning xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning samaradorligini oshirishga oid, dotsent I.Ergashevning xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion-investitsion jarayonlarni

rivojlantirish va samaradorligini oshirishga oid, J.Urakov tomonidan amalga oshirilgan xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga oid, I.Ochilovning xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo'llariga oid, B.Mo'minovning ko'p ukladli iqtisodiyot sharoitida agroxservis xizmati ko'rsatishning tashkiliy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirishga oid, professor J.Isakovning xizmat ko'rsatish sohasining samaradorligi va uning rivojlanishini ekonometrik modellashtirishga oid ilmiy tadqiqot ishlarini keltirish mumkin²⁹.

Shu bilan birgalikda xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishning ayrim jihatlari soliq nazariyasi bilan shug'ullangan olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham muayyan darajada o'rin olgan. Bunday ilmiy tadqiqotlarga professor D.Mutalova, iqtisodiyot fanlari doktori Q.To'qsonov, iqtisodiyot fanlari doktori, professor B.Sanaqulova, iqtisodiyot fanlari doktori I.Niyazmetov, iqtisodiyot fanlari doktori, professor J.Urmonov, dotsent A.Botirov, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sh.Toshmatovlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarni keltirish mumkin³⁰. Qayd etilgan ilmiy ishlarda kichik biznes subyektlari va tadbirkorlikning

²⁹ Арипов Ойбек Абдуллаевич. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солиш ва ишбилармонлик мухитини ривожлантириш. Иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солиш ва ишбилармонлик мухитини ривожлантириш. 2020 й., Тўйчиев Абдурахмон Ғофурович. Кичик бизнесга инновациялар трансферини молиялаштириш механизмини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. 2020 й., Машарипова Манзура Алимбаевна. Хизмат кўрсатиш тармоқларида кичик бизнесни ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. 2020 й., Пардаева Озода Мамаюнусовна. Хизмат кўрсатиш соҳасида оилавий тadbirkorlikни ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш йўллари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. 2020 й., Султонов Шодиёр Абдуҳалилович. Хизмат кўрсатиш соҳасида кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikнинг самарадорлигини ошириш йўллари (Қашқадарё вилояти мисолида). Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. 2011 й., Эргашев И.И. Хизмат кўрсатиш соҳасида инновацион-инвестицион жараёнларни ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. 2018 й., Ураков Жамшед Ражабович. Хизмат кўрсатиш корхоналари фаолияти самарадорлигини оширишнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш. (Самарқанд вилояти мисолида). Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. 2012 й., Очилов И.С. Хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналарида самарадорликни ошириш йўллари. Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. 2010 й., Мўминов Б. О. Кўп укладли иқтисодиёт шaroitида агрохисervis хизмати кўрсатишнинг ташкилий ва иқтисодий асосларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. 2020 й., Исаков Ж.Я. Хизмат кўрсатиш соҳасининг самарадорлиги ва унинг ривожланишини эконометрик моделлаштириш (Қорақалпоғистон Республикаси мисолида). Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. 2001 й.

³⁰ Муталова Д.М. Солиққа тортишнинг соддалаштирилган тартибини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. 2010 й., Санакулова Б. Р.

boshqa yoʻnalishdagi korxonalarni soliqqa tortish masalalarini koʻrishda tadqiqot obyektlari sifatida bevosita xizmat koʻrsatish faoliyati bilan shugʻullanayotgan korxonalar ham olinganki, bunga asoslangan holda ushbu ilmiy ishlarni xizmat koʻrsatuvchi korxonalarni soliqqa tortishga daxldor tadqiqotlar sifatida qarash mumkin. Shu bilan birgalikda alohida qayd etish lozimki, xizmat koʻrsatish korxonalarini alohida bir tizim sifatida soliqqa tortish jarayonlarini dissertatsion tadqiqot sifatida oʻrganilgan ilmiy tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan. Mazkur paragraf doirasida amalga oshirilgan ilmiy nazariy tahlillarimizga umumiy xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, xizmat koʻrsatish korxonalarini soliqqa tortish soliq tizimi tarixining dastlabki shakllanishidan buyon amalga oshirilib kelingan, ushbu korxonalarni soliqqa tortish esa dunyoning hozirgi taraqqiyot davrida asosan soddalashtirilgan tartibda va umumiy tartibda soliqqa tortib kelinmoqda. Bunday soliqqa tortish mexanizmlarining asosini esa xizmat koʻrsatish korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakli va faoliyatining ichki va tashqi xususiyatlari tashkil etmoqda.

1-bob boʻyicha xulosa

Tadqiqot ishimizning mazkur bobi doirasida amalga oshirgan ilmiy-nazariy tahlillarimiz asosida bir qator ilmiy xulosalarni shakllantirishga imkon berdi:

Xizmat koʻrsatish korxonalarining vujudga kelishining asoslari sifatida avvalo iqtisodiy tizimning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tizim shaklida mavjud boʻlishini keltirish mumkin. Ishlab chiqarish sohasidagi tovarlar ishlab chiqarilishning iqtisodiy-texnologik xususiyatlari va bu tizimning bir maromda ketishi uchun maʼlum bir qoʻshimcha faoliyatga ehtiyoj tugʻiladiki, bunday ehtiyojlarni ishlab chiqarish va koʻrsatish mohiyati jihatdan xizmat tushunchasi

Кичик тадбиркорлик субъектларининг солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш орқали иқтисодий ўсишни таъминлаш. Иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.2016., Ниязметов И. М. Солиққа тортиш механизмларини такомиллаштириш орқали солиқ тизими барқарорлигини таъминлаш. Иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.2018., Урмонов Ж.Ж. Тадбиркорлик субъектлари фаолиятини солиқ механизми воситасида тартибга солишни такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.2018., Ботиров Азамат Ахмедович. Кичик тадбиркорлик субъектларини солиққа тортиш амалиётини такомиллаштириш йўллари. Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. 2012., Тошматов Ш. А. Корхоналар иқтисодий фаоллигини оширишда солиқлар ролини кучайтириш муаммолари. Иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.2008.

bilan izohlanadi. Bundan tashqari ishlab chiqarilgan tovarlarni iste'mol qilishning xususiyati esa ishlab chiqarilgan tovarlarni uning iste'molchilariga yetkazishda oraliq bo'g'inni talab qiladiki, bu jarayon esa xizmatlar sohasini yoki uni amalga oshirishni korxonalariga bo'lgan ehtiyojni taqozo etadi. Bu turdagi korxonalar bir qator muhim xususiyatlarga egadir: *birinchidan*, ularning iqtisodiy-moliyaviy jihatdan bozor talablariga tez moslashuvchanligidir, ya'ni agar ixtisoslashgan faoliyat yo'nalishida raqobat kuchayib ketgan holatda xizmat ko'rsatishning yaqinroq, (o'rinbosar xizmat) xizmat turiga moslashishi nisbatan tez amalga oshadi. *Ikkinchidan*, uning moslashuvchanligi bu turdagi korxonalarining boshqa bir muhim xususiyati-nisbatan risk darajasining kamligini ham ko'rsatadi, bu kabi korxonalarni tashkil qilishda unga tikilgan moliyaviy sarmoyalarni qaytishi va samaradorlik ko'rsatkichlarini keltirishida risk boshqa yirik korxonalariga nisbatan kamroq bo'ladi, bu esa xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarning oqimining ortishiga va bu turdagi korxonalarining oshishiga muhim omil bo'ladi. *Uchinchidan*, xizmat ko'rsatish korxonalari yirik ishlab chiqarish subyektlari tomonidan iqtisodiy jihatdan nomaqbul bo'lgan faoliyatni amalga oshirish qulayligi ya'ni iqtisodiy tizimda oraliq operatsiyalarni bajarishga moslashganligi bilan ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. *To'rtinchidan*, tovar ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini iste'molchilarga yetkazishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki, tovar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan korxonalar tomonidan o'z tovarlarini iste'molchilarga to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berish hamma vaqt ham samarali bo'lmaydi, bunda esa xizmat ko'rsatish korxonalari katta rol o'ynaydiki, bu tovar ishlab chiqaruvchi uchun ham, iste'molchilar uchun ham qulay hisoblanadi. *Beshinchidan*, xizmat ko'rsatish korxonalari aholining sotsial-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga moslashgan bo'ladi, bu esa aholining turmush tarzini yaxshilanishida katta ahamiyatga ega hisoblanadi. *Oltinchidan*, aholini bandligini ta'minlashda katta ahamiyatga egaligi, asosan kichik biznes shaklda mavjud bo'lishi hamda moliyaviy resurslarning tez aylanishligi kabi xususiyatlarga egaligi bunday korxonalarining bozor munosabatlarini tashkil etish va uning rivojlanib borishida o'ziga xos ahamiyatligini ko'rsatadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish soliq tizimi tarixining dastlabki shakllanishidan buyon amalga oshirilib kelingan, ushbu korxonalarni soliqqa tortish esa dunyoning hozirgi taraqqiyot davrida asosan soddalashtirilgan tartibda va umumiy tartibda soliqqa tortib kelinmoqda. Bunday soliqqa tortish mexanizmlarining asosini esa xizmat ko'rsatish korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakli va faoliyatining ichki va tashqi xususiyatlari tashkil etmoqda.

II BOB. XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI

2.1. Xizmat ko'rsatish korxonalarining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni va ularni soliq-moliya tizimi orqali qo'llab-quvvatlashning yo'nalishlari tahlili

Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyotini tahlil qilishga bag'ishlanadigan mazkur bobda fikrimizcha, ushbu korxonalarining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni, ular tomonidan soliq bazasiga asos bo'ladigan xizmatlar qiymati hamda unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish lozim deb hisoblaymiz. Shundan kelib chiqqan holda bu turdagi korxonalarining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni qisqacha tahlil qilamiz.

Yuqorida keltirib o'tganimizdek, respublikamizda 2023-yilning 1-yanvar holatiga xizmat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy ulushida (325 809 ta) 82,9 % ni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etgan bo'lib, bunda ularning umumiy soni 523 556 tani tashkil etgan. Xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yirik tashkilotlarning soni 66 978 tani tashkil etadiki, bu umumiy korxonalaridagi ulushi 17,1 %ni tashkil etgan. Bular miqdor ko'rsatkichlar bo'lib, ularni sonining oshishi, agar soliq imtiyozlarini e'tiborga olinmasa, soliq tushumlariga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etadi. Shu bilan birgalikda ta'kidlash lozimki, xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishda ular tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati muhim sanaladi. Agar, shu tamoyildan kelib chiqadigan bo'lsak, tahlillarga e'tibor beradigan bo'lsak, birgina 2022-yilda yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 173157,7 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilgan holda bu umumiy ko'rsatilgan bozor xizmatlarida 48,4 % ni tashkil etgan.

Tahlillarni davom ettiradigan bo'lsak, 2022-yilda jami 357,6 trln. so'mlik bozor xizmatlari ko'rsatilgan bo'lib, 2018-yilga nisbatan bu 206,7 trln. so'mga oshgan. O'z navbatida 2022-yilning yanvar-dekabriga qadar bo'lgan davrda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati 175,9 % ga yetgan. Bunda asosiy omil sifatida moliyaviy xizmatlar (59,1 trln. so'mga), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (12,6 trln. so'mga), ta'lim xizmatlari (10,0 trln. so'mga)

kabi xizmatlar hajmining o‘sganligini ko‘rsatish mumkin. Bu esa mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida xizmatlar sohasida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilayotganligi va bu boradagi davlatning iqtisodiy islohotlarining samarasidan dalolat beradi.

5-jadval.

O‘zbekistonda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tahlili³¹

	Xizmat turlarining nomi	Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘mda				
		2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
1.	Xizmatlar – jami	150 900	193 700	220 000	284 388	357 554
2.	aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	10300	10900	13900	17 755	22 917
3.	moliyaviy xizmatlar	21300	34000	45800	59 733	80 431
4.	transport xizmatlari	44200	54500	53700	67 202	81 006
5.	shu jumladan: avtotransport xizmatlari	21800	25500	28500	36 253	41 318
6.	yashash va ovqatlanish xizmatlari	4700	5900	5400	8 375	11 322
7.	savdo xizmatlari	39700	48700	57600	72 483	88 847
8.	ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	4900	5900	6000	8 081	9 674
9.	ta‘lim sohasidagi xizmatlar	5400	7200	8500	12 102	15 395
10.	sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2200	3100	3400	5 105	6 384
11.	ijara xizmatlari	3300	3700	4100	5 351	6 444
12.	kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar	2600	3200	3300	4 680	5 842
13.	shaxsiy xizmatlar	3600	4200	5400	6 799	8 713
14.	me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	3000	4500	4900	6 306	7 338
15.	boshqa xizmatlar	5700	7900	8000	10 410	13 235

Keltirilgan jadval ma‘lumotlaridan ko‘rish mumkinki, mamlakatimizda 2018-2022-yillarda barcha turdagi xizmat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar qiymati oshib borgan. Bunda albatta, inflyatsiyaning ta‘siri ham bo‘lgan bo‘lsa-da, biroq xizmatlarning sof o‘sishi ham oshib borganki, bu holat ushbu korxonalar tomonidan to‘lanadigan soliq tushumlariga ham ta‘sir qilgan (bu bo‘yicha keyingi bandlarda tahlilini keltiramiz). Oxirgi tahlil yili bo‘lgan – 2022-yilning davriga qaraydigan bo‘lsak, ushbu yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari

³¹ Статистика Давлат агентлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланган.

tarkibida ta'lim sohasidagi xizmatlar – 4,3 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 6,4 %, moliyaviy xizmatlar – 22,5 %, transport xizmatlari – 22,7 %, savdo xizmatlari – 24,8 % ni tashkil etgan bo'lib, eng ko'p ulush savdo, transport va moliyaviy xizmatlarga to'g'ri kelmoqdaki, (bu avvalgi yil – 2021-yilda xizmatlarning umumiy hajmida savdo xizmatlari 25,5 %, transport xizmatlari – 23,6 %, moliyaviy xizmatlar – 21,0 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 6,2 %, ta'lim xizmatlari – 4,3 % ni tashkil etgan) biz shulardan kelib chiqqan holda soliq tushumlarida ham ko'proq ulushni egallaganligi uchun tahlillarimizni ushbu korxonalariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xizmat turlarining qiymat jihatdan oshishi aholi jon boshiga ko'rsatiladigan xizmat hajmiga ham ta'sir qiladiki, bu pullik xizmatlarning oshishi hisobiga soliq tushumlariga ham ta'sir qiladi.

6-jadval.

2018-2022-yillarda respublikamizda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi tahlili³²

	Xizmat turlarining nomi	Xizmatlar hajmi				
		2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
1.	Xizmatlar – jami (mlrd. so'mda)	150900	193700	220000	284 388	357554
2.	Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi (mln. so'mda)	4,6	5,8	6,4	8,1	10,0
3.	Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining avvalgi yillarga nisbatan o'sishi (foizda)	107,0	111,1	101,1	117,2	113,5

Javdalga e'tibor beradigan bo'lsak, tahlil qilinayotgan yillar, ya'ni 2018-2022-yillarda respublikamizda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi yil sayin oshib borgan, 2022-yilda aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 10 030,1 ming so'mga yetdi. 2021-yilga nisbatan o'sish sur'ati 113,5 % ni tashkil etgan holda, 2018-yilga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2 barobardan oshgan. Bizga ma'lumki, xizmat ko'rsatish korxonalari to'laydigan aksariyat soliqlar bo'yicha tushumlar mahalliy budjetlarga tushadi, bu esa hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining darajasiga ham bog'liq bo'ladi, agar hududlarda ko'rsatiladigan xizmatlarning hajmi oshib borsa, mahalliy budjetlarga

³² Statistika Davlat agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

soliq tushumlarining oshishiga ham ijobiy ta'sir qilishi tabiiy, shu boisdan ham biz hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining darajasini tahlil qilamiz, buni quyida keltirilayotgan 7-jadval ma'lumotlariga asoslanamiz.

7-jadval.

2020-2022-yillarda O'zbekistonda hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari tahlili³³

Hududlarning nomi	Hajm, mlrd. so'mda	Umumiy hajmga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da	
			2021-y.	2020-y.
O'zbekiston Respublikasi	357 554,5	100,0	115,9	119,5
Qoraqalpog'iston Resp.	10 421,9	2,9	115,7	121,5
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	17 642,4	4,9	112,9	118,3
Buxoro	15 780,0	4,4	115,8	118,0
Jizzax	7 984,0	2,2	115,7	117,8
Qashqadaryo	15 945,8	4,5	114,1	114,4
Navoiy	9 247,2	2,6	114,2	118,3
Namangan	14 722,6	4,1	116,6	119,7
Samarqand	22 734,9	6,4	114,9	119,0
Surxondaryo	12 878,0	3,6	114,5	120,1
Sirdaryo	5 029,8	1,4	112,5	118,8

Darhaqiqat, respublikamizda xizmatlar sohasining rivojlanib borishi pirovardida aholining hududiy va ijtimoiy, yangi iqtisodiy hududlarni o'zlashtirishni, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni va moddiy ne'matlarni iste'mol qilishni oshishiga xizmat qiladi. 2020-2022-yillarda O'zbekistonda hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2022-yilda hududlar kesimida xizmat ko'rsatishning eng yuqori ulushlarni Toshkent shahri, Samarqand, Andijon va Buxoro viloyatlari egallaydi, ya'ni 2022-yilda bozor xizmatlarining umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi 38,4 %, ya'ni 137 358,1 mlrd. so'mni, 2021-yilga nisbatan esa Toshkent shahrida xizmat ko'rsatish qiymatining o'sish sur'ati 118,2 %ni tashkil qilgan. Hududlar kesimida eng kam ulushni egallagan Sirdaryo viloyatida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2022-yilda 5 029,8 mlrd. so'mni tashkil etganki, bu umumiy xizmatlar hajmining bor yo'g'i 1,4 % ini tashkil etadi. O'z o'zidan

³³ Statistika Davlat agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

ko‘rinadiki, hududlarda xizmatlar oshishi mahalliy budjetlarga ham soliq tushumlarining oshishiga xizmat qiladi.

Yana shuni ham ta’kidlash lozimki, respublikamizda aholi soni xizmatlar sohasining o‘rtacha jon boshini rivojlanish ko‘rsatkichiga muhim ta’sir ko‘rsatadi va bu holat hududlarda soliq tushumlarining miqdoriga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Jumladan, aholi soni nisbatan kam bo‘lgan Navoiy va Buxoro viloyatlarida aholi jon boshiga ko‘rsatkichlar aholi zich joylashgan viloyatlar hisoblangan-Namangan va Andijon viloyatlariga qaraganda anchayin yaxshi ko‘rsatkichlarga ega. Chunki, sanoati rivojlangan O‘zbekiston hududlari bo‘lgan Navoiy va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahrida xizmatlar sohasining aholi jon boshiga o‘rtacha ko‘rsatkichlari Xorazm, Namangan va Surxondaryo viloyatlariga nisbatan yuqoridir. Hududlarda kichik tadbirkorlik qanchalik rivojlangan bo‘lsa, birinchidan, xizmatlar hajmining oshishiga olib kelsa, boshqa tomondan aholi bandligini ta’minlashga xizmat qilsa, pirovardida soliq tushumlarining oshishini ham ta’minlaydi.

Chunki, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik sektori iqtisodiyotning barqaror o‘shishiga, yangi ish o‘rinlarini yaratishga, daromadlarni oshirishga va aholi farovonligini ta’minlashga yordam beradi. Albatta, hududlarning sotsial-iqtisodiy rivojlanishi ularda xizmat turlarining darajasining darajasini ham belgilab berishga xizmat qiladi. Ba’zi hududlarda xizmat turining qaysidir turi rivojlangan bo‘lsa, boshqalarida esa boshqa turlari nisbatan kuchliroq rivojlangan bo‘ladi. Masalan, Toshkent, Buxoro, Samarqand, Xiva shaharlarida yashash xizmatlarini ko‘rsatish xizmat turlari anchayin rivojlangan va bu o‘z navbatida soliq tushumlarida ham o‘z aksini topadi.

2022-yilda respublikamiz hududlar kesimida ko‘rsatilgan xizmat turlari bo‘yicha tabaqalanishuv darajasi tahlili³⁴

Hududlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘mda			Ta’lim xizmatlari	Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar
	Transport xizmatlari	Moliyaviy xizmatlar	Telekommuni katsiya xizmatlari		
O‘zbekiston Respublikasi	81 006,6	80 431,0	14 714,2	15 395,7	11 322,8
Qoraqalpog‘iston Resp.	2 830,1	2 228,7	510,1	677,6	230,7
Andijon	3 460,6	3 593,0	804,2	919,9	325,0
Buxoro	3 310,8	3 119,8	567,0	839,6	597,7
Jizzax	1 164,7	2 111,5	343,6	424,7	243,5
Qashqadaryo	3 401,7	2 676,6	731,5	631,9	478,0
Navoiy	1 497,9	1 939,3	336,2	348,2	581,6
Namangan	2 504,5	2 472,5	681,7	774,5	372,6
Samarqand	5 333,6	3 585,6	984,3	1 208,7	860,9
Surxondaryo	1 926,9	2 650,2	581,3	564,6	408,6
Sirdaryo	666,2	1 598,0	270,5	216,3	119,8
Toshkent	5 946,4	3 473,6	720,0	710,1	1 039,5
Farg‘ona	3 990,8	4 738,8	1 076,7	1 192,5	565,5
Xorazm	2 354,6	2 176,5	498,1	526,7	248,0
Toshkent shahri	13 112,7	44 066,9	6 597,3	6 360,4	5 251,1

Respublikamiz hududlar kesimida ko‘rsatilgan xizmat turlari bo‘yicha tabaqalanishuv darajasi 2022-yil kesimidagi tahlilini ayrim xizmat turlari: transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, telekommunikatsiya xizmatlari, ta’lim xizmatlari hamda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar misolida shuni ko‘rish mumkinki, bu jihatdan ham hududlarda keng tabaqalashuv mavjudligini ko‘rish mumkin. Jumladan, tahlil qilinayotgan davrda eng ko‘p xizmat miqdori Toshkent shahriga to‘g‘ri kelgan. Keyingi o‘rinda Samarqand viloyati turadi, transport xizmatlari va moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha Andijon va Buxoro viloyatlarida ham ko‘rsatkichlar boshqa hududlarga nisbatan ancha yaxshiroqdir.

Ta’kidlash joizki, xizmat ko‘rsatish korxonalaridan soliq undirilishi amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladi, ular tomonidan yaratiladigan xizmat qiymati va uning realizatsiyasi hajmidan kelib chiqib, soliq bazasi shakllanadi. Shu bilan birgalikda bu turdagi korxonalarining soni ham soliq tushumlarining budjetga tushishida miqdoriy omil hisoblanadi.

³⁴ Статистика Давлат агентлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланган.

2018-2022-yillarda xizmat ko'rsatuvchi korxonalar sonining dinamik tahlili va jami korxonalaridagi ulushi³⁵

	Ko'rsatkichlar	Yillar				
		2018	2019	2020	2021	2022
1.	Jami korxonalar va tashkilotlar soni	827011	1086561	1294608	1459372	1629825
2.	Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar	323517	398133	475197	528929	592371
3.	Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari	49056	93091	93425	99168	90565
4.	Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari	48922	92874	93214	98886	90177
5.	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar	24480	29579	41321	46501	53808
6.	Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar	76052	85644	118644	155009	202226
7.	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar	19812	25636	30111	33104	36811
8.	Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar	6975	7901	9517	10587	12204
9.	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar	6778	7903	9145	10391	11597
10.	Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar	13330	15360	17301	18251	20666
11.	Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar	170158	219370	272890	316903	367149
12.	Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar	72424	83558	90721	89148	93141
13.	Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar	15507	27512	43122	52495	59110

Buni yuqorida keltirilgan 9-jadval ma'lumotlari asosidagi 2018-2022-yillarda xizmat ko'rsatuvchi korxonalar sonining dinamik tahlili va jami korxonalaridagi ulushidagi holatda ham ko'rish mumkin. Tahlillarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar, ya'ni yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari, savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va

³⁵ Statistika Davlat agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

tashkilotlar, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar kesimida 2022-yildagi ko‘rsatkichlari 2018-yilga nisbatan barchasida qariyb 2 barobarga qadar oshgan. Bu miqdoriy ko‘rsatkichlar agar ushbu korxonalar barqaror iqtisodiy faoliyat ko‘rsatib turgan sharoitda va xizmatlar sifatini oshirib borgan holatda davlat budjeti bo‘g‘inlariga barqaror soliq tushumlarining tushishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, xizmat ko‘rsatish korxonalar orasida savdo korxonalar hamda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ko‘pchilikni tashkil etishi bilan bir qatorda, soliq tushumlarida ham katta ulushga ega hisoblanadi. Chunki, bu turdagi korxonalarni tashkil etish bir tomondan boshqa turdagi korxonalariga nisbatan biroz qulayroq bo‘lsa, boshqa tomondan bunday korxonalarda moliyaviy mablag‘larning aylanishi nisbatan tezroqdir va foyda olish davriyligi ham shunchalik tezdir. Bundan tashqari bunday korxonalarda risk darajasi ham borki, ularni to‘g‘ri boshqarish ham muhim sanaladi, shu jihatdan olganda ularda faoliyatning marketing strategiyalariga e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi. Shu sababdan soliq tushumlariga ta‘sir qiluvchi miqdoriy ko‘rsatkichlar (omillar)ni tahlil qilishda savdo sohasidagi korxonalar tarkibiy dinamik o‘zgarishlarini tahlil qilamiz.

10-jadval.

2018-2022-yillarda savdo sohasida xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar sonining dinamik tahlili³⁶
(birlikda)

	Savdo korxonalarining soni	Yillar				
		2018	2019	2020	2021	2022
1.	Jami	76052	85644	118644	155009	202226
2.	Ulgurji savdo korxonalar	18349	22313	31327	43584	54662
3.	Chakana savdo korxonalar	41663	45029	64014	84042	117603
4.	Umumiy ovqatlanish korxonalar	16040	18302	23303	27383	29961

10-jadval ma‘lumotlariga qaraydigan bo‘lsak, savdo sohasidagi korxonalardan tushadigan soliq tushumlarining miqdoriy omili bo‘lgan korxonalar soni tahlil

³⁶ Статистика Давлат агентлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланган.

qilinayotgan yillar kesimida o'sib borish dinamikasiga ega bo'lgan. Agar, 2023-yil 1-yanvar holatiga qaraydigan bo'lsak, chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 117 603 ta bo'lgan, bu ko'rsatkich avvalgi yili, ya'ni 2022-yil 1-yanvarga nisbatan 117,4 foizga o'sgan holda miqdoriy jihatdan 17 052 taga ko'paygan. Bunda faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 349 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 117 254 tani tashkil qildi. Savdo sohasida korxonalar tarkibidagi bunday ijobiy dinamik o'sish, pirovardida ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmat hajmiga hamda tabiiyki, soliq tushumlari hajmiga ta'sir qilgan.

Tahlil qilinayotgan oxirgi yili 2022-yil misolida tahlil qiladigan bo'lsak, respublikamizda chakana savdo tovar aylanmasi 319 288,2 mlrd. so'mni tashkil etgan, bu esa 2021-yilga nisbatan 112,3 % ga oshganligini ko'rsatadi. Agar, buni yirik va kichik maqomdagi korxonalar kesimida qaraydigan bo'lsak, 2022-yilda yirik savdo korxonalarining tovar aylanmasi 65 714,8 mlrd. so'mni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 253 573,4 mlrd. so'mni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 25 970,2 mlrd. so'mni tashkil etgan, o'sish nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, mos holda 130,7 %, 108,4 %, 112,1 % ga o'sgan.

Shuningdek, 2022-yilda chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalar ulushi 20,6 %, kichik biznes korxonalarini 79,4 % va uyushmagan savdo aylanmasi 8,1 % ni tashkil qildi. Chakana savdo aylanmasi, shu jumladan umumiy ovqatlanish korxonalarini aylanmasini qo'shgan holda aholi jon boshiga 10,0% ga oshdi va 8 956,7 ming so'mni tashkil etdi. Bizga ma'lumki, chakana savdo aylanmasi bu – aholiga shaxsiy, oilaviy, maishiy va tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan shu kabi foydalanish uchun sotilgan tovarlarning qiymatini o'zida aks ettirib, mazmunan olib qaraganda iste'mol indeksining oshishiga, iqtisodiy oqibatda esa soliq tushumlarining oshishiga ham ta'sir qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,6 foizi yoki 182,2 mingtasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi. Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha

taqsimoti quyidagicha: avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yoʻnalishi 62,4 foiz ulushni tashkil etgan boʻlib, 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda oʻsish surʻati 113,5 foizni; avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yoʻnalishida 28,9 foiz ulushni tashkil etib, oʻsish surʻati 121,3 foizni, avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni taʼmirlash yoʻnalishida 8,7 foiz ulushni tashkil etib, oʻsish surʻati 122,5 foizni tashkil etdi.

Yuqorida taʼkidlaganimizdek, xizmat koʻrsatish korxonalaridan soliq tushumlari tarkibida umumiy ovqatlanish korxonalari ham yetarli ulushni egallaydi. Agar, 2023-yil 1-yanvar holati doirasidagi tahlillarga asoslanadigan boʻlsak, umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar soni 33 111 tani, bu 2022-yil 1-yanvar holatiga nisbatan 3 150 taga oshib va oʻsish surʻati 110,5 % ni tashkil etganligini koʻrish mumkin. 2022-yilda oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 3,5 % ni tashkil etib, 11 146,5 mlrd. soʻmni tashkil qilgan va 2021-yilning mos davriga nisbatan 19,8 % ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining 75,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri kelgan.

Statistik baholash jihatdan qaraganda ulgurji tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki oʻz foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga oʻzgartirilmagan holda joʻnatilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq toʻlanganligidan yoki toʻlanmaganligidan qatʼi nazar hisobga olinadi. Tahlillarning koʻrsatishicha, soʻnggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining oʻrni pasayish tendensiyasiga ega boʻlib bormoqda. 2022-yil yakunlariga koʻra, ushbu sektorning jami ulgurji tovar aylanmasidagi ulushi 0,1 % ni tashkil etgan, ulgurji savdo aylanmasi 247 076,9 mlrd. soʻmni tashkil etib, shu jumladan, nodavlat tasarrufga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi 246 917,6 mlrd. soʻmni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan 159,3 mlrd. soʻmni tashkil etgan.

2018-2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasida korxonalar moliyaviy natijalari va xizmatlar bo‘yicha yig‘ma iste‘mol narxlari indeksining o‘zaro bog‘liqligi tahlili³⁷

	Ko‘rsatkichlar	Yillar				
		2018	2019	2020	2021	2022
1.	Yakuniy moliyaviy natijalarning yillar bo‘yicha dinamikasi (mlrd so‘m)	22 096,7	27656,7	40511,5	62753,4	74009,8
2.	Korxonalar va tashkilotlarning debitor qarzdorligi dinamikasi (mlrd. so‘m)	91 749,8	93096,6	120541,3	160462,5	220191,2
3.	Korxonalar va tashkilotlarning muddati o‘tgan debitor qarzdorligi dinamikasi (mlrd. so‘m)	925,8	15321,4	1758,9	2207,1	6826,7
4.	Korxonalar va tashkilotlarning kreditor qarzdorligi dinamikasi (mlrd. so‘m)	94172,8	107170,9	130315,0	188342,6	247147,8
5.	O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha yig‘ma iste‘mol narxlari indeksi (INI) o‘tgan yilning dekabriga nisbatan (foizda)	114,3	115,2	111,1	110,0	112,3
6.	Yig‘ma INI o‘rtacha oylik o‘sish sur‘ati (foizda)	1,1	1,2	0,9	0,8	1,0
7.	O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha xizmatlar INI (foizda)	115,8	115,2	107,1	107,7	108,4

Tahlil qilinayotgan yillar davomida respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar, shu jumladan, xizmat ko‘rsatish korxonalarining yakuniy moliyaviy natijalarning yillar bo‘yicha dinamikasi o‘rtacha 2,5-3 barobarga o‘sganligini ko‘rish bilan bir qatorda, korxonalarda korxonalar va tashkilotlarning debitorlik hamda kreditorlik qarzdorligi dinamikasi ham asta sekinlik bilan oshib borganligini ko‘rish mumkin. Bu holatlar barcha korxonalar singari xizmat ko‘rsatish korxonalarini tomonidan to‘lanadigan soliq tushumlariga ham ijobiy, ham salbiy ta‘sir etib borgan. Albatta, bu jarayonda iste‘mol narxlari indeksining ham ta‘sirini e‘tiborga olish kerak bo‘ladi. Iste‘mol narxlari indeksining o‘zgarish dinamikasini tahlil qiladigan bo‘lsak, xizmat ko‘rsatish sohasida 2018-yilda 115,8 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich birmuncha pasayib, 108,4 foizga teng bo‘lgan, bu holat xizmat ko‘rsatish korxonalarini tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlarning qiymatining normallasuvi orqali iste‘mol hajmining oshishiga, natijada esa soliq tushumlarining miqdoriga ham ta‘sir qilgan. Tahlillar va rasmiy ma‘lumotlar 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha iste‘mol narxlari darajasi 12,3 % ga, tovarlar

³⁷ Statistika Davlat agentligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

narxlari 13,4 %, xizmatlar narxlari esa 8,4 % atrofida o‘sganligini ko‘rsatadi. 2022-yilda yig‘ma iste‘mol narxlari indeksining o‘rtacha oylik o‘sish sur‘ati 1,0 % ni tashkil etib, 2020 va 2021-yillardagi ko‘rsatkichlardan baland, biroq 2018-2019-yillardagi ko‘rsatkichdan past bo‘lgan. Xizmat ko‘rsatish korxonalarining soliq tushumlarida ular tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarning iste‘mol narxlari indeksini baholash muhim iqtisodiy ahamiyatga egadir. Iste‘mol narxlari indeksining o‘zgarishi xizmatlarga bo‘lgan talabga ta‘sir qiladi. Chunki, iste‘mol narxlari indeksi ko‘proq xizmatlar turiga tezroq ta‘sir qiladi, sababi yuqorida ta‘kidlaganimizdek, xizmatlar sohasining aksariyat turlarida moliyaviy mablag‘larning aylanish tezligi birmuncha yuqoriroqdir.

12-jadval.

O‘zR MIIT – 2018*³⁸ bo‘limlari bo‘yicha xizmatlar sohasi yo‘nalishlari bo‘yicha iste‘mol narxlari indeksi tahlili³⁹ (INI) (% da o‘tgan yilning dekabriga nisbatan)

Ko‘rsatkichlar	yillar		
	2020	2021	2022
Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	116,1	114,7	123,6
Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar	104,0	100,4	104,3
Ta‘lim sohasidagi xizmatlar	105,6	111,6	104,1
Dam olish, sport va madaniyat	106,7	109,1	114,4
Axborot va aloqa	103,2	102,9	101,7
Transport	109,6	113,4	109,7
Sog‘liqni saqlash	112,8	108,5	116,7

Tahlillarning ko‘rsatishicha, statsionarda davolash bo‘yicha xizmatlar narxlaridagi tebranishlar 2022-yilda 2021-yilga nisbatan pastroq darajada bo‘lgan, yo‘lovchi tashish transporti xizmatlari narxlari va tariflarida yil davomida 15,4 % ga


³⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 3 августдаги ПҚ-4796-сонли қарори билан тасдиқланган 2020-2025 йилларда Ўзбекистон Республикаси статистикасини ривожлантиришнинг миллий стратегиясини амалга ошириш бўйича “Йўл харитаси”нинг 36-банди ижросини таъминлаш юзасидан, 2021 йил январь ойидан бошлаб, Давлат статистика қўмитаси МДХга аъзо давлатлар орасида биринчилардан бўлиб истеъмол нархлари индексини (ИНИ) тўлиқ БМТнинг Мақсадлар бўйича индивидуал истеъмол таснифлагичи 2018 (МИИТ 2018) (Classification of Individual Consumption According to Purpose) 2018 халқаро стандартига асосида шакллантиришни жорий этди. ЎзР МИИТ – 2018 таснифлагичи 2021 йилдан ИНИни ҳисоблаш амалиётига жорий этилган. Статистик мақсадларда 2020 йил учун ИНИнинг ЎзР МИИТ – 2018 тузилмаси бўйича қайта ҳисоб китоблари амалга оширилган.

³⁹ Статистика Давлат агентлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланган.

o'sish kuzatilib, buning hisobiga yig'ma INI 0,47 f.d⁴⁰.ga o'zgargan, axborot-kommunikatsiya uskunalari narxlari o'zgarishining 2022-yil uchun yig'ma INI o'sish sur'atiga ta'siri 0,08 f.d.ni tashkil etdi. Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklarni yetkazib berish bo'yicha xizmatlar narxlarining 2022-yilda o'sish sur'ati mehmonxonalar xizmatlari narxlariga nisbatan tezlashdi (24,2 % ga – 16,8 %). Umumiy ovqatlanish sohasidagi narxlarning o'zgarishlari hisobiga 2022-yil uchun yig'ma INI 0,39 f.d., mehmonxonalar xizmatlari hisobiga 0,03 f.d. oshdi. Kuzatilayotgan sug'urta xizmatlari bozorida narxlar darajalari so'nggi uch yil davomida barqaror bo'ldi. Sug'urtalash sohasidagi narxlar barqarorligi hisobiga, moliyaviy xizmatlar narxlarining o'zgarishlari narx indeksi shakllanishida muhim rol o'ynadi. 2022-yil davomida moliyaviy xizmatlar narxlarida 8,9 % lik o'sish kuzatilib, ularning yig'ma ko'rsatkichga ta'siri 0,02 f.d.ni tashkil etdi. 2022-yil davomida bank xizmatlari uchun to'lovlar 6,6 % ga, pul o'tkazmalari uchun 3,8 % ga, elektron to'lov tizimlari orqali pul o'tkazmalari uchun 17,7 % ga o'sganligi kuzatildi. Bu tahlillar shundan dalolat beradiki, xizmat ko'rsatish korxonalarining faoliyatidagi ular ko'rsatayotgan narxlar indekslarining turlicha bo'lishi, ulardagi aylanmadan olinadigan soliqlar bazasiga va uning hajmiga ta'sir qiladi. Agar, xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish evolyutsion jarayonlariga e'tibor beradigan bo'lsak, ularni soliqqa tortish asosan daromadlarini soliqqa tortish shaklida amal qilganligini ko'rish mumkin. Bundan kelib chiqadiki, bugungi kunda O'zbekiston soliq tizimida xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishda soliqqa tortishning turli xil tartiblari amal qilib keladi. Agar, O'zbekiston soliq tizimidagi xizmat ko'rsatish korxonalariga nisbatan soliq tizimidagi evolyutsion jarayonlarni nazariy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, ular asosan soliqqa tortishning asosi sifatida ular olgan daromad hamda yalpi tushum muhim sanalib kelingan. Vaholanki, bugungi kunda ularni soliqqa tortishning asosini ham ularning tovar aylanmasi (yalpi tushum) asosiy mezon sifatida amal qilib kelmoqda.

⁴⁰ ф.д.*- товарлар ва хизматларнинг умумий ўсиш суръатига таъсири даражаси йиғиндисининг 0,1 ф.д. га баробарлиги кўрсаткичларнинг яхлитланганлиги билан боғлиқ.


Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishning evolyusion va zamonaviy asoslari



5-rasm. Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishning evolyutsion va zamonaviy asoslari⁴¹

Nazariy va amaliy jihatdan olib qaralganda boshqa korxonalar singari xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishda ham asosan 4 xil tartibdagi soliqqa tortish amaliyoti qo'llaniladi. Biz buni yuqorida keltirilgan 5-rasmda ifodalanganidek, aytib o'tilgan mavjud 4 xil soliqqa tortish tartiblari ularning faoliyatining xususiyatiga qarab turlicha qo'llaniladi. Jumladan, proporsional soliqqa tortish tartibida Xizmat ko'rsatish korxonalariga bir xil tartibda soliq rejimlari qo'llanilsa, soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibida esa xizmat ko'rsatish korxonalariga bir necha soliqlarni bitta soliq turida to'lash imkoniyati berilishi tarzida soliqqa tortiladi, markazlashtirilgan soliqqa tortish tartibida (masalan pochta xizmatlari) aksariyat xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish Bosh korxonadan undirilishi shaklida amal qiladi.


⁴¹ Muallif tomonidan tuzilgan.



6-rasm. Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishda soliq nazariyalarining qo'llanilishi.⁴²

Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishning nazariy asoslarining tadqiqi shuni ko'rsatadiki, ularni soliqqa tortish ma'lum bir nazariyalarning mazmuniga asoslanib rivojlanib kelmoqda. Ushbu 6-rasmda ko'rsatib o'tilganidek, xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishda soliq nazariyalari sifatida yagona soliqqa tortish nazariyasi, progressiv soliqqa tortish nazariyasi hamda Gibrid (kombinalashgan) soliqqa tortish nazariyalarini keltirib o'tish mumkin. Biroq bu nazariyalardan eng ko'p qo'llaniladiganlar sifatida yagona soliq nazariyasini keltirish mumkin. Respublikamiz soliq tizimida esa shu bilan birgalikda xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishda gibrid (kombinalashgan) soliqqa tortish nazariyasining tamoyillari qo'llanila boshlanganligini ko'rish mumkin (bu jarayonni mazkur bobning keyingi qismlarida to'xtalib o'tamiz).

⁴² Muallif tomonidan tuzilgan.



7-rasm. Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishning uslubiy mexanizmlari.⁴³

Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishning nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq qilishda bu jarayonning uslubiy mexanizmlarini ham ko'rib chiqish ilmiy ahamiyatga egadir. Bu uslubiy asoslar tarixiy jarayonlar va iqtisodiy islohotlar natijasida o'zgarib, rivojlanib borgan. Hozirgi kunda O'zbekiston soliq tizimidagi soliqqa tortish amaliyotida xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishda ikki xil uslubiy amaliyotni ko'rish mumkin. Ya'ni buning birinchisi, xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalar faoliyatiga muvofiq soliqqa tortish yondashuv bo'lsa, keyingisi, tadbirkorlik subyektlarining qo'shimcha xizmat ko'rsatish faoliyatiga nisbatan soliq solish uslubiyatiga asoslangan amaliy jarayon mavjudligini keltirib o'tish mumkinki, ularning tarkibiy xususiyatlari yuqoridagi 7-rasmda keltirib o'tilgan.

⁴³ Muallif tomonidan tuzilgan.

Albatta, dissertatsion tadqiqotlarning hajmiga qo'yilgan umumiy qoidalardan kelib chiqib, mazkur paragraf doirasidagi tadqiqotlar bo'yicha umumiy xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, xizmat ko'rsatish korxonalarining O'zbekiston milliy iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi (o'rtacha 40 foizini tashkil qilmoqda) jihatidan, aholi bandligini ta'minlashda, qolaversa davlat budjetiga soliq tushumlarini shakllantirishda ham o'ziga xos munosib ravishda rivojlanib kelmoqda. Agar, xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish evolyutsion jarayonlariga e'tibor beradigan bo'lsak, ularni soliqqa tortish asosan daromadlarini soliqqa tortish shaklida amal qilganligini ko'rish mumkin.

Bundan kelib chiqadiki, bugungi kunda O'zbekiston soliq tizimida xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishda soliqqa tortishning turli xil tartiblari amal qilib kelmoqda.

2.2. Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyoti tahlili

Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyotini tahlil qilishda, fikrimizcha, milliy soliq tizimida ularga nisbatan qo'llanilgan soliqqa tortish maqsadida yondashilgan mexanizmlarning qisqacha tahlilini keltirish lozim deb hisobladik. Bu jarayonni tahlil qiladigan bo'lsak, o'ziga xos yondashuvlar sifatida xizmat ko'rsatish korxonalariga nisbatan mezonlarning qo'llanishini keltirish mumkin. Dastlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 1998-yil 9-apreldagi PF-1987-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-apreldagi Soliq solishning soddalashtirilgan tizimiga o'tgan kichik korxonalar soliq solish tartibi to'g'risida"gi 159-son qaroriga⁴⁴ asosan boshqa kichik korxonalar singari xizmat ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlik subyektlari uchun ham soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo'llash tartibi yalpi umumdavlat soliqlarini, shuningdek, davlat hokimiyati mahalliy organlari tomonidan joriy etiladigan mahalliy soliqlar va yig'imlarni to'lash o'rniga yagona soliq to'lash amaliyoti joriy


⁴⁴ Ушбу қарор Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 27 декабрдаги 244-сонли «Ўзбекистон Республикасининг 2006 йилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва давлат бюджети параметрлари тўғрисида»ги қарorigа асосан бекор қилинган.

qilindi. Ushbu mezonlarga ko‘ra, savdo, xizmat ko‘rsatish hamda boshqa noishlab chiqarish sohasi tarmoqlarida ko‘pi bilan 5 nafar ish bilan band xodimga ega bo‘lgan mikrofirmalar, ilm-fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, chakana savdo hamda boshqa noishlab chiqarish sohasi tarmoqlarida — ko‘pi bilan 10 nafar ish bilan band xodimga ega bo‘lgan kichik korxonalar toifalari belgilab berilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi "Xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-4609 -sonli Farmoniga asosan 2014-yil 1-yanvardan boshlab xizmat ko‘rsatish sohasidagi kichik biznes subyektlarini soliqqa tortish maqsadida quyidagi mezon o‘rnatildi: xizmat ko‘rsatish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalari — o‘n nafardan, ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida — besh nafardan oshmaydigan ishchi xodimlarga ega bo‘lgan mikrofirmalar; ilm-fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, transport, aloqa, xizmat ko‘rsatish sohalari (sug‘urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalari — yigirma besh nafardan oshmaydigan xodimga ega bo‘lgan kichik korxonalarini mezonlari o‘rnatildi. Shunga muvofiq tarzda xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortishda asosiy soliq turi bo‘lgan yagona soliq to‘lovi joriy qilinish mezonlari takomillashtirilib borildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 20-iyundagi "Mikrofirmalar va kichik korxonalarini rivojlantirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-3620-sonli Farmoniga asosan kichik biznes subyektlarini jadal rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish hamda uning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati va ulushini tubdan oshirish maqsadida alkogolli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalardan tashqari kichik biznes subyektlariga 2005-yilning 1-iyulidan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq, budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi, Respublika yo‘l jamg‘armasi va Maktab ta‘limi jamg‘armasiga majburiy ajratmalar to‘lash o‘rniga yagona soliq to‘lovi joriy etildi va bu bilan ularga soliq preferensiyalari kuchaytirildi. Ma‘lumki, soliq solishning soddalashtirilgan tartibi soliq to‘lovchilarning ayrim toifalari, jumladan xizmat ko‘rsatish korxonalariga nisbatan ham qo‘llanilib, u o‘z ichiga

yagona soliq to'lovini, yagona yer solig'ini hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni qamrab olgan, qat'iy belgilangan soliqni to'lash belgilangan faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yagona soliq to'lovi to'lovchilar va yagona yer solig'ini to'lovchilari ushbu faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari hamda belgilangan tartibda qat'iy belgilangan soliq to'lashlari shart bo'lgan, shuningdek, yagona soliq to'lovini to'lashni nazarda tutadigan soliq solishning soddalashtirilgan tartibini yoki umumiy belgilangan soliqlar to'lashni ixtiyoriy ravishda tanlash imkoniyati berilgan. O'z navbatida ushbu toifadagi korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashdan ixtiyoriy ravishda voz kechgan taqdirda hisobot davri tugaganidan so'ng o'n kun ichida davlat soliq xizmati organlariga taqdim qilinadigan yozma bildirish asosida keyingi hisobot davridan boshlab umumiy belgilangan soliqlar to'lashga o'tishi mumkinligi amal qilgan. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilingunga qadar xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish mexanizmlarini kengroq anglash va ularni soddaroq ilmiy asosda ifodalash maqsadida quyidagi rasmni keltiramiz:

Xizmat ko'rsatish korxonalariga nisbatan qo'llanilgan yagona soliq to'lovi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan bo'lsa, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun alohida va boshqa sohalardagi kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun alohida belgilangan edi. Xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovi dastlabki vaqtda uning yuqori stavkasi 25 foiz qilib belgilangan bo'lsa, uning darajasi 4 foizgacha kamaytirilib kelindi. Boshqa tarmoqlardagi kichik korxonalar va mikrofirmalardan farqli ravishda savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to'lovi stavkalari va soliqni hisoblash tartibi hamda soddalashtirilgan tartibdagi soliq to'lash shakllarini tanlash huquqi yo'qligi va boshqa maxsus qoidalar bo'yicha ham farqlangan. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalariga yagona soliq to'lovi stavkalari boshqa tarmoqlardagilardan farqli ravishda korxonaning geografik joylashuvi va aholi soniga qarab tabaqalashtirilgan holda belgilangan. Chunki, soliq stavkalarining bunday tartibda belgilanishi ularning

savdo aylanmalarining, qolaversa, moliyaviy natijalarining darajasi bunday faoliyatga talabning darajasini belgilovchi hududiy qulaylik va aholi soniga bog'liqligidan kelib chiqqan.



8-rasm. O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilingunga qadar xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortish mexanizmlari.⁴⁵

O‘z navbatida bunday shakldagi korxonalar tomonidan ushbu o‘rnatilgan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda yagona soliq to‘lovini hisoblab chiqarish ham

⁴⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.

o'ziga xos tartibda amalga oshirilgan. Ya'ni savdo faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar ularning ulgurji va chakana faoliyat bilan shug'ullanishiga qarab ham farqlangan. Masalan, ulgurji savdo korxonalari tomonidan yagona soliq to'lovini hisoblash va to'lash tartibi yuqorida ko'rib o'tilgan tartibda, ya'ni O'zbekiston Respublikasining o'sha vaqtda amalda bo'lgan Soliq kodeksida belgilangan tartibda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tegishli yil uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha, lekin eng kam miqdordan — egallab turgan yer maydonidan kelib chiqib, me'yoriy hujjatlarda⁴⁶ ko'rsatilgan pasaytiruvchi koeffitsiyentlarni hisobga olgan holda hisoblab chiqarilgan yer solig'ining uch baravaridan kam bo'lmagan miqdorda to'lash amaliyoti joriy qilingan. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyatini soliqqa tortish mexanizmlarining takomillashtirilishi munosabati bilan chakana savdo, umumiy ovqatlanish va qurilish sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlari 2011-yilning 1-yanvaridan boshlab soliqlar, jumladan, yagona soliq to'lovini xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondining belgilangan eng kam me'yorlaridan kelib chiqib hisoblash va to'lashni amalga oshirish mexanizmi joriy qilingan. Bu tartibda yagona soliq to'lovini hisoblab chiqish uchun avvalo korxonalar uchun xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yorlarini aniqlab olish zarur bo'lgan. Ma'lumki, 2020-yilning 1-yanvar kundan e'tiboran yangi tahrirdagi soliq kodeksi amalga kirdi. Mazkur yangi tahrirdagi soliq kodeksiga ko'ra, yagona ijtimoiy to'lov, yagona soliq to'lovi va qat'iy belgilangan soliq o'rniga tegishli ijtimoiy soliq, aylanmadan olinadigan soliq hamda qat'iy belgilangan miqdorda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i kiritildi, shuningdek, mazkur qonunning qabul qilinishi bilan soliqlarni unifikatsiyalash, o'xshash soliq solish bazasiga ega soliqlarni birlashtirish orqali ular soni maqbullashtirilib soddalashtirildi.

Yangi tahrirdagi soliq kodeksiga muvofiq xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish mexanizmlarida ham tub burilish bo'ldi. Ilgari bu turdagi korxonalar

⁴⁶ Ягона солиқ тўловининг энг кам миқдори киритилиши муносабати билан ягона солиқ тўловини ҳисоблаб чиқариш ва тўлаш тартиби тўғрисидаги низом. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2011 йил 3 мартда рўйхатдан ўтказилган, рўйхат рақами 2203.

asosan yagona soliq to'lovini va faoliyati mazmunidan kelib chiqib, boshqa ayrim soliq turlarini to'lagan bo'lsa, soddalashtirilgan yoki umumiy belgilangan tartibda soliq to'lash (aksiz solig'iga tortiladigan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilardan tashqari)ni ixtiyoriy ravishda amalga oshirgan bo'lsa, endi ularning qaysi soliq rejimlari asosida soliqqa tortilishi ularning yillik aylanma hajmidan kelib chiqib amalga oshiriladigan bo'ldi. Ya'ni amaldagi soliq kodeksining 461-moddasiga ko'ra, boshqa sohalardagi korxonalar singari "soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so'mdan oshmagan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari hamda soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so'mdan oshgan, lekin bir milliard so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar"⁴⁷ ham yagona soliq to'lovi o'rniga aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilari bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, mazkur qoidaga ko'ra, keltirilgan mezonlarga mos keluvchi xizmat ko'rsatish korxonalari qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'i o'rniga aylanmadan olinadigan soliq to'lashni nazarda tutuvchi maxsus soliq rejimini tanlashga haqlidir va bunda navbatdagi soliq davridan boshlab o'tishi mumkin. Shuningdek, xizmat ko'rsatish faoliyatiga ixtisoslashgan yakka tartibdagi tadbirkorlar ham aylanmadan olinadigan soliqni to'lash o'rniga qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lash rejimini tanlashi mumkin. Soliq kodeksining 262-moddasiga ko'ra, "yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran tadbirkorlik faoliyati subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazish chog'ida tanlangan soliq solish tartibini ko'rsatish orqali aylanmadan olinadigan soliqni to'lash tartibini tanlash huquqiga ega. Qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga ixtiyoriy ravishda o'tgan soliq to'lovchilar, basharti joriy soliq davri yakunlari bo'yicha tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadlari bir milliard so'mdan oshmagan bo'lsa, aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga kamida o'n ikki oydan keyin qayta o'tishga haqli"⁴⁸ bo'ladi. Qayd etish joizki, xizmat ko'rsatish korxonalari miqdor ko'rsatkichlari (soliq to'lovchilar soni) va sifat

⁴⁷ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. 2020 йил. 461-моддаси. <https://lex.uz/m/acts/4674902>.

⁴⁸ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. 2020 йил. 462-моддаси. <https://lex.uz/m/acts/4674902>.

ko'rsatkichlari, ya'ni to'laydigan soliqlari davlat budjetini shakllantirishda yuqori fiskal xususiyatga ega hisoblanadi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, birgina 2022-yilda 42,4 ming yuridik shaxs ro'yxatdan o'tgan, 2023-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar soni 566,1 mingtaga yetib, o'tgan yil boshiga nisbatan 8,1% ga (42,4 ming) o'sgan. Sohalar kesimida – o'sish ko'rsatkichi eng yuqori – axborot va aloqa xizmatlari – 17,5 % (1,3 mingta), savdo – 14 % (17,8 mingta), tashish va saqlashda 13,7 % (1,9 mingta)ni tashkil etgan holda jami yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan soliq to'lovchilarning 25,6 %i yoki 145,6 tasi xizmat ko'rsatishning savdo sohasiga to'g'ri kelmoqda.

13-jadval.

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatuvchi xizmat ko'rsatish korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy faoliyati tahlili⁴⁹ (mlrd so'm)

Xizmat sohalari	2020-yil			2021-yil			2022-yil		
	Ishchilar soni	Ish haqi fondi	Tovar aylanmasi	Ishchilar soni	Ish haqi fondi	Tovar aylanmasi	Ishchilar soni	Ish haqi fondi	Tovar aylanmasi
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	42065	1473,6	12363,6	44947	1 910	11993,7	36812	2 557	17453,3
Moliyaviy xizmatlar	5 237	86,3	757,1	4 995	126	799,6	3 897	159	1 165,4
Transport xizmatlari	29312	837	5 394,4	36224	1 391	9 844,5	29048	1 993	17218,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	58364	324	2 014,8	54671	513	3 302,3	43699	678	5 407,5
Savdo xizmatlari	6 966	31	68,5	6 399	45	90,6	4 631	49	124,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2 235	27	30,2	2 513	35	33,6	2 634	60	58,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	18580	372	102,5	25879	686	298,6	22509	1 081	417,6
Shaxsiy xizmatlar	8 690	135	502,9	6 445	61	415,3	5 124	116	659,7
Boshqa xizmatlar	99988	1 641	4 264,8	104295	2 569	7 255,2	91026	3 157	8 714,8
Jami:	271437	4926,9	25498,8	286368	7336,0	34033,4	239380	9850,0	51220,3

Keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatuvchi xizmat ko'rsatish korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy faoliyati tahliliga qaraydigan bo'lsak, ishchilar soni, ish haqi fondi va tovar aylanmasi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlari tahlil qilinayotgan yillar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga tegishli bo'lsa, ish haqi fondi va tovar aylanmasi bo'yicha esa transport

⁴⁹ Davlat soliq kumitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

xizmatlari sohasida yuqori ko'rsatkichni ko'rish mumkin, shuningdek, sog'liqni saqlash sohasidagi korxonalarda 2022-yilga kelib ish haqi fondi 2020-yilga nisbatan qariyb 3,5 martaga oshganligini ko'rish mumkin. Tahlil obyekti sifatida tanlangan bu uchta ko'rsatkichlarda ish haqi fondi va tovar aylanmasi to'g'ridan to'g'ri soliq bazasini shakllantirishga xizmat qiladi va soliqqa tortish nuqtayi nazaridan muhim sanaladi.

14-jadval.

2017-2022-yillarda O'zbekistonda xizmat ko'rsatish korxonalari tomonidan budjetga to'langan soliqlar tahlili⁵⁰ (mlrd so'm)

Xizmat sohalari	yillar					
	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	2 442,1	2 627,6	3 437,0	2 940,9	3 225,2	3 039,3
Moliyaviy xizmatlar	38,6	49,5	58,2	59,2	79,3	128,1
Transport xizmatlari	406,5	514,5	473,1	398,8	650,8	490,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	249,0	272,9	377,4	214,3	348,7	547,6
Savdo xizmatlari	8,1	9,1	13,3	10,8	17,7	20,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	5,1	6,4	7,4	8,5	12,7	21,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	29,1	66,6	96,6	152,2	238,2	369,9
Shaxsiy xizmatlar	35,1	50,0	84,2	66,0	33,4	63,6
Boshqa xizmatlar	634,2	832,9	1004,2	962,8	1 179,5	1 525,6
Jami:	3 847,8	4 429,5	5 551,4	4 813,5	5 785,5	6 206,2

2017-2022-yillarda O'zbekistonda xizmat ko'rsatish korxonalari tomonidan budjetga to'langan soliqlar hajmi tahlil qilinayotgan davrlarda oshib borgan, albatta, bunda inflyatsiyaning ta'siri ham bo'lgan. Biroq soliq tushumlarining 2020-yilda 2019-yilga nisbatan kamayishi kuzatilgan, buning asosiy sabablari sifatida aksariyat soliq to'lovchilarda aylanmadan olinadigan soliqning joriy qilinishi natijasida xizmat ko'rsatish aylanmasi 1 mlrd so'mdan oshgan holatda umumiy belgilangan tartibda soliq to'lash rejimiga o'tishga biroz hadiklarning mavjudligi, ularning hisobchilari tomonidan soddalashtirilgan soliq ular uchun qulaymi yoki umumiy belgilangan tartibda soliq to'lash qulayligi xususida aniq bir moliyaviy qarorlar bera olmaganligi hamda ayrim xizmat ko'rsatish korxonalari pandemiya sharoitida davlat

⁵⁰ Davlat soliq kumitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

tomonidan preferensiyalar, soliq imtiyozlarining berilishi, qolaversa, bu davrda ularning faoliyati majburiy to'xtatilganligi sababli soliq tushumlari kamaygan.

Biroq xizmat ko'rsatish korxonalarida yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, moliyaviy resurslarning aylanish tezligi nisbatan yuqoriroq bo'lganligi, aholining real pul daromadlarining oshishi, yurtimizda turizmga bo'lgan e'tiborning kuchayishi sababli va boshqa shu kabi iqtisodiy omillar ta'sirida 2021-2022-yillarda xizmat ko'rsatish korxonalaridan undirilgan soliq tushumlari o'sib borgan. Xizmat ko'rsatish sohalari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, yuqoridagi tahlillarga o'xshab soliq tushumlarida ham aloqa va axborotlashtirish xizmatlari korxonalar tomonidan eng ko'p soliq tushumlari to'lagan, bu turdagi korxonalar tahlil qilinayotgan yillar davomida budjetga o'rtacha 2,5-2,8 trln.so'mlik soliq to'lab kelgan. Sog'liqni saqlash sohasida ham soliq tushumlarining keskin ko'payish holatini ko'rish mumkin. Agar, bu korxonalar 2017-yilda budjetga 29,1 mlrd so'mlik soliq to'lagan bo'lsa, 2022-yilda esa 369,9 mlrd.so'mlik soliq to'lagan, ya'ni qariyb, 13 barobar soliq tushumlari oshgan. O'zbekiston davlat soliq qo'mitasining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda QQS to'lovchilar soni 174 mingdan oshgan va 2021-yil boshiga nisbatan 15,8%ga ko'p bo'lgan. Buni tarmoqlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, xizmat ko'rsatishning transport tarmog'ida – 46,3 % (1,7 mingta), axborot va aloqa xizmatlari – 36,2 % (0,7 mingta), xizmat ko'rsatish – 32,9 % (4,1 mingta)ni tashkil qilgan va bu esa ular tomonidan to'laydigan QQSning miqdori ham oshishiga ta'sir qilgan. 2022-yilning o'zida umumiy ovqatlanish korxonalar tomonidan 446,6 mlrd.so'mdan ortiq soliqlar to'langan (yashash va ovqatlanish xizmatlari jami 547,6 mlrd.so'm soliq to'lagan), shundan 142,2 mlrd so'mi 20 ta korxonalar hisobiga to'g'ri keladi, ular to'lagan soliqlar 1,4 trln.so'm tovar aylanmasining 10 foizini tashkil etib, qo'llagan soliq imtiyozlari miqdori esa 23,2 mlrd so'mni tashkil etgan. 2022 yilda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs tomonidan 20,5 trln. so'm soliq to'langan. Shundan 1,2 trln. so'mi, 20 ta korxonalar hisobiga to'g'ri keladi, ular to'lagan soliqlar 29,7 trln. so'm tovar aylanmasining 4 foizini tashkil etib, qo'llagan soliq imtiyozlari miqdori esa 848 mlrd .so'm bo'lgan. Albatta, boshqa korxonalar singari xizmat ko'rsatuvchi

korxonalar tomonidan to'langan soliq tushumlariga soliq qarzdorligi, ularga berilgan soliq imtiyozlari hamda ular tomonidan ortiqcha to'lovlar va shu kabi muhim soliq ko'rsatkichlari ta'sir qiladi. Shulardan kelib chiqqan holda ana shu ko'rsatkichlar doirasida tahlilni davom ettiramiz.

15-jadval.

2020-2021-2022-yillarda xizmat ko'rsatish korxonalarining soliq qarzdorligi, soliq imtiyozlari va ortiqcha to'lovlarning tahlili⁵¹
(mlrd so'm)


Xizmat sohalari	2020-yil			2021-yil			2022-yil		
	Soliq imtiyozlari	Soliq qarzdorligi	Ortiqcha to'langan soliq	Soliq imtiyozlari	Soliq qarzdorligi	Ortiqcha to'langan soliq summasi	Soliq imtiyozlari	Soliq qarzdorligi	Ortiqcha to'langan soliq
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	197,1	2,8	37,0	280,9	11,9	58,5	288,6	25,4	144,0
Moliyaviy xizmatlar	54,2	1,7	16,2	25,3	4,7	10,6	63,6	2,8	12,8
Transport xizmatlari	421,7	4,9	80,4	1482,5	20,8	41,6	2409,1	35,0	300,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	28,7	9,3	38,8	14,8	29,0	44,1	60,0	23,0	53,3
Savdo xizmatlari	1,0	1,1	3,2	0,3	2,8	2,4	0,6	2,4	2,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	4,8	0,6	1,1	2,1	0,8	1,1	4,4	1,2	2,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,9	0,1	10,4	15,9	0,3	8,2	14,7	0,7	16,9
Shaxsiy xizmatlar	4,6	3,7	13,9	1,6	20,8	11,1	15,3	27,9	18,3
Boshqa xizmatlar	96,8	39,9	151,7	247,1	140,1	119,3	468,5	159,7	159,8
Jami:	810,8	64,1	352,6	2070,5	231,2	296,8	3324,7	278,0	710,4

Ma'lumki, soliq imtiyozlari davlat budjeti uchun ham, soliq to'lovchilar uchun ham ham iqtisodiy jihatdan ham sotsial-ijtimoiy jihatdan muhim jarayon hisoblanadi. Soliq imtiyozlariga ega bo'lish soliq to'lovchi uchun iqtisodiy ahamiyati shundaki, ma'lum bir mablag'lar ularning o'zlarida qoldirilishi moliyaviy imkoniyatlarni yaxshilashga imkon bersa, sotsial ahamiyati imtiyozga ega bo'lgan korxonalarda bozorda raqobat muhitiga moslashishi imkoniyati paydo bo'lib "yashab qolish" imkoniyati paydo bo'ladi va soliq imtiyozlari qo'llaniladigan soha va faoliyat turlariga qiziqish uyg'onadi. O'zbekistonda o'z faoliyatini boshlaydigan soliq to'lovchilarga beriladigan faoliyatining dastlabki yillari(asosan ikki yil)da

⁵¹ Davlat soliq kumitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

soliq imtiyozlarining berilishida soliq imtiyozlarining iqtisodiy va sotsial jihatlari ko‘rinadi.

Agar, 2020-2021-2022-yillarda xizmat ko‘rsatish korxonalariga berilgan soliq imtiyozlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, tahlil yillarida turlicha bo‘lgan, ya’ni 2020-yilda uning summasi 810,8 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda uning miqdori qariyb, 2,7 martaga oshib, 2070,5 mlrd so‘m, 2022-yilda esa yana oshib 3 324,7 mlrd so‘mni tashkil etgan. Oxirgi yil kesimida oladigan bo‘lsak, eng ko‘p soliq imtiyozlari berilgan korxonalar sirasiga transport korxonalari kirgan bo‘lib, ularga 2022-yilda 2409,1 mlrd so‘mlik soliq imtiyozlari berilgan va bu ushbu yilda jami xizmat ko‘rsatish sohasiga to‘g‘ri keladigan soliq imtiyozlarining 72,4 foizni tashkil etadi. Shu bilan birgalikda xizmat ko‘rsatish korxonalari tomonidan budjetga soliq qarzdorligi ham o‘shib borgan, ya’ni 2020-yilda uning miqdori 64,1 mlrd so‘m, 2021-yilda 231,3 mlrd so‘m va 2022-yilda 278,0 mlrd so‘mni tashkil etgan. Soliq imtiyozlarining samarali foydalanishi soliq to‘lovchi uchun ham, davlat budjeti uchun ham ijobiy samara beradiki, bunga soliq to‘lovchilarning soliq madaniyati va soliq xizmati organlari tomonidan o‘tkaziladigan nazorat tadbirlari ta’sir qiladi.



9-rasm. 2020-2022-yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha foyda solig‘i bo‘yicha soliq tushumlari tahlili⁵² (mlrd so‘m)

⁵² Давлат солиқ қўмитаси маълумотлари асосида ҳисоблаб чиқилган.

Yuqorida keltirib o'tganimizdek, QQS to'lovchilar soni tarkibida xizmat ko'rsatuvchi korxonalar eng ko'p ulushni egallagan bo'lib, QQSni budjetga tushishida ham ushbu korxonalarining salmog'i kattadir. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar foyda solig'i tushumlarida ham o'z ahamiyatiga egadir.

Buni 9-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, moliyaviy va sug'urta kompaniyalari hamda ulgurji va savdo korxonalari tomonidan ham foyda solig'i tushumlari 2020-2022-yillarda oshib borgan. Agar, tahlillarimizni 2022-yilda ishlab chiqarish, qurilish va xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalarining soliq tushumlaridagi ahamiyatini raqamlarda tahlil qiladigan bo'lsak, ishlab chiqarish sohasidagi korxonalar hissasiga 39 trln. so'mdan ortiq soliq tushumlari to'g'ri kelgan bo'lsa, qurilish korxonalari tomonidan 7,2 trln. so'mlik soliq to'langan, savdo sohasidagi korxonalar tomonidan esa 20,5 trln. so'mlik, umumiy ovqatlanish korxonalari esa 446,6 mlrd so'mdan ortiq soliqlar to'lagan.

16-jadval ma'lumotlariga asoslanib, xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha tushumlaridagi o'rni va ahamiyatini tahlil qiladigan bo'lsak, tahlil qilinayotgan yillar mobaynida aylanmadan olinadigan soliq tushumlarining shakllanishida xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalarining fiskal xususiyati ortib borganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, "Yashash va ovqatlanish hamda xizmat ko'rsatish" sohalari hissasiga to'g'ri kelib, bazis davrda to'g'ri soliqlardagi ulushi 0,04 foizni, aylanmadan olinadigan soliq solig'idagi ulushi esa 0,15 foizni tashkil etgan. 2022-yilda esa to'g'ri soliqlardagi ulushi 0,015 foizni, aylanmadan olinadigan soliq solig'idagi ulushi 0,35 foizni tashkil etgan. 2022-yilda "Yashash va ovqatlanish" mazkur sohadan tushadigan tushumlarning to'g'ri soliqlardagi ulushi 0,005 foizni, aylanmadan olinadigan soliq solig'idagi ulushi 0,12 foizni, 2021-yilda esa ushbu ko'rsatkich to'g'ri soliqlardagi ulushi 0,018 foizni, aylanmadan olinadigan soliq solig'idagi ulushi 0,06 foizni tashkil etgan.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha tushumlaridagi o'rni va ahamiyati tahlili⁵³

№	Ko'rsatkichlar	Yillar				
		2018	2019	2020	2021	2022
1.	To'g'ri soliqlar (<i>mlrd. so'm</i>)	15 437	31 677	45 207	58 930	64 417
2.	Aylanmadan olinadigan soliq tushumi (<i>mlrd. so'm</i>)	4 704,2	1 986,2	1 396,5	1 649,4	2 512,7
3.	Chakana va ulgurji savdo bo'yicha (<i>mlrd. so'm</i>)	1 554,0	636,9	511,3	554,2	856,8
	To'g'ri soliqlardagi ulushi (%)	0,1	0,02	0,01	0,01	0,01
	Aylanmadan olinadigan soliq tushumidagi ulushi (%)	0,33	0,3	0,37	0,34	0,3
4.	Tashish va saqlash, axborot va aloqa (<i>mlrd. so'm</i>)	115,0	112,9	71,9	77,3	98,9
	To'g'ri soliqlardagi ulushi (%)	0,007	0,004	0,002	0,001	0,002
	Aylanmadan olinadigan soliq tushumidagi ulushi (%)	0,02	0,06	0,05	0,05	0,04
5.	Yashash va ovqatlanish (<i>mlrd. so'm</i>)	285,0	226,2	76,5	179,2	290,6
	To'g'ri soliqlardagi ulushi (%)	0,018	0,007	0,002	0,003	0,005
	Aylanmadan olinadigan soliq tushumidagi ulushi (%)	0,06	0,11	0,06	0,11	0,12
6.	Xizmatlar ko'rsatish (<i>mlrd. so'm</i>)	403,6	374,9	252,0	332,6	590,4
	To'g'ri soliqlardagi ulushi (%)	0,026	0,012	0,006	0,006	0,009
	Aylanmadan olinadigan soliq tushumidagi ulushi (%)	0,1	0,2	0,18	0,2	0,2
7.	Boshqa sohalar (<i>mlrd. so'm</i>)	163,5	77,7	33,3	29,6	24,7
	To'g'ri soliqlardagi ulushi (%)	0,011	0,002	0,001	0,001	0,000
8.	Aylanmadan olinadigan soliq tushumidagi ulushi (%)	0,04	0,04	0,02	0,02	0,01

Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish mexanizmlarida ularning faoliyatini soliq nazorati orqali muvofiqlashtirib borish ham hisoblanadi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra bu soliq nazorati soliq tekshiruvlari va monitoring qilish orqali amalga oshiriladi.

Bunda kameral va sayyor soliq tekshiruvi orqali soliq to'lovchilarning soliq qonunchilikka rioya qilinishini nazorat qilib borish asnosida birinchidan, soliq qarzdorligi kamayishiga erishilsa, ikkinchidan, xizmat ko'rsatish korxonalarini soliq qonunchiligi doirasida faoliyatini tashkil qilishga uslubiy jihatdan yordam beradi.

⁵³ Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси маълумотлари асосида Муаллиф томонидан тuzilgan.

Xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini kameral soliq tekshiruvlari orqali nazorat qilish holati tahlili⁵⁴ (mln so'm)

№	Tarmoqlar	2020-yil			2021-yil			2022-yil		
		Tekshiruvlar soni		Tekshirish natijasida qo'shimcha hisoblangan summa	Tekshiruvlar soni		Tekshirish natijasida qo'shimcha hisoblangan summa	Tekshiruvlar soni		Tekshirish natijasida qo'shimcha hisoblangan summa
		Korxonalar soni	Risk summasi		Korxonalar soni	Risk summasi		Korxonalar soni	Risk summasi	
1.	Jami kameral tekshiruvlar soni	9785	4274,4	1645	10242	2547,4	1216,4	28787	7070,5	5 970,0
2.	Chakana savdo	3162	378,4	4710	4 490	582,0	243,4	9 530	1523,4	985,4
3.	Ulgurji savdo	854	253,2	969	1105	309,4	114,4	3 273	1223,4	832,5
4.	Boshqa xizmat tarmoqlari	1812	955,7	2158	1256	443,2	245,5	3 850	685,3	633,3

Bu jarayonlarni rasmiy ma'lumotlar asosida tahlil qiladigan bo'lsak, xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini kameral soliq tekshiruvlari orqali nazorat qilishda eng ko'p tekshiruv obyekti hamda bu tarmoqdagi eng katta ulushni egallaydigan ulgurji va chakana savdo korxonalarini kameral soliq tekshiruvlarida 2020-yilda jami 9785 ta tekshiruvlarning 3162 tasi (32,3 foizi) chakana savdo korxonalariga, 854 tasi (0,8 foizi) ulgurji savdo korxonalariga to'g'ri kelgan bo'lsa, 1812 tasi (18,5 foizi) xizmat ko'rsatishning boshqa korxonalariga to'g'ri kelgan. Kameral soliq nazorati natijalariga ko'ra, tahlil qilinayotgan yillarda chakana savdo korxonalariga 2020-yilda 4710 mln so'm, 2021-yilda 243,4 mln so'm, 2022-yilda esa 985,4 mln so'mlik qo'shimcha ravishda soliq undirish hisoblangan, shu bilan birgalikda bu summa 2020-yilga nisbatan ancha kamayganligini ko'rish ham mumkin. Bu holat ulgurji savdo korxonalarida yillar kesimida mos holda 969 mlrd so'm, 114,4 mln so'm, 832,5 mln so'mni tashkil etgan, ulgurji va chakana korxonalarida ham bu ko'rsatkichning 2021-yilda avvalgi yillarga nisbatan

⁵⁴ Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

kamayganligini kuzatish mumkin bo'lsa-da, bu covid pandemiyasi sharoitida bu turdagi korxonalariga nisbatan moratoriylar berilishi munosabati bilan ularda faoliyatining to'xtalib turilishi bilan izohlanadi. Ma'lumki, xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatining sayyor soliq tekshiruvida eng ko'p shakllaridan biri ularda onlayn nazorat-kassa texnikalari orqali savdo qilinishi va shu tufayli soliq bazasi bo'lgan yalpi tushumning qasddan kamaytirmaslikka erishish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilning 6-sentabrdagi "Savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi hisob-kitoblar tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5813-son Farmoniga ko'ra, "onlayn-NKM yoki virtual kassadan foydalanmasdan tovarlarni realizatsiya qilish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish, onlayn-NKM yoki virtual kassa orqali chek taqdim etmaslik yoki fiskal belgiga ega bo'lmagan cheklarni taqdim qilish — fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini yoki hisob-kitob terminallarini ishlatish majburiy bo'lgani holda ularni ishlatmasdan savdoni amalga oshirganlik va xizmatlar ko'rsatganlik deb baholanadi hamda qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi"⁵⁵. Savdo yo'nalishdagi savdo korxonalarida soliq sayyor tekshiruvlarida korxonalar tomonidan onlayn-nazorat kassa (ONK)larining belgilangan tartibda o'rnatilishi va ularning ishlatilishini nazoratiga alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'ladi. Tahlillarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2021-2022-yillarda onlayn xizmat ko'rsatish korxonalari hisoblangan savdo korxonalarida 2022-yilda 145332 ta soliq to'lovchi-tadbirkorlik subyektlari tomonidan 180 144 ta ONKmlarning ishlatilishi bo'yicha o'tkazilgan nazorat tadbirlari natijasida 697 836 nazorat xaridi o'tkazilgan. Bu bitta tadbirkorlik subyektiga nisbatan 4,8 taga to'g'ri kelgan bo'lsa, bitta ONKMga nisbatan esa 3,8 taga to'g'ri kelgan. Bu ko'rsatkich mos holda 0,8 ta va 0,2 tani tashkil qilgan holda,

⁵⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йилнинг 6 сентябрдаги "Савдо ва хизмат кўрсатиш соҳасидаги ҳисоб-китоблар тизимига замонавий ахборот технологияларини жорий қилиш ҳамда ушбу соҳада жамоатчилик назоратини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5813-сон Фармони.

2022-yilda ONKMLari doirasidagi xarid nazorati bo'yicha tekshiruvlar soni keskin oshirilgan holda o'tkazilganligini ko'rish mumkin.

18-jadval.

Savdo va xizmat ko'rsatish korxonalari tomonidan hududlar kesimida ONKT (onlayn nazorat-kassa texnikasi) orqali savdo hajmi tahlili⁵⁶

Hududlar nomi	2021-yilda foydalanayotgan onlayn nazorat-kassalar			2022-yilda foydalanayotgan onlayn nazorat-kassalar		
	Savdo va xizmat ko'rsatish korxonalari soni	ONKTlar soni	Cheklar soni (ming.ta)	Savdo va xizmat ko'rsatish korxonalari soni	ONKTlar soni	Cheklar soni (ming.ta)
Jami	120349	383955	100 197	145332	180 144	697 836
Qoraqalpog'iston	7 062	8 911	3 056	8 248	9 717	17 085
Andijon viloyati	5 937	14 071	4 614	6 841	8 631	27 185
Buxoro viloyati	7 819	11 363	4 694	9 066	10 522	20 154
Jizzax viloyati	3 463	7 830	1 936	4 265	4 933	15 608
Qashqadaryo viloyati	9 283	37 030	4 764	11 006	12 843	48 815
Navoiy viloyati	5 028	6 189	1 586	5 557	6 766	16 996
Namangan viloyati	6 597	16 088	5 926	7 688	9 555	36 353
Samarqand viloyati	10 340	25 776	7 793	12 753	15 685	46 755
Surxondaryo viloyati	5 899	5 589	2 072	6 934	8 468	12 431
Sirdaryo viloyati	2 647	4 810	1 346	3 313	3 990	9 038
Toshkent viloyati	12 175	35 635	10 892	15 064	18 374	64 178
Farg'ona viloyati	9 282	26 581	6 745	11 195	14 079	52 978
Xorazm viloyati	9 543	12 798	5 054	10 982	12 889	23 063
Toshkent shahri	25 274	171285	39 719	32 420	43 692	3077

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-noyabrda "Onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassa tizimi qo'llanilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 943-sonli qarori va boshqa qonun hujjatlari talablariga muvofiq asosida olib borilayotganligiga sayyor soliq tekshiruvda alohida e'tibor berilishi zarur bo'ladi. Shuningdek, 2023-yil yanvar-dekabr oylarida soliq xizmati organlari tomonidan soliqlarni to'lamaslik xavfi yuqori bo'lgan 1 079 ta tadbirkorlik subyektida soliq auditi o'tkazildi. Bu ushbu davrda faoliyat ko'rsatgan jami soliq to'lovchilarning (570,4 ming) 0,2 foizini tashkil etadi. Aniqlangan soliq xavfi summasi – 787,5 mlrd.so'm bo'lgan bo'lsa, soliq auditida tasdiqlangan summa – 1,6 trln.so'mni tashkil etgan holda bunda xizmat ko'rsatish – 59,2 mlrd so'm (3,6%) miqdorda ulushga ega bo'lgan.

⁵⁶ Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jamoatchilik nazorati orqali xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatida "Soliq_hamkor" tizimi kesimida soliq nazoratining natijalari tahlili⁵⁷ (sayyor soliq tekshiruvlari)

mln.so'm

T/r	Hududlar nomi	Sayyor soliq tekshiruvlari															
		Jami o' tkazilgan tekshirishlar soni	2022-yil							Jami o' tkazilgan tekshirishlar soni	2021-yil						
			fuqaro murojaati					Tahlil natijasi	Kameral tekshirish asosida		fuqaro murojaati					Tahlil natijasi	Kameral tekshirish asosida
			Xarid uchun chek bermaslik (NKM ishlatmaslik)	Noqonuniy tadbirkorlik faoliyati	To' lov terminalidan foydalanmaslik	Plastikka qimmat sotish					Xarid uchun chek bermaslik (NKM ishlatmaslik)	Noqonuniy tadbirkorlik faoliyati	To' lov terminalidan foydalanmaslik	Plastikka qimmat sotish			
Respublika bo'yicha jami		77 176	65 764	2 857	3 078	119	479	4 879	22 145	8 241	11	173	9	6 913	6 798		
1	Qoraqalpog'iston	1 739	1 276	153	34	2	11	263	753	297		19		302	135		
2	Andijon	4 311	3 365	345	122	7	22	450	1 557	392		3		628	534		
3	Buxoro	4 047	3 179	177	225	4	33	429	1 447	529		15	1	507	395		
4	Jizzax	2 666	2 242	157	78	3	19	167	996	455		5		295	241		
5	Qashqadaryo	5 128	4 475	251	247	15	11	129	1 476	651		26	3	495	301		
6	Navoiy	4 174	3 653	43	164	9	12	293	826	188		17		293	328		
7	Namangan	3 459	2 969	3	134	1	35	317	1 398	407		8		613	370		
8	Samarqand	5 925	5 098	164	291	8	51	313	1 497	334	2	11	1	527	622		
9	Surxondaryo	4 037	3 053	289	275	8	13	399	1 070	350	1	7		407	305		
10	Sirdaryo	2 071	1 655	182	55	16	8	155	699	128		4	1	255	311		
11	Toshkent	7 315	6 130	207	261	11	146	560	2 437	839	1	14		576	1 007		
12	Farg'ona	4 049	3 044	528	156	4	26	291	1 604	402	7	5		750	440		
13	Xorazm	3 290	2 817	53	137	5	19	259	1 265	215		8	2	641	399		
14	Toshken sh	24 965	22 808	305	899	26	73	854	5 120	3 054		31	1	624	1 410		

⁵⁷ Давлат солиқ қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф ҳисоб-китоблари.

Keltirilgan 19-jadval ma'lumotlariga asoslangan tahlillar shuni ko'rsatadiki, birgina 2022-yilda savdo korxonalarida "Soliq hamkor" tizimi orqali fuqarolarning soliq nazoratini amalga oshirishdagi hamkorligi natijasida 77 176 ta sayyor tekshiruvlar o'tkazilgan bo'lib, bu 2021-yilga nisbatan 55 mingtadan ko'p bo'lganligini va avvalgi yilga nisbatan keskin oshganligini ko'rish mumkinki, o'z navbatida bu holat fuqarolarning jamoatchilik asosida soliq nazoratining samaradorligi oshayotganini izohlaydi. Hududlar doirasida tahlil qiladigan bo'lsak, Toshkent shahri va viloyati hamda Samarqand viloyatlarida faoliyat ko'rsatuvchi savdo korxonalarida qonun buzilishlar sodir etilganligini ko'rish mumkin.

20-jadval.

**Surxondaryo viloyatida aloqa va axborotlashtirish
xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan to'langan soliq tushumlari
tahlili⁵⁸**

Ko'rsatkichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
"Bilayn" aloqa korxonasi bo'yicha:					
Budjetga to'langan soliqlari (mln.so'm)	921	1177	1409	1952	2567
Qo'shilgan qiymat solig'i	345	458	521	758	1254
Foyda solig'i	121	185	201	258	367
Yer solig'i	121	125	238	321	289
Mol-mulk solig'i	245	289	321	416	444
Boshqa soliqlari	89	120	128	199	213
"Ishonch Televideniyesi" bo'yicha:					
Budjetga to'langan soliqlari (mln.so'm)	68	92	65	107	127
Yer solig'i	19	27	26	35	31
Mol-mulk solig'i	15	19	22	29	37
Aylanmadan olinadigan soliq	27	35	12	29	30
Boshqa soliqlari	7	11	5	14	29

Yuqorida keltirilgan tahlillar respublikamiz bo'yicha umumiy tahlillarni tashkil etadi. Tadqiqotimiz obyekti bo'lgan Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatuvchi xizmat ko'rsatish korxonalar kesimida ular to'laydigan soliqlarni tahlil qiladigan bo'lsak, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar sifatida tanlangan "Bilayn" aloqa korxonasi va "Ishonch Televideniyesi" tomonidan to'langan soliqlarni tahlil qiladigan bo'lsak, Bilayn" aloqa korxonasi 2018-2022-yillarda budjetga to'langan soliq tushumlari ortib borgan, biroq "Ishonch Televideniyesi" tomonidan to'langan soliqlar 2020-yilda 2018-2019-yillarga

⁵⁸ Surxondaryo viloyati soliq bo'shqarmasi ma'lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari.

nisbatan kamayganligi va keyingi yillarda oshib borganligini ko'rish mumkin. "Ishonch Televideniyesi", "Bilayn" aloqa korxonasidan farqli ravishda aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi sifatida ham faoliyat ko'rsatgan, o'z navbatida qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchisi emas, ushbu xizmat ko'rsatish korxonalarining moliyaviy faoliyati tahlil qilinganda ularda budjetga soliq qarzidorligi tahlil qilinayotgan yillar davomida yuzaga kelmagan va soliq imtiyozlaridan foydalanilmagan.

22-jadval.

Surxondaryo viloyatida sug'urta kompaniyalari tomonidan to'langan soliq tushumlari tahlili⁵⁹

№	Ko'rsatkichlar	2018 -yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
SEMURG' sug'urta kompaniyasi bo'yicha:						
1	Budjetga to'langan soliqlari (mln.so'm)	Faoliyat ko'rsatmagan		75	75	96
2	Qo'shilgan qiymat solig'i			25	16	24
3	Foyda solig'i			5	7	8
4	Yer solig'i			12	14	19
5	Mol-mulk solig'i			14	17	18
6	Boshqa soliqlari			19	21	27
O'zagrosug'urta" sug'urta kompaniyasi bo'yicha:						
1	Budjetga to'langan soliqlari (mln.so'm)	322	295	168	441	552
2	Yer solig'i	8	9	10	10	11
3	Qo'shilgan qiymat solig'i	259	206	105	327	397
4	Foyda solig'i	5	14	17	29	48
5	Mol-mulk solig'i	15	19	22	29	37
6	Aylanmadan olinadigan soliq	27	35	12	29	30
7	Boshqa soliqlari (suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, ijtimoiy soliq)	8	12	2	17	29
8	Berilgan soliq imtiyozlari (mln.so'm) (yer va mulk solig'i bo'yicha)	11	18	4	27	44

Ma'lumki, xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish yuqorida aytganimizdek, turlicha soliq rejimlarini qo'llashga asoslanadi. Bunday soliq rejimlari bu turdagi korxonalarining iqtisodiy faoliyatiga ham qisman bog'liq bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, xizmat ko'rsatish tarmog'ining boshqa korxonalari, jumladan mehmonxona xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarining soliq to'lash faoliyatini ham tahlil qilamiz.

⁵⁹ Surxondarё viloyati soliq bo'shqarmasi ma'lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari.

Surxondaryo viloyatida mehmonxona xizmatini ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan to'langan soliq tushumlari tahlili⁶⁰

№	Ko'rsatkichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
“Meridian” mehmonxonasi bo'yicha:						
1	Budjetga to'langan soliqlari (mln.so'm)	456	506	248	566	578
2	Qo'shilgan qiymat solig'i	369	398	144	429	436
3	Foyda solig'i	29	32	23	38	39
4	Yer solig'i	11	15	18	23	27
5	Mol-mulk solig'i	35	39	49	58	55
6	Boshqa soliqlari	12	22	14	18	21
7	Berilgan soliq imtiyozlari (mln.so'm) (yer va mulk solig'i bo'yicha)	16	25	14	22	31
“Asson” mehmonxonasi bo'yicha:						
	<i>Budjetga to'langan soliqlari (mln.so'm)</i>	401	452	162	535	491
	Qo'shilgan qiymat solig'i	352	398	128	459	425
	Foyda solig'i	26	28	12	41	36
	Yer solig'i	4	6	4	6	5
	Mol-mulk solig'i	11	9	12	8	7
	Boshqa soliqlari	8	11	6	21	18
	Budjetga qarzdorlik summasi (mln.so'm)	0	0	11	0	2
	Berilgan soliq imtiyozlari (mln.so'm) (yer va mulk solig'i)	6	14	18	33	38

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi. Surxondaryo viloyatida mehmonxona xizmatini ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan to'langan soliq tushumlari tahlili shuni ko'rsatadiki, boshqa korxonalardan farqli ravishda bu turdagi korxonalarda bir tomondan soliq qarzdorligi tahlil qilinayotgan yillar kesimida 2020 va 2022-yillarda yuzaga kelgan bo'lsa (“Asson” mehmonxonasida), “Meridian” mehmonxonasi va (“Asson” mehmonxonasi tomonidan 2018-2022-yillarda yer va mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlardan foydalanilib kelingan. Bu turdagi ikkala korxonada faoliyatiga covid pandemiyasi sharoitidagi iqtisodiy tushkunlik salbiy ta'sir qilgan bo'lsa, bu davrdagi ularga berilgan soliq-moliyaviy preferensiyalar ma'lum darajada moliyaviy ko'rsatkichlariga turlicha ta'sir qilgan.

⁶⁰ Surхондарё вилояти солиқ бошқармаси маълумотлари асосида муаллифнинг ҳисоб-китоблари.

Surxondaryo viloyatida transport xizmatini ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan to'langan soliq tushumlari tahlili⁶¹

№	Ko'rsatkichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
“Yo'lovchi” MChJ transport xizmatlari korxonasi bo'yicha:						
1	Budjetga to'langan soliqlari (mln.so'm)	335	383	242	394	406
2	Qo'shilgan qiymat solig'i	146	188	63	128	121
3	Foyda solig'i	31	33	12	30	26
4	Yer solig'i	28	21	22	36	48
5	Mol-mulk solig'i	102	104	112	126	125
6	Boshqa soliqlari	28	37	33	74	86
“Termiz-Boysun” MChJ transport xizmatlari korxonasi bo'yicha:						
	Budjetga to'langan soliqlari (mln.so'm)	245	267	172	407	386
	Qo'shilgan qiymat solig'i	184	196	102	288	278
	Foyda solig'i	17	18	11	26	11
	Yer solig'i	10	14	19	22	21
	Mol-mulk solig'i	15	17	26	35	37
	Boshqa soliqlari	19	22	14	36	39
	Budjetga qarzdorlik summasi (mln.so'm)	0	11	7	2	21
	Berilgan soliq imtiyozlari (mln.so'm) (yer va mulk solig'i)	6	14	18	33	38

Xizmat ko'rsatish tarmog'idagi transport xizmatlarining hajmi muhim soliq obyekti bo'lib hisoblanadi. Transport xizmatlari mazmunan amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasidan iborat bo'ladi. 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi 81 006,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati 112,4 % ni tashkil etdi. Surxondaryo viloyatida transport xizmatini ko'rsatuvchi korxonalarni soliqqa tortish bilan bog'liq jarayonning tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, tahlil obyekti sifatida tanlab olingan “Yo'lovchi” MChJ va “Termiz-Boysun” MChJ transport xizmatlari korxonasi davlat va mahalliy budjetga mos holda yiliga o'rtacha 350-400 mln so'mlik soliq to'lovlarini amalga oshirib kelgan, biroq 2020-yilda boshqa korxonalar singari budjetga soliq tushumlari avvalgi va

⁶¹ Surxondaryo viloyati soliq bo'sqarmasi ma'lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari.

keyingi yillarga nisbatan ancha kamayganki, albatta, bu korxonalarda tashish hajmining kamayishi va covid pandemiyasi sharoitida faoliyatining majburiy cheklanganligi bilan izohlash mumkin.

Jadvaldan ko‘rish mumkinki, “Yo‘lovchi” MChJ transport xizmatlari korxonasi tomonidan 2018-2022-yillar davomida soliq to‘lovlaridan qarzlarning vujudga kelmagan bo‘lsa-da, “Termiz-Boysun” MChJ transport xizmatlari korxonasida 2022-yilning o‘zida 22 mln so‘mlik soliq qarzi yuzaga kelgan, shu bilan birgalikda tahlil qilinayotgan davr mobaynida soliq imtiyozlariga ega bo‘lgan. “Termiz-Boysun” MChJ transport xizmatlari korxonasida soliq qarzining yuzaga kelishi ushbu korxonaning kreditorlari tomonidan kreditorlik qarzlarning o‘z vaqtida to‘lab berilmaganligi va korxonada budget oldidagi soliq qarzlarni moliyaviy rejalashtirish ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ymaganligi bilan izohlanadi.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyoti bo‘yicha amalga oshirgan tahlillarimizdan kelib chiqib bir qator ilmiy xulosalarni shakllantirishimiz mumkin:

birinchidan, xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortishda ularning jami daromadlarini aniqlashda jami daromad tarkibining shakllanishi turlicha bo‘lib, ularni aniqlash buxgalteriya hisobini tashkil etish va uni qonun talablari doirasida amalga oshirilishiga, qolaversa, daromadlarning tan olinishi holatlariga hamda, qaysi xizmat turiga mos keluvchi daromadning yuqori ulushligini aniqlashga bog‘liq bo‘ladi;

ikkinchidan, xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortishning qaysi rejimlari qo‘llanilishi, ularning xizmat ko‘rsatish qiymatining miqdoriga (soliq davrida xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so‘mdan (yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun yuz million so‘mdan oshganligi) oshgan yoki oshmaganligi), soliq to‘lovchi sifatida yirik soliq to‘lovchi toifasiga kirishiga bog‘liq bo‘ladi;

uchinchidan, aholining real pul daromadlarining oshishi, inflyatsiyaning darajasi, infratuzilmaning rivojlanishi, ichki va tashqi sayyohlarning mamlakatimizga sayyoh sifatida jalb qilinishi kabi omillar xizmat ko‘rsatish

korxonalarining xizmatlar qiymatiga ta'sir qilish orqali soliq tushumlariga ta'sir qilib kelmoqda;

to'rtinchidan, mamlakatimizda yangidan tashkil etilayotgan yuridik shaxslar orasida xizmat ko'rsatuvchi korxonalar katta ulushni tashkil etishi, bu soha bo'yicha davlat budjetiga soliq tushumlarining oshishiga olib kelmoqda;

beshinchidan, xizmat ko'rsatish korxonalarining soliq nazorati asosida ularning faoliyatini sayyor soliq tekshiruvida eng ko'p shakllaridan biri ularda onlayn nazorat kassa texnikalari orqali savdo qilinishi va shu tufayli soliq bazasiga bo'lgan yalpi tushumning qasddan kamaytirmaslikka holatlari ko'p uchramoqda, bu esa bu turdagi korxonalarda soliq madaniyatini oshirish va soliq maslahatlarini tashkil etishni oshirishni taqozo etadi.

2.3. Xizmat ko'rsatish korxonalari to'laydigan soliq tushumlarini ekonometrik tahlillar asosida o'rta muddatli prognozlashtirish masalalari

Tadqiqot metodologiyasida o'rganilayotgan (tahlil qilinayotgan) obyektning ichki rivojlanish xususiyatlarini mavjud holatni rasmiy statistik ma'lumotlar asosida tadqiq qilish keng qo'llaniladi, bu orqali tadqiqot obyektining qanday rivojlanayotganligida haqida ilmiy xulosalar olish mumkin. Biroq uning rivojlanishiga omil bo'layotgan tashqi omillarning ta'sirini baholamasdan turib, uning strategik holatiga baho berish anchayin mushkuldir. Shu jihatdan olganda xizmatlar sohasi, uni soliqqa tortish mexanizmlarida tashqi omillarning ta'sirini ma'lum bir tadqiqot usullari, masalan ekonometrik usullarni qo'llash orqali ilmiy xulosalar olish ilmiy zarurat deb hisoblaymiz.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish, soliq siyosati va uning tarkibiy qismi bo'lgan soliqqa tortish mexanizmlarining xizmatlar tarmog'ining rivojlanishi nazariy tadqiqotlar bilan birgalikda unga ta'sir omillarini tadqiqotning ekonometrik tahlillar usullarini qo'llash orqali ko'rsatib berishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar mavjud va ular kengayib bormoqda. Bular jumlasiga ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarini keltirish mumkin.

Jumladan, V.Petrovaning soliq siyosatining xizmat ko'rsatish korxonalari rivojlanishiga ta'siriga oid tadqiqotlarida davlatning soliq siyosatida soliq imtiyozlari va soliq stavkalarining o'zgarishining xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining soliq tushumlariga ta'siri ekonometrik tadqiq qilingan, E.Medvedeva, xizmat ko'rsatuvchi korxonalariga beriladigan soliq imtiyozlari bilan shug'ullanishda ham ekonometrik usullardan keng foydalanilgan, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bozoriga soliq ta'sirini tahlil qilish orqali soliq stavkalarining iste'molchilar va xizmat ko'rsatuvchi provayderlarning xatti-harakatlariga, shuningdek, narxlar, xizmatlar hajmi va sifatiga qanday ta'sir qilishini baholagan, tadqiqotchi N.Mamedovanning ilmiy ishlarida esa qaysi soliq imtiyozlari xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsiyalarni rag'batlantirayotganini va ular umumiy iqtisodiy faoliyatga qanday ta'sir qilishi ekonometrik jihatdan baholangan, xizmat ko'rsatish korxonalariga soliq yukining ta'sir doirasi tadqiq qilingan. Xorijlik iqtisodchi olimlar Richard Bird va boshqalar o'z tadqiqotlarida soliq vositalarining samaradorligi va adolatliligi, soliq imtiyozlarining iqtisodiy xatti-harakatlarga ta'siri hamda soliq islohotlarining iqtisodiy o'sish va rivojlanishga ta'sirini o'rganib chiqqan⁶². Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, soliq siyosati, soliq ma'muriyati va fiskal siyosati bo'yicha munozaralari va qarorlarini shakllantirishdagi olimning ishlari yuqori baholangan. Ularning tadqiqotlari soliqqa tortish va uning davlat moliyasiga ta'sirini o'rganishga doimiy ta'sir ko'rsatgan.

Shuningdek, ko'plab xorijlik olimlar o'z tadqiqotlarida soliqqa tortish tizimida soliq bazasini aniqlash tartibi va ta'sirlarini ekonometrik modellashtirgan.

Xususan, xorijlik iqtisodchi olim Piter Birch Sorensen o'z tadqiqotlarida soliq siyosati va davlat daromadlari o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish uchun ekonometrik modellar va nazariy asoslarni ishlab chiqqan. Olim ekonometrik modellarni ishlab chiqishda soliq bazasi, soliq stavkalari, iqtisodiy samaradorlik, soliq to'lashdan bo'yin tovlash va rioya qilish hamda atrof-muhitga soliq solish kabi

⁶² Bird R. M., Zolt E. M. The limited role of the personal income tax in developing countries //Journal of Asian Economics. – 2005. – T. 16. – №. 6. – C. 928-946.

omillarni tanlab olgan⁶³. Tadqiqotchi ilmiy ishlanmalari natijasi orqali soliq siyosati muhokamasiga va davlat moliyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, olim soliq tizimlari daromad ehtiyojlarini iqtisodiy samaradorlik va adolat bilan muvozanatlash uchun ishlab chiqilishi mumkinligi haqida ma'lumot bergan.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini rivojlantirish uchun soliq imtiyozlari samaradorligini tahlil qilish bilan bog'liq tadqiqotda xizmat ko'rsatish korxonalarini rivojlantirishni rag'batlantirish uchun foydalaniladigan soliq stavkalarini pasaytirish yoki soliq imtiyozlarini berish kabi turli xil soliq imtiyozlari ko'rib chiqilishi mumkin. Turli xizmat ko'rsatish sohalari bo'yicha soliq yukini o'rganishda turli xil xizmat ko'rsatish sohalari uchun soliq stavkalari va soliq imtiyozlarini solishtirish mumkin, masalan, mehmondo'stlik, restoranlar, sog'liqni saqlash va boshqalar. Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishni optimallashtirish tahlilida esa ushbu tadqiqot xizmat ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan soliq to'lovlarini optimallashtirish uchun qo'llaniladigan turli usullarni o'rganish uchun amalga oshirilishi mumkin, masalan, soliq imtiyozlari, xarajatlarni hisobga olish va boshqalar.

Biz tadqiqot ishimiz doirasida xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishda soliq elementlarining ayrimlarini bu kabi korxonalardan undiriladigan soliq tushumlariga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellarini ishlab chiqdik. Tadqiqotni ishlab chiqishda SEM regression modelidan foydalanildi. Strukturaviy tenglamalarni modellashtirish (SEM) (chiziqli bo'lmagan) regressiya modeli o'zgaruvchilar orasidagi murakkab munosabatlarni tahlil qilish uchun qo'llaniladigan keng qamrovli statistik uslubdir⁶⁴. Ushbu model kuzatilgan va yashirin o'zgaruvchilarni o'z ichiga olgan an'anaviy regressiya modellarini kengaytiradi va tadqiqotlarda o'zgaruvchilarning bir-biriga bevosita va bilvosita ta'sirini tekshirishga imkon beradi.

⁶³ Sørensen P. B. Dual income taxes: a Nordic tax system //Tax reform in open economies: international and country perspectives, Cheltenham, Edward Elgar. – 2010. – C. 78-108.

⁶⁴ De Carvalho J., Chima F. O. Applications of structural equation modeling in social sciences research //American International Journal of Contemporary Research. – 2014. – T. 4. – №. 1. – C. 6-11.

SEM regressiya modelida o'zgaruvchilar ikki turga bo'linadi: kuzatilgan o'zgaruvchilar va yashirin o'zgaruvchilar⁶⁵. Kuzatilgan o'zgaruvchilar to'g'ridan-to'g'ri o'lchanadi, yashirin o'zgaruvchilar esa bir nechta kuzatilgan o'zgaruvchilar asosida baholanadigan kuzatilmagan konstruksiyalar hisoblanadi.

SEM regressiya modeli ikkita komponentdan iborat: o'lchov modeli va strukturaviy model.⁶⁶ O'lchov modeli: O'lchov modeli yashirin o'zgaruvchilar va ularning kuzatilgan ko'rsatkichlari o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydi⁶⁷. U har bir kuzatilayotgan o'zgaruvchi va unga mos keladigan yashirin o'zgaruvchi o'rtasidagi munosabatlarning kuchi va yo'nalishini ifodalovchi omil yuklarini baholaydi.

Strukturaviy model: Strukturaviy model yashirin o'zgaruvchilar va qiziqtirgan qaram o'zgaruvchi(lar) o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydi⁶⁸.

SEM regressiya modelida o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlar yo'l diagrammalari yordamida grafik tarzda ifodalanadi⁶⁹. Yo'l diagrammasi kuzatilgan va yashirin o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni vizual ravishda aks ettiradi, strekalar ta'sir yoki bog'lanish yo'nalishini ko'rsatadi.

SEM regressiya modelida parametrlarni baholash kuzatilgan ma'lumotlar va modelga asoslangan kovariatsiya matritsasi o'rtasidagi farqni minimallashtirishni o'z ichiga oladi⁷⁰. Bu odatda maksimal ehtimollik smetasi (MLE) yoki vaznli eng kichik kvadratlar (WLS) yoki qisman eng kichik kvadratlar (PLS) kabi boshqa baholash usullari yordamida amalga oshiriladi.

SEM regressiya modellari bir nechta afzalliklarni taklif etadi, jumladan, murakkab munosabatlarni boshqarish, o'lchash xatosini kiritish va bir vaqtning o'zida bir nechta qaram o'zgaruvchilarni tahlil qilish. Ular turli sohalarda, jumladan, ijtimoiy fanlar, psixologiya, ta'lim va biznesda nazariyalarni sinab ko'rish, sabab-

⁶⁵ Muthen B. Latent variable analysis //The Sage handbook of quantitative methodology for the social sciences. – 2004. – T. 345. – №. 368. – C. 106-109.

⁶⁶ Bauer D. J. Estimating multilevel linear models as structural equation models //Journal of Educational and Behavioral Statistics. – 2003. – T. 28. – №. 2. – C. 135-167.

⁶⁷ Hughes M. A., Price R. L., Marrs D. W. Linking theory construction and theory testing: Models with multiple indicators of latent variables //Academy of management review. – 1986. – T. 11. – №. 1. – C. 128-144.

⁶⁸ Weston R., Gore Jr P. A. A brief guide to structural equation modeling //The counseling psychologist. – 2006. – T. 34. – №. 5. – C. 719-751.

⁶⁹ Lleras C. Path analysis //Encyclopedia of social measurement. – 2005. – T. 3. – №. 1. – C. 25-30.

⁷⁰ Wu W., West S. G., Taylor A. B. Evaluating model fit for growth curve models: Integration of fit indices from SEM and MLM frameworks //Psychological methods. – 2009. – T. 14. – №. 3. – C. 183.

oqibat munosabatlarini tekshirish, o'lchov vositalarini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun keng qo'llaniladi.

Har bir yashirin o'zgaruvchi uchun o'lchov modeli kuzatilgan o'zgaruvchilarni ularning tegishli yashirin o'zgaruvchisi bilan bog'laydi.

O'lchov modeli.

Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$X_i = \lambda_{i1} * F_1 + \lambda_{i2} * F_2 + \dots + \lambda_{im} * F_m + e_i \quad (1)$$

Bu yerda,

X_i kuzatilgan i o'zgaruvchisini ifodalaydi.

$\lambda_{i1}, \lambda_{i2}, \dots, + \lambda_{im}$ - yashirin o'zgaruvchilar F_1, F_2, \dots, F_m va kuzatilayotgan X_i o'zgaruvchisi o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi omil yuklamalari.

F_1, F_2, \dots, F_m yashirin o'zgaruvchilardir.

e_i -kuzatilgan X_i o'zgaruvchisining o'lchov xatosini yoki tushuntirilmagan dispersiyasini ifodalovchi xato atamasi.

Strukturaviy model:

Strukturaviy model yashirin o'zgaruvchilar va qiziqtirgan qaram o'zgaruvchilar (lar) o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydi. Bu quyidagicha ifodalanadi:

$$Y_j = \beta_{j1} * F_1 + \beta_{j2} * F_2 + \dots + \beta_{jm} * F_m + u_j \quad (2)$$

Bu yerda,

Y_j bog'liq j o'zgaruvchini ifodalaydi.

$\beta_{j1}, \beta_{j2}, \dots, \beta_{jm}$ - yashirin o'zgaruvchilar F_1, F_2, \dots, F_m va Y_j bog'liq o'zgaruvchisi o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi yo'l koeffitsiyentlaridir.

F_1, F_2, \dots, F_m yashirin o'zgaruvchilardir.

u_j - Y_j bog'liq o'zgaruvchining tushuntirilmagan dispersiyasini ifodalovchi xato atamasi. Shuningdek, SEM regressiya modeli kuzatilgan va yashirin o'zgaruvchilar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tahlil qilish uchun moslashuvchan va kuchli asosni ta'minlaydi.


Tadqiqot bo'yicha milliy iqtisodiyotda soliq qo'mitasining o'n yillik ma'lumotlar asosidagi ko'rsatkichlardan foydalanilgan holda ikkita ekonometrik modellar ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan ekonometrik model bo'yicha bog'liq o'zgaruvchi va mustaqil o'zgaruvchilar qo'yidagicha ifodalandi.

Y_1 – Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq tushumlari- bog'liq o'zgaruvchi, Y_2 - xizmat ko'rsatish korxonalarini tomonidan tushgan soliq tushumlari- bog'liq o'zgaruvchi, X_1 - soliq qarzdorligi (yuridik shaxslar)-mustaqil o'zgaruvchi, X_2 - ortiqcha to'lovlar (yuridik shaxslar)- mustaqil o'zgaruvchi, X_3 -o'rtacha soliq stavkasi (yuridik shaxslar) - mustaqil o'zgaruvchi, x_4 - ko'rsatilgan xizmat qiymati (yuridik shaxslar)- mustaqil o'zgaruvchi, X_5 - soliq imtiyozlari (yuridik shaxslar)- mustaqil o'zgaruvchi.


Tadqiqot bo'yicha quyidagi gipotezalar ishlab chiqildi.

1-gepoteza. Soliq majburiyati, ortiqcha to'lovlar, o'rtacha soliq stavkasi va aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq tushumlari o'rtasidagi bog'liqlik mavjud. Soliq majburiyati va o'rtacha soliq stavkasining oshishi natijasida aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq tushumlarining kamayishiga olib kelsa, ortiqcha to'lovlarning oshishi aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq tushumlarining ko'payishiga olib keladi.

2-gepoteza. Soliq qarzdorligi, ko'rsatilgan xizmat qiymati, soliq imtiyozi va xizmat ko'rsatish korxonalarini tomonidan tushgan soliq tushumlari o'rtasida bog'liqlik mavjud. Soliq qarzdorligi va soliq imtiyozlarining oshishi natijasida xizmat ko'rsatish korxonalarini tomonidan tushgan soliq tushumlarining kamayishiga olib keladi. Shuningdek, ko'rsatilgan xizmat qiymatining oshishi xizmat ko'rsatish korxonalarini tomonidan tushgan soliq tushumlarining oshishiga olib keldi. Tadqiqotda milliy iqtisodiyotda aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq tushumlari unga ta'sir etuvchi omillar: soliq qarzdorligi, ortiqcha to'lovlar va o'rtacha soliq stavkasi) hamda xizmat ko'rsatish korxonalarini tomonidan tushgan soliq tushumlari unga ta'sir etuvchi omillar (soliq qarzdorligi, ko'rsatilgan xizmat qiymati va soliq imtiyozlari) ko'rsatkichlarining tahliliy grafik jadvali quyidagi rasmlarda aks etgan (9 va 10-rasmlarga qarang).



9-rasm. Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq tushumlari va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning grafik matritsasi⁷¹




10-rasm. Xizmat ko'rsatish korxonalari tomonidan tushgan soliq tushumlari va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning grafik matritsasi⁷²


Yuqoridagi 9 va 10-rasmlarda tasvirlangan grafik tasvirlar aniq zichlik effektini ko'rsatib, qaram o'zgaruvchi va mustaqil o'zgaruvchi o'rtasidagi sezilarli bog'lanishni ko'rsatadi. Zichlik effekti ma'lumotlar nuqtalarining grafikning ma'lum hududlarida to'planish tendensiyasini bildiradi, bu muhim konsentratsiya naqshini ta'kidlaydi.

⁷¹ Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

⁷² Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.



11-rasm. Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq tushumlari va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi deskriptiv statistik jarayon.⁷³



12-rasm Xizmat ko'rsatish korxonalaridan tushgan soliq tushumlari va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi deskriptiv statistik jarayon.⁷⁴

Yuqoridagi 11 va 12-rasmlarga ko'ra, tavsiflovchi ma'lumotlar bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilar uchun ma'lumotlar ko'rsatkichlarining 75% tushuntirilishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu shuni anglatadiki, ma'lumotlar nuqtalarining to'rt dan uch qismi mavjud ma'lumotlar asosida hisoblanishi yoki tushunilishi mumkin bo'lgan diapazonga to'g'ri keladi. Bu ma'lumotlarning katta qismini statistik jihatdan tavsiflash mumkin yoki berilgan kontekstda aniq aloqaga ega ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot bo'yicha navbatdagi qadamda aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq tushumlari unga ta'sir etuvchi omillar (soliq qarzadorligi, ortiqcha to'lovlar va o'rtacha soliq stavkasi) hamda xizmat ko'rsatish korxonalaridan tushgan soliq tushumlari unga ta'sir etuvchi omillar (soliq qarzadorligi,

⁷³ Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

⁷⁴ Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

ko'rsatilgan xizmat qiymati va soliq imtiyozlari) har biri bo'yicha o'zaro korrelyatsion matritsasini tekshirildi (24 va 25-jadvallarga qarang).

24-jadval

Bog'liq o'zgaruvchi va mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'lanishlarning korrelyatsion matritsasi⁷⁵

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)
(1) y1	1.000			
(2) x1	-0.388	1.000		
(3) x2	0.413	0.203	1.000	
(4) x3	-0.600	0.021	-0.572	1.000

25-jadval

Bog'liq o'zgaruvchi va mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'lanishlarning korrelyatsion matritsasi⁷⁶

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)
(1) y2	1.000			
(2) x1	0.238	1.000		
(3) x4	0.764	0.378	1.000	
(4) x5	0.322	0.329	0.409	1.000

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 24 va 25-jadvallar ma'lumotlaridan bog'liq o'zgaruvchilar va mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasida kuchli, yuqori, sezilarli, o'rtacha va teskari bog'liqlik mavjud. Bundan tashqari, model aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq tushumlari soni va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasida 58 foiz va xizmat ko'rsatish korxonalarini tomonidan tushgan soliq tushumlari va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasida 71 foiz ishonchlik koeffitsiyentini namoyish etdi va tuzilgan ekonometrik tenglamalar sifat ko'rsatkichi bilan ijobiy munosabatni ko'rsatdi.

Keyingi bosqichda tahlil SEM regression tenglamalar asosiy o'zgaruvchilarni va Chi-kvadrat testi, qiyosiy moslik indeksi (CFI), yaqinlashuvning o'rtacha kvadrat xatosi (RMSEA) va standartlashtirilgan o'rtacha kvadrat qoldiq (SRMR) testlari testi yordamida baholandi.

Tadqiqot bo'yicha SEM regression tenglamalar ko'rsatkichlari tahlil qilindi (26 va 27-jadvallarga qarang).

⁷⁵ Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.

⁷⁶ Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.

Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq tushumlari va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasida SEM regression tenglamasi⁷⁷

	OIM					
	Coef.	Std.Err.	z	P>z	[95%Conf.	Interval]
Structural						
y1 <-						
x1	-1.064	0.554	-1.920	0.055	-2.151	0.022 *
x2	0.198	0.223	0.880	0.077	-0.240	0.636 *
x3	-2.785	1.634	-1.700	0.088	-5.988	0.418 *
_cons	21.741	8.125	2.680	0.007	5.816	37.66 ***
var(e.y1)	0.060		0.027	0.025	0.144	

26-jadval bo'yicha SEM regression modeliga ko'ra mustaqil o'zgaruvchilar koeffitsiyentlari mos ravishda -1.06, 0.19 va -2.78 qiymatlarini tashkil etgan. Bundan tashqari, tadqiqot bo'yicha SEM modeli bo'yicha $H_0:y=0$, $H_1:y\neq 0$ $t<0.05$, bosh gipoteza ma'noga ega emas $H_0:y=0$ biz bosh gipotezani rad etib alternativ gipotezaga o'tamiz va unga ko'ra alternativ gipoteza $H_1:y\neq 0$ statistik ahamiyatga ega. Tadqiqot bo'yicha ishlab chiqilgan SEM regression modeli quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi.

$$Y1 = -1.06X1 + 0.19X2 - 2.78X3 + 21.74 \quad (3)^{78}$$

Xizmat ko'rsatish korxonalarini tomonidan tushgan soliq tushumlar va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasida SEM regression tenglamasi⁷⁹

	OIM					
	Coef.	Std.Err.	z	P>z	[95%Conf.	Interval]
Structural						
y2 <-						
x1	-0.080	0.046	-1.750	0.080	-0.169	0.009 *
x4	0.779	0.060	12.950	0.000	0.661	0.897 ***
x5	-0.079	0.107	-0.740	0.057	-0.289	0.130 *
_cons	-0.139	0.760	-0.180	0.085	-1.629	1.350 *
var(e.y2)	0.010		0.005	0.004	0.025	


27-jadval bo'yicha OLS regression modeliga ko'ra mustaqil o'zgaruvchilar koeffitsiyentlari mos ravishda -0.08, 0.77 va -0.07 qiymatlarini tashkil etgan. Bundan tashqari, tadqiqot bo'yicha SEM modeli bo'yicha $H_0:y=0$, $H_1:y\neq 0$ $t<0.05$, bosh gipoteza ma'noga ega emas $H_0:y=0$ biz bosh gipotezani rad etib alternativ

⁷⁷ Stata dasturi asosida mustaqil ishlab chiqildi.


⁷⁸ Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.

⁷⁹ Stata dasturi asosida mustaqil ishlab chiqildi.

gipotezaga o'tamiz va unga ko'ra alternativ gipoteza $H_1: y \neq 0$ statistik ahamiyatga ega. Tadqiqot bo'yicha ishlab chiqilgan SEM regression modeli quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi. $Y_2 = -0.05 \cdot X_1 + 0.77X_4 - 0.07X_5 - 0.13$ (4) Shuningdek, SEM regression modeli va test ko'rsatkichlari quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi.



13-rasm. Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq tushumlari va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi SEM regression tenglamasi⁸⁰.



14-rasm. Xizmat ko'rsatish korxonalari tomonidan tushgan soliq tushumlari va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasida SEM regression tenglamasi⁸¹

Yuqoridagi 13 va 14-rasmlarga ko'ra SEM regression model b strukturaviy ko'rinishi keltirilgan. Shuningdek, SEM regression modeli o'z ishlashi jihatidan ijobiy natijalar berganligini ko'rsatgan. Bu modelning o'zgaruvchilar o'rtasidagi

⁸⁰ Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

⁸¹ Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

munosabatlarni baholash va tahlil qilish qobiliyati, shuningdek, uning umumiy muvofiqligi qoniqarli ekanligini namoyon etgan.

SEM regression modelning ishlashi odatda turli statistik o'lchovlar va testlar yordamida baholanadi, masalan, Chi-kvadrat testi, qiyosiy moslik indeksi (CFI), yaqinlashuvning o'rtacha kvadrat xatosi (RMSEA) va standartlashtirilgan o'rtacha kvadrat qoldiq (SRMR) testlari shular jumlasidandir. SEM regression model ushbu ko'rsatkichlarga asoslangan ma'lumotlarga yaxshi mos kelgan hamda u kuzatilgan munosabatlarni tushuntirishda va tadqiqot gipotezasiga mazmunli tushuncha berishda muvaffaqiyatli deb hisoblash maqsadga muvofiq.

Amalga oshirilgan ekonometrik tahlillarga va hisob-kitoblarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, milliy iqtisodiyotda aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq tushumlari va xizmat ko'rsatish korxonalari tomonidan tushgan soliq tushumlar unga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha o'rganish uchun olib borilgan tahlillar va xulosalar natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq tushumlari va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi ekonometrik tenglama.

$Y1 = -1.06X1 + 0.19X2 - 2.78X3 + 21.74$ ga ko'ra, soliq qarzining 1% ga oshishi aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq tushumlarining 1,06% ga kamayishiga olib keladi. Ortiqcha to'lovlarning 1% ga oshishi aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq tushumlarining 0,19% ga oshishiga olib keladi. Shuningdek, o'rtacha soliq stavkasining 1% ga oshishi aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq tushumlarining 2,78% ga kamayishiga olib keladi.

Ushbu natijaga ko'ra:

1.1. Soliq to'lovchilar yuqori soliq yuklariga duch kelganda, ular soliqqa tortiladigan operatsiyalarni kamaytirish uchun o'z xatti-harakatlarini o'zgartirishi yoki soliq majburiyatlarini minimallashtirish yo'llarini topishi mumkin, bu esa hukumat uchun aylanma soliq tushumlarining pasayishiga olib keladi.

1.2. Qo'shimcha to'lovlar oshirilganda, bu aylanmadan olinadigan soliq tushumining biroz oshishiga olib keladi. Shuningdek, qo'shimcha to'lovlar talab

yoki operatsiyalarni kamaytirishga sezilarli ta'sir ko'rsatmasligi mumkin, ammo ular umumiy aylanmadan olinadigan soliq tushumiga ijobiy hissa qo'shishi mumkin.

1.3.O'rtacha soliq stavkasi ko'tarilganda, bu aylanma soliq tushumlarining sezilarli darajada pasayishiga olib keladi. Bu shuni anglatadiki, korxonalar yoki jismoniy shaxslar uchun umumiy soliq yuki ortib borishi bilan bu soliqqa tortiladigan operatsiyalar va iqtisodiy faoliyatning sezilarli darajada qisqarishiga olib keladi, bu esa aylanma soliq tushumlarining kattaroq pasayishiga olib keladi.

1-tenglama xulosalariga ko'ra soliq bilan bog'liq turli omillar va ularning soliq tushumlariga ta'siri o'rtasidagi dinamik munosabatlarni ta'kidlaydi. Bu shuni ko'rsatadiki, soliq majburiyati va o'rtacha soliq stavkalarining oshishi, iqtisodiy faoliyatning qisqarishi tufayli aylanma soliq tushumlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Boshqa tomondan, qo'shimcha to'lovlarni oshirish savdo solig'i tushumiga cheklangan ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki ular tranzaksiyalarni sezilarli darajada to'xtata olmaydi.

2. Xizmat ko'rsatish korxonalarini tomonidan tushgan soliq tushumlari va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi ekonometrik tenglama.

$Y_2 = -0.05 \cdot X_1 + 0.77 \cdot X_4 - 0.07 \cdot X_5 - 0.13$ ga ko'ra, soliq majburiyatining 1% ga ortishi natijasida xizmat ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan olinadigan soliq tushumlarining 0,05% ga kamayishiga olib keladi. Ko'rsatilgan xizmat qiymatining 1% ga ortishi natijasida xizmat ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan olinadigan soliq tushumlarining 0,77% ga oshishiga olib keladi. Shuningdek, soliq imtiyozlarini 1% ga oshirish xizmat ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan olinadigan soliq tushumlarining 0,07 % ga kamayishiga olib keladi.

Ushbu natijaga ko'ra:

2.1.Soliq yukining oshishi xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining rentabelligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu ularning faoliyatida yoki narx strategiyalarida potensial tuzatishlarga olib keladi, bu esa hukumat tomonidan yig'iladigan soliq tushumlarining kamayishiga olib kelishi mumkin.

2.2.Ko'rsatilgan xizmat qiymatining o'zlari taklif qilayotgan xizmatlar qiymatini oshirganda (masalan, narxlarni oshirish yoki takliflarni kengaytirish), bu

ular oladigan soliq tushumlarining sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Bu shuni anglatadiki, xizmat ko'rsatuvchi provayderlar o'z xizmatlaridan ko'proq daromad keltirar ekan, hukumat yuqori soliq yig'implaridan foyda ko'radi.

2.3. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar ko'proq soliq imtiyozlariga ega bo'lsa, bu ular oladigan soliq tushumlarining biroz pasayishiga olib keladi. Bu shuni ko'rsatishi mumkinki, soliq imtiyozlari xizmat ko'rsatuvchi korxonalar uchun foydali bo'lsa-da, hukumat ulardan olinadigan umumiy soliq tushumlarini kamaytirishi mumkin, bu esa imtiyozlardan olingan daromadlarning bir qismini qoplashi mumkin.

2-tenglama xulosasiga ko'ra, xizmat ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan olingan soliq tushumlari bo'yicha soliq majburiyati, xizmat qiymati va soliq imtiyozlarining o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi. Yuqori soliq majburiyati va soliq imtiyozlarining oshishi soliq tushumlariga qarama-qarshi ta'sir ko'rsatishi mumkin, ko'rsatilgan xizmatlar qiymatining oshishi esa soliq yig'implarining sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Yuqoridagi ko'p ko'p omilli regression orqali xizmat ko'rsatish korxonalar bo'yicha soliq tushumini yillar kesimida o'sishini tanlangan omillar asosida soliq tushumlari prognozini amalga oshiramiz (28-jadval).

28-jadval

2023-2026-yillar bo'yicha xizmat ko'rsatish korxonalar bo'yicha soliq tushumi prognoz ko'rsatkichlari⁸² (mlrd.so'm).⁸³

Yillar	Xizmat ko'rsatish korxonalar bo'yicha soliq tushumi prognoz ko'rsatkichlari	Pessimistik variant	Optimistik variant
2023		6 421,7	6 724,5
2024		6923,8	7258,3
2025		7458,5	7855,0
2026		8105,6	8352,7

Xizmat ko'rsatish korxonalar bo'yicha soliq tushumi prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash doirasida yuqorida o'tkazilgan ekonometrik tahlillar va unda tanlab olingan ta'sir qiluvchi omillarning har birining natijaviy

⁸² Muallifning hisob-kitoblari.

⁸³ Muallif tomonidan tayyorlangan.

ko'rsatkichlariga asolan holda ikki xil variantdagi (pessimistik va optimistik) prognoz ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi. Bu prognoz ko'rsatkichlari o'rta muddatga mo'ljallangan bo'lib, yuqorida o'tkazilgan testlarning xulosalari va avvalgi (2022-yilgacha bo'lgan) yillardagi real ko'rsatkichlarning dinamik qatorlar ko'rsatkichlari bizlar tomonimizdan optimistik prognoz ko'rsatkichlarining kamida 90 foizlikda obyektivlikka egaligini ko'rsatadi. Ta'kidlash kerakki, xizmat ko'rsatish korxonalarida yirik soliq to'lovchilar sirasiga kiruvchi 20 ta korxonaning zimmasiga bugungi kunda ular to'laydigan soliq tushumlarining o'rtacha 20 foizining to'g'ri kelishligidan chiqib mantiqiy-iqtisodiy prognoz qiladigan bo'lsak, bu toifadagi korxonalarining ortib borishi, biz aniqlagan prognoz ko'rsatkichlarini har yiliga 7-10 foizga oshishini e'tiborga olish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

2-bob bo'yicha xulosa

Ushbu bob doirasida amalga oshirgan tahlillarimizdan kelib chiqqan holda bir qator ilmiy xulosalar shakllantirildi:

Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonada savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,6 foizi yoki 182,2 mingtasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi, xizmat ko'rsatish korxonalaridan soliq tushumlari tarkibida umumiy ovqatlanish korxonalarini ham yetarli ulushni egallaydi. Agar, 2023-yil 1-yanvar holati doirasidagi tahlillarga asoslanadigan bo'lsak, umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 33 111 tani, bu 2022-yil 1-yanvar holatiga nisbatan 3 150 taga oshib va o'sish sur'ati 110,5 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

Agar xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish evolyutsion jarayonlariga e'tibor beradigan bo'lsak, ularni soliqqa tortish asosan daromadlarini soliqqa tortish shaklida amal qilganligini ko'rish mumkin. Hozirgi kunda O'zbekiston soliq tizimidagi soliqqa tortish amaliyotida xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishda ikki xil uslubiy amaliyotni ko'rish mumkin. Ya'ni buning birinchisi, xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalar faoliyatiga muvofiq soliqqa tortish yondashuv bo'lsa, keyingisi, tadbirkorlik subyektlarining qo'shimcha xizmat

ko'rsatish faoliyatiga nisbatan soliq solish uslubiyatiga asoslangan amaliy jarayon mavjudligini keltirib o'tish mumkin.


Moliyaviy resurslarning aylanish tezligi nisbatan yuqoriroq bo'lganligi, aholining real pul daromadlarining oshishi, yurtimizda turizmga bo'lgan e'tiborning kuchayishi sababli va boshqa shu kabi iqtisodiy omillar ta'sirida 2021-2022-yillarda xizmat ko'rsatish korxonalaridan undirilgan soliq tushumlari o'sib borgan. Xizmat ko'rsatish sohalari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, yuqoridagi tahlillarga o'xshab soliq tushumlarida ham aloqa va axborotlashtirish xizmatlari korxonalar tomonidan eng ko'p soliq tushumlari to'lagan. Albatta, boshqa korxonalar singari xizmat ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan to'langan soliq tushumlariga soliq qarzdorligi, ularga berilgan soliq imtiyozlari hamda ular tomonidan ortiqcha to'lovlar va shu kabi muhim soliq ko'rsatkichlari ta'sir qiladi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishda ularning jami daromadlarini aniqlashda jami daromad tarkibining shakllanishi turlicha bo'lib, ularni aniqlash buxgalteriya hisobini tashkil etish va uni qonun talablari doirasida amalga oshirilishiga, qolaversa, daromadlarning tan olinishi holatlariga hamda, qaysi xizmat turiga mos keluvchi daromadning yuqori ulushligini aniqlashga bog'liq bo'ladi, amalga oshirilgan tahlillarga ko'ra, aholining real pul daromadlarining oshishi, inflyatsiyaning darajasi, infratuzilmaning rivojlanishi, ichki va tashqi sayyohlarning mamlakatimizga sayyoh sifatida jalb qilinishi kabi omillar xizmat ko'rsatish korxonalarining xizmatlar qiymatiga ta'sir qilish orqali soliq tushumlariga ta'sir qilib kelmoqda.

III BOB. XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

3.1. Xizmat ko‘rsatish sohasini soliqqa tortish bo‘yicha xalqaro tajriba va uni milliy soliq tizimida qo‘llash istiqbollari

Tadqiqot ishimizning birinchi bobida soliqqa tortish amaliyotining evolyutsion jarayonlari va soliqqa tortish nazariyalarining vujudga kelishi hamda ularning soliq tizimida qo‘llanishi xususiyatlarini ko‘rsatib berilgan edi. Unda xizmat ko‘rsatish sohalari dunyo soliqqa tortish tizimida o‘ziga xos qonuniyatlarda rivojlanib kelinganligini nazariy asoslarini qisqacha yoritib berilgan edi. Tadqiqotimizning mazkur bandida esa jahon amaliyotida xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortishning umumiy o‘ziga xos xususiyatlari hamda dunyo mamlakatlarning ayrimlari misolida ushbu korxonalarni soliqqa tortish amaliyotini qisqacha qiyosiy tahlil qilamiz.



15-rasm. Xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortishning xalqaro amaliyot xususiyatlari⁸⁴

Dunyo bo‘ylab xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarni soliqqa tortish birinchidan, har bir davlatning milliy soliq tizimi xususiyatlaridan kelib chiqib, ikkinchidan, ikkiyoqlama soliqqa tortishning tamoyillari va qoidalariga mos holda, uchinchidan, xizmat ko‘rsatish korxonalarining joylashuvi va ularning faoliyat turlaridan kelib chiqib soliqqa tortiladi.

⁸⁴ Muallif tomonidan tuzilgan.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishda jahon amaliyotida bir qator soliqlar joriy qilingan. Jumladan, dunyoning aksariyat mamlakatlari tovarlar va xizmatlarning chakana savdosidan undiriladigan qo'shilgan qiymat solig'ini qo'llaydi. QQS stavkalari mamlakatdan mamlakatga farq qiladi va 0% (nol stavka) dan yuqori foizgacha bo'lishi mumkin. Ko'pgina mamlakatlar tovarlar va xizmatlarning chakana savdosidan olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) yoki shunga o'xshash soliqni qo'llaydi. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari o'zgarishi mumkin va odatda 5% dan 27% gacha. Ba'zi mamlakatlarda xizmatlarning ayrim turlari uchun pasaytirilgan tariflar ham mavjud. Ko'pgina mamlakatlar qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) yoki ekvivalentini qo'llaydi. Turli mamlakatlarda QQS stavkalari 0% dan yuqoriroq qiymatlargacha, masalan, 20% yoki undan yuqoriroq bo'lishi mumkin. Odatda xizmatlar uchun QQS stavkasi tovarlar uchun stavkadan farq qilishi mumkin.

Keyingi soliq turlaridan biri korporativ daromad solig'i (Corporate income tax) bo'lib, bunda xizmat ko'rsatadigan korxonalar o'z foydalariga qarab soliqqa tortiladi hamda ushbu soliq stavkalari mamlakatlar kesimida anchayin farq qiladi va bir necha foizdan sezilarli foizgacha bo'lishi mumkin. Korporativ daromad solig'i stavkalari mamlakatdan mamlakatga farq qilishi mumkin va odatda 0% dan (maxsus iqtisodiy zonalar yoki imtiyozli rejim uchun) 30% yoki undan yuqoriroq stavkalgacha o'zgarib turadi. Ko'pgina mamlakatlarda korxonalar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar korporativ daromad solig'iga tortiladi. Shu bilan birga, soliq solinadigan baza va stavkalar korxonaning tashkiliy-huquqiy shakliga va boshqa omillarga qarab o'zgarishi mumkin. Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyotida shaxsiy daromad solig'i (respublikamiz soliq tizimdagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga o'xshash) (personal income tax) solig'i ham undiriladiki, bu asosan yakka tartibdagi tadbirkorlar va xizmat ko'rsatish sohasida ishlaydigan jismoniy shaxslar odatda shaxsiy daromad solig'iga tortiladi. Shaxsiy daromad solig'i stavkalari ham mamlakatlarga qarab farq qiladi va progressiv soliqqa tortish tamoyillariga asoslanishi mumkin.

Aksariyat davlatlarda (masalan, AQSh, Germaniya, Rossiya, Qozog‘iston, Armaniston, Yaponiya, Braziliya, Norvegiya va shu kabi) xizmat ko‘rsatish korxonalaridan undiriladigan soliqlar O‘zbekistondagi amaliyotga o‘xshash holda ko‘pincha mahalliy soliqlar sifatida mahalliy (munitsipial) budjetlarga jalb qilinadi. Ayrim davlatlarda masalan, AQSh, Germaniya, Braziliya, Rossiya kabi davlatlarda xizmat ko‘rsatish korxonalarini uchun mintaqalar yoki munitsipalitetlar tomonidan o‘rnatilgan mahalliy soliqlar joriy qilinishi mumkin. Bular mulk solig‘i, yer solig‘i va boshqalarni o‘z ichiga olishi mumkin. So‘nggi yillarda dunyoda xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortish uchun soliq stavkalari mamlakat va xizmat turiga qarab sezilarli darajada farq qilib bormoqda.

Ko‘pgina mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortishda bir xil daromadga bir nechta mamlakatlarda soliq solinadigan holatlardan qochish uchun ikki tomonlama soliq to‘lash bo‘yicha shartnomalardan foydalaniladi, ayniqsa, transport, restoran biznesi va raqamli (internet savdo) savdo korxonalarini soliqqa tortishda aynan ana shu ikkiyoqlama soliqqa tortish jarayonlarni bartaraf etish (muvofiglashtirish) bilan bog‘liq kelishuv shartnomalar asosida soliq huquqlarini mamlakatlar o‘rtasida taqsimlash qoidalarini belgilaydi. Shu bilan birga, shuni ta’kidlash kerakki, soliq tizimlari va siyosatlari vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin va soliqqa tortish xizmatlarining o‘ziga xos qoidalari mamlakatlar kesimida farqlanib boradi. Ko‘pgina mamlakatlarda mamlakatlar o‘rtasidagi xizmatlarga soliq solishni tartibga soluvchi ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama soliq shartnomalari mavjud. Ushbu shartnomalar ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish va nizolarni hal qilish qoidalarini o‘z ichiga olishi mumkin.

Ba’zi mamlakatlar muayyan xizmatlardan foydalanish yoki sotish uchun maxsus soliqlarni o‘rnatadilar. Bu ko‘ngilochar, kommunal xizmatlar, turizm va boshqa turdagi xizmatlarga soliqlardir. Ko‘pgina mamlakatlarda ishchilar, shu jumladan xizmat ko‘rsatish sohasi ishchilari daromadlaridan olinadigan soliqlar ish haqidan ushlab qolinadi. Ba’zi hollarda ma’lum sektorlarda ko‘rsatiladigan xizmatlar (masalan, mehmondo‘stlik) ko‘chmas mulk yoki yer solig‘iga tortilsa, ayrim olingan mamlakatlarda xizmatlarning ayrim turlari uchun maxsus soliqlar

yoki yig'imlar qo'llanilishi mumkin. Misol uchun, ba'zi mamlakatlar sayyohlik solig'i yoki qimor o'yinlariga soliq soladi. Ba'zi shtatlar (masalan, AQShda) va munitsipalitetlarda mehmondo'stlik yoki chakana savdo kabi muayyan xizmatlar yoki sektorlar bilan bog'liq maxsus soliq va to'lovlar amal qiladi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini qo'shilgan qiymat solig'isiz soliqqa tortish borasida katta amaliy ilg'or tajribalarga ega Amerika qo'shma shtatlari tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, xizmat ko'rsatish sohasini soliqqa tortish federal, shtat va munitsipal darajada tartibga solib boriladi, ularda soliqqa tortish va shtatlar va mahalliy soliq yurisdiksiyalariga qarab ham farq qiladi. Ta'kidlab o'tganimizdek, AQShda qo'shilgan qiymat solig'i amal qilmaydi, xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishda buning o'rniga, ko'plab shtatlar savdo soliqlarini (sotuv solig'i) yoki tovarlar va xizmatlarga umumiy soliqlardan (umumiy sotish va foydalanish solig'i) foydalanadilar, soliq stavkalari va soliqqa tortiladigan xizmatlar ro'yxati shtatdan shtatga farq qilishi mumkin. Qo'shma shtatlarda soliqqa tortish juda murakkab va ko'plab omillarga, jumladan shtat va munitsipal qonunlarga, xizmat ko'rsatishning tabiatiga, biznesning tuzilishiga va boshqa omillarga bog'liq.

AQShda xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishda korporativ daromad solig'i ham qo'llaniladi, ushbu soliq stavkasi faoliyat turiga va kompaniyaning hajmiga bog'liq. Bundan tashqari, har bir shtat o'zining korporativ daromad solig'iga ega bo'lishi mumkin. AQShda o'z-o'zini band qilish toifasidagi va aynan xizmat ko'rsatish sohasiga tegishli bo'lgan soliq to'lovchilar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hamda ijtimoiy sug'urta tizimiga badallarni to'laydilar. Ta'kidlaganimizdek, qo'shma shtatlarda alohida olingan shtatlar (masalan, Texas) yoki mahalliy soliq yurisdiksiyalarida muayyan xizmatlar bilan bog'liq maxsus soliq va yig'imlar bo'lishi mumkin. Misol uchun, ba'zi shtatlarda mehmonxona xizmatlari yoki avtomobil ijarasi xizmatlari uchun alohida soliq mavjud.

Qo'shma shtatlardan tashqarida xizmatlar ko'rsatadigan yoki xalqaro operatsiyalarga ega kompaniyalar uchun xalqaro soliq shartnomalari qo'llaniladi, bu xizmatlardan olinadigan daromadni soliqqa tortishga ta'sir qilishi mumkin. Xizmat ko'rsatish uchun AQShda federal korporativ daromad solig'i ham qo'llaniladi.

Xizmat ko'rsatish sohasi, shu jumladan jismoniy shaxslar va kompaniyalar, federal korporativ daromad solig'i (korporativ daromad solig'i)ga tortiladi. Kompaniyalar uchun federal daromad solig'i stavkasi 21%ni tashkil qiladi (2022-yilgi joriy ma'lumotlar), lekin qonunga muvofiq o'zgarishi mumkin. Shtat darajasidagi korporativ daromad solig'i ham amal qiladi.

Amerika Qo'shma Shtatlaridagi har bir shtatda korporativ daromad solig'ining o'ziga xos tizimi mavjud. Davlat soliq stavkalari va qoidalari shtatdan shtatga sezilarli darajada farq qiladi. Qo'shma shtatlardagi ba'zi shtatlar va munitsipalitetlarda turizm yoki ba'zi professional litsenziyalar kabi xizmatlarning ayrim turlari uchun qo'shimcha soliq va yig'imlar bo'lishi mumkin. Ayrim xizmat ko'rsatish sohalari maxsus soliqlar yoki litsenziya to'lovlariga tortilishi mumkin. Masalan, mehmonxona va restoran xizmatlariga alohida soliq qoidalari va talablari qo'yilgan.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishning Yevropa tajribasiga e'tibor beradigan bo'lsak, bu borada soliqqa tortish mexanizmlari anchayin murakkab va o'z o'rnida sodda bo'lgan Germaniya tajribasi alohida ahamiyatga ega. Germaniyada xizmat ko'rsatish sohasida soliqqa tortish federal soliq tizimi va soliq qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi. Germaniyada xizmat ko'rsatish sohasidagi soliqqa tortish yagona soliq kodeksi ("Abgabenordnung") va qo'shilgan qiymat solig'i to'g'risidagi qonunga ("Umsatzsteuergesetz") muvofiq amalga oshiriladi. Germaniyada xizmatlarga soliq solishning ba'zi asosiy jihatlari:

Germaniyada tovarlar va xizmatlarni sotishdan olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i ("Umsatzsteuer") mavjud. Germaniyada umumiy qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 19% ni tashkil qiladi, lekin ayrim tovarlar va xizmatlar uchun ham pasaytirilgan stavkalar mavjud (masalan, ayrim oziq-ovqat, kitoblar, madaniy tadbirlar uchun 7%). Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar odatda ushbu soliqni xizmat narxiga kiritishlari va soliq organlariga o'tkazadilar. Germaniyada xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishda korporativ daromad solig'i ("Körperschaftsteuer") ham amal qiladi, korporativ daromad solig'i stavkasi 15% va soliq summasining 5,5% qo'shimcha birdamlik solig'i sifatida undiriladi. Germaniyada yakka tartibdagi

tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan va xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan soliq to'lovchilar daromad solig'i ("Einkommensteuer") solig'iga tortiladilar. Ular o'z daromadlarini deklaratsiya qilishlari va daromad darajasiga bog'liq bo'lgan soliqqa tortishning progressiv shkalasi asosida soliq to'lashlari kerak. Germaniyadagi ba'zi munitsipalitetlarda qo'shimcha mahalliy xizmat solig'i bo'lishi mumkin ("Geverbesteuer"). Ushbu soliq tijorat faoliyatidan olinadi va mahalliy stavkalar va qoidalarga bo'ysunadi. Bu davlatda maxsus soliqlar yoki to'lovlar muayyan xizmat ko'rsatish sohasida qo'llanilishi mumkin. Masalan, turizm yoki o'yin kabi xizmatlarning ayrim turlari shular jumlasidandir.

Angliyada (Buyuk Britaniya) xizmat ko'rsatish sohasida soliq solish mamlakatning umumiy soliq tizimiga muvofiq amalga oshiriladi. Angliyada qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) muntazam stavka 20% ni tashkil qiladi, lekin xizmatlar va tovarlarning ayrim turlari uchun 5% va 0% lik pasaytirilgan stavkalar ham mavjud. Shuningdek, xizmat ko'rsatish korxonalariga nisbatan korxonalar daromad solig'i ham qo'llaniladi, xizmatlar ko'rsatadigan korxonalar o'z foydalariga qarab soliqqa tortiladi. Korporativ daromad solig'i stavkasi 19% (2023-yil 1-apreldan). Xizmat ko'rsatish sohasida ishlaydigan yakka tartibdagi tadbirkorlar odatda shaxsiy daromad solig'iga tortiladi. Shaxsiy daromad solig'i stavkalari progressiv bo'lib, daromad darajasiga bog'liq. Angliyada mulk solig'i tizimi mavjud bo'lib, unga kengash solig'i (uy-joy uchun mahalliy soliq), biznes stavkalari (tijorat mulkiga solinadigan soliq) va shtamp boji (ko'chmas mulk sotib olish solig'i) kiradi. Angliyada xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishda maxsus soliqlar va yig'imlar ham amal qiladi. Ba'zi hollarda xizmatlarning ayrim turlariga maxsus soliq qoidalari va talablari qo'llanilishi mumkin. Misol uchun, moliyaviy xizmatlar yoki qimor sanoati kabi ba'zi tarmoqlarda maxsus soliqlar mavjud. Xalqaro bitimlar va chet elda xizmatlar ko'rsatishda ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish va mamlakatlar o'rtasidagi soliq vakolatini aniqlash uchun xalqaro soliq shartnomalari qo'llanilishi mumkin. Buyuk Britaniyada, shu jumladan Angliyada xizmat ko'rsatish sohasida soliqqa tortish mamlakatning umumiy soliq tizimiga muvofiq amalga oshiriladi. Xizmat ko'rsatish sohasida ishlaydigan yakka tartibdagi

tadbirkorlar odatda shaxsiy daromad solig'iga tortiladi. Shaxsiy daromad solig'i stavkalari progressiv bo'lib, daromad darajasiga bog'liq. 2021-2022-yillar uchun stavkalar 20% dan 45% gacha.

Buyuk Britaniyada jismoniy shaxslar va korxonalar daromadlariga soliq soluvchi milliy sug'urta badallari mavjud. Ushbu badallar ijtimoiy sug'urta va davlat pensiyalarini qamrab oladi. Angliyada mahalliy soliqlar, jumladan, munitsipalitetlar tomonidan mulk qiymatiga qarab undiriladigan va mahalliy xizmatlarni moliyalashtirish uchun foydalaniladigan Kengash solig'i ham mavjud. Xizmat turiga va u taqdim etiladigan sohaga qarab, maxsus soliqlar yoki litsenziya to'lovlari qo'llanilishi mumkin. Misol uchun, mehmondo'stlik sanoatida to'shak solig'i joriy etilishi yoki muayyan sohalarida maxsus litsenziya to'lovlari qo'llanilishi mumkin.

Fransiyada xizmat ko'rsatish sohasida soliqqa tortish mamlakatning umumiy soliq tizimiga muvofiq amalga oshiriladi. Fransiyada tovarlar va xizmatlarning chakana savdosidan olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i (Taxe sur la Valeur Ajoutée, TVA) mavjud. Turli xil qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari, jumladan, umumiy stavka 20%, pasaytirilgan stavkalar 10% va 5,5%, ayrim tovar va xizmatlar uchun maxsus stavkalar mavjud. Bundan tashqari xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishda biznes daromad solig'i (Impôt sur les Sociétés IS) solig'i ham amal qiladi. Bunda yillik foydasi 500 000 yevrogacha bo'lgan kompaniyalar uchun daromad solig'i stavkasi odatda 28% va ushbu chegaradan yuqori foyda bo'lgan kompaniyalar uchun 33,33% ni tashkil qiladi.

Xizmat ko'rsatish sohasida ishlaydigan yakka tartibdagi tadbirkorlar shaxsiy daromad solig'iga (Impôt sur le revenu, IR) tortiladi. Shaxsiy daromad solig'i stavkalari progressiv bo'lib, daromad darajasiga bog'liq. Ba'zi hollarda xizmatlarning ayrim turlariga maxsus soliq qoidalari va talablari qo'yilishi mumkin. Masalan, turizm sohasida turistik soliq qo'llanilishi mumkin.

Rossiyada boshqa korxonalar singari xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish mamlakatning asosiy federal soliq qonuni bo'lgan Soliq kodeksiga asosan tartibga solinadi va muvofiqlashtiriladi. Rossiyada soliq qonunchiligi Federatsiyaning hududida joylashgan barcha tashkilotlar va muassasalar uchun

tegishli bo'lib, savdo, umumiy ovqatlanish, joylashtirish obyektlari (mehmonxonalar), xizmat ko'rsatish, maishiy xizmat ko'rsatish sohaslarini o'z ichiga olgan xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari soliq solish obyekti (soliq agenti) sifatida o'z faoliyatining bir qator xususiyatlariga egadir. Rossiyada xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat olib boradigan korxonalarining qariyb yetmish foizini kichik biznes subyektlari tashkil qiladi. Tadqiqot ishimizning ikkinchi bobi boshida keltirib o'tilganidek, respublikamizda 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining (392787 birlik) 325 809 birligi kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi. Ularning xizmatlar sohasiga oid faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidagi ulushi 82,9 % ni, xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yirik tashkilotlarning ulushi 17,1 % ni (66 978 birlik) tashkil etadi. Bu tendensiya aksariyat xorijiy davlatlarga ham xos xususiyatdir.

Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 153, 164, 171-moddalariga muvofiq xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati yuzasidan qo'shilgan qiymat solig'ini to'laydigan bo'lsa, umumiy 18 foizlik stavkada, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari uchun 10 foizlik va ayrim tovar va xizmatlar uchun 0 foizlik stavkada soliq to'laydilar. Rossiya Federatsiyasining Soliq kodeksining 149 va 18-moddalariga muvofiq, barcha mulkchilik shakllarining uy-joy fondida foydalanish uchun turar-joy binolarini taqdim etish bo'yicha xizmatlar, vaucherlar yoki yo'llanmalar bilan berilgan sanatoriy-kurort, sog'lomlashtirish tashkilotlari va dam olish tashkilotlarining xizmatlari, ta'lim va tibbiyot tashkilotlari oshxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan va ular tomonidan ushbu tashkilotlarda sotiladigan oziq-ovqat mahsulotlarini, shuningdek umumiy ovqatlanish tashkilotlari tomonidan bevosita ishlab chiqarilgan va ular tomonidan ushbu oshxonalar yoki tashkilotlarga sotiladigan oziq-ovqat mahsulotlarini sotishga oid xizmatlar QQSdan ozod qilingan.

Rossiyada kichik korxonalar uchun soliqlarni qat'iy belgilangan miqdorlar yoki daromadlarning foizlari asosida xarajatlar va daromadlarning alohida toifalarisiz to'lash imkonini beruvchi soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi (SST) mavjud. Soddalashtirilgan soliq tizimi xizmatlarning ayrim turlariga, ularning hajmi va

xususiyatiga qarab qo'llaniladi. Rossiya Federatsiyasida ham xuddi O'zbekiston soliq tizimidagi kabi QQS bo'yicha nollik stavkaning qo'llanilishi, soliq to'lovchining faoliyatini emas, balki, iste'molchining manfaatlarini himoya qilish va ularga soliq yukini kamaytirish maqsadida qo'llaniladi. Darhaqiqat, Rossiya tajribasining bu xususiyatlaridan O'zbekiston soliq tizimida ham ayrim jihatlarini qo'llash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ya'ni xuddi Rossiyada bo'lgani singari, aholi eng ko'p foydalaniladigan xizmatlar turlaridan kelib chiqib, aholini moliyaviy qo'llash hamda bu turdagi xizmat turiga talabni rag'batlantirish maqsadida ayrim xizmat turlari, masalan, mehmonxona xizmatlari, transport xizmatlari, davolanish xizmatlari kabilarga ham nollik stavkani qo'llash zarur deb hisoblaymiz.

Qozog'istonda xizmat ko'rsatish sohasida soliqqa tortish mamlakatning soliq qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi. Bu davlatda tovarlar va xizmatlarning chakana savdosidan QQS undiriladi, bu soliqning umumiy stavkasi 12%ni tashkil etadi, ammo tovarlar va xizmatlarning ayrim toifalari uchun 0% va 8% pasaytirilgan stavka ham mavjud. Xizmat ko'rsatadigan korxonalar o'z foydalariga qarab soliqqa tortiladi. Ko'pgina korxonalar uchun daromad solig'i stavkasi 20% ni tashkil qiladi. Biroq ayrim tarmoqlar yoki hududlar uchun maxsus imtiyozli stavkalar qo'llaniladi. Xizmat ko'rsatuvchi ish beruvchilar o'z xodimlarining ish haqi bo'yicha ijtimoiy to'lovlarni to'laydilarki, ularning stavkalari qonun bilan belgilanadi va ish haqi darajasiga bog'liq bo'ladi. Bu yerda sanoat va xizmat turiga qarab, maxsus soliqlar yoki litsenziya to'lovlari qo'llaniladi, masalan, ba'zi aloqa xizmatlari aloqa solig'iga tortiladi.

Xitoyda ham xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadigan korxonalarni soliqqa tortish ushbu davlatning soliq qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi. Xizmat ko'rsatish korxonalari uchun QQS tovarlar va xizmatlarning chakana savdosidan olinadi, uning stavkalari xizmat turiga va biznesning joylashgan joyiga qarab farqlanadi, umumiy stavka sanoat va mintaqaga qarab 13%, 9% yoki 6% bo'lishi mumkin. Bu turdagi korxonalarining to'laydigan soliqlardan yana biri bu korxonalar daromadidan olinadigan soliqlar hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish


korxonalari o'z foydalariga qarab soliqqa tortiladi. Xitoyda bu soliqning stavkasi o'rtacha 25%ni tashkil qiladi, ammo ma'lum sanoat va mintaqalar uchun uning quyi va yuqori chegaralari ham mavjud.

Bundan tashqari Xitoyda mahalliy hukumatlar tomonidan yig'iladigan mahalliy soliqlar ham mavjudki, ular jumlasiga mulk solig'i, yer solig'i va boshqalar kiradiki, faoliyat yo'nalishidan kelib chiqib, xizmat ko'rsatish korxonalari ham ushbu mahalliy soliqlarni to'laydilar. Shuningdek, muayyan xizmatlar va tarmoqlarga qarab, maxsus soliqlar yoki litsenziya to'lovlari qo'llaniladi, masalan, moliyaviy xizmatlar moliyaviy operatsiyalar bo'yicha soliqqa tortiladi.

3.2. Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish

Nazariy jihatdan olganda, soliqqa tortish tizimi dogma bo'lmaydi, u doimo o'zgarib turadi. Uning o'zgarishlariga bir qator omillar sabab bo'ladi. Bu omillar sirasiga, birinchidan, soliq siyosati ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi va holatidan kelib chiqib tegishli o'zgarishlarni taqozo etadi, ikkinchidan, soliqqa tortish jarayonida ayrim soliq qonunchiligi normalari kutilganidek samara bermay qolishi mumkin va soliq to'lovchilar tomonidan haqli e'tirozlarni yuzaga keltiradi, uchinchidan, davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari va ayrim maqsadli islohotlarni amalga oshirish jarayonida parallel ravishda soliqqa oid siyosati taktikalarini ham qayta ko'rib chiqishni amalga oshiradi, to'rtinchidan, soliqqa tortishda soha va tarmoqlar, qolaversa, soliq to'lovchilarning xususiyatlariga mos mexanizmlarni ma'lum darajada o'zgartirib turishga ehtiyoj tug'iladi.

Qayd etilganlardan va tadqiqot ishimizning yuqoridagi ikki bobida amalga oshirgan nazariy-tahliliy tadqiqotlarimizdan kelib chiqib, aytish mumkinki, xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish mexanizmlarida ayrim muammolar yoki mavjud mexanizmlarning ishlash samaradorligini oshirishga bo'lgan ehtiyojlar mavjud bo'ladi.



16-rasm. Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishdagi muammolar⁸⁵

Ta'kidlaganimizdek, xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish mexanizmlarida ayrim muammolar ham bo'lishi, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tabiiydir. Biz ularning mohiyatini to'laroq anglash maqsadida ikki guruhga bo'ldik. Birinchi guruhga bevosita soliqqa tortishning ichki xususiyatlaridan kelib chiqsa, keyingi guruhga esa tashqi omillar sifatida soliqqa tortish jarayonini to'g'ri tashkil

⁸⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.

etishga salbiy ta'sir qiladigan omillarni keltirish mumkin. Ularning ayrimlarining mohiyatini keltirib o'tamiz.

Soliqqa tortishning amaldagi mexanizmi xizmat ko'rsatish tarmog'ining xususiyatlariga ilmiy-uslubiy jihatdan to'la mos kelmasligining mohiyati shundaki, bu turdagi korxonalarining soliq rejimiga o'tkazilishining amaldagi qoidalari, ya'ni yillik aylanma hajmining chegarasi (1 mlrd yoki 100 mln so'm)ning o'rnatilishi aksariyat hollarda soliq to'lovchi xizmat ko'rsatish korxonalarida xizmat ko'rsatish hajmining qasddan kamaytirib ko'rsatish holatlarini yuzaga kelishiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishdagi yana bir muammolardan biri bu xizmat ko'rsatish korxonalarida soliq bazasini aniqlashning nisbatan qiyinligi va uni kamaytirib ko'rsatishga olib keluvchi iqtisodiy omillarning ko'pligini keltirish mumkin. Chunki, xizmat ko'rsatishda aylanmalarni hisobda aks ettirish boshqa ishlab chiqarish korxonalaridagi nisbatan anchayin oson bo'lsa, boshqa tomondan bu aylanmalarni har doimo ham buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirish yoki onlayn kassa mashinalari xotirasida aks ettirishni nazorat qilish imkoni yetarli bo'lmaganligi sababli, aylanmani kamaytirib ko'rsatishga imkon beruvchi omillar anchayin ko'p bo'ladi va soliqqa tortishning adolatlilik tamoyiliga mos kelmay qoladi.

Xizmat ko'rsatish obyekti bo'lgan va soliq bazasi hisoblangan jarayonni soliq tizimida aks ettirishning to'la hisobga olish imkoniyatining yetarli emasligi bu tarmoqdagi korxonalarda soliq bazasini kamaytirib ko'rsatilishiga, soliq hisobotlarida to'g'ri ko'rsatmaslikka olib kelmoqda. Jumladan, xizmat turlarining import qilinishi va ularning soliq xizmati organlarida o'sha vaqtning o'zida aks ettirishni ta'minlaydigan platformaning oxirigacha to'la integratsiya qilinmasligi va shu kabilar.

Bugungi kunda xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyotining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bu jarayondagi eng katta muammolar guruhi sifatida ularda soliqdan qochish holatlarining yuqoriligi va uni yuzaga keltiruvchi boshqa iqtisodiy omillarning mavjudligidir. Shu sababli quyida ushbu muammolarning

ayrimlari va shu bilan birgalikda ularning yechimlari bilan bog‘liq ayrim ilmiy-amaliy tavsiyalarimizni ham izohlaymiz.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarini tomonidan tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimi (TSOYaEAT) ma‘lumotlari asosida import operatsiyalari ustidan monitoring natijalarida import operatsiyalari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorligi mavjud bo‘lgan xo‘jalik subyektlari tomonidan ushbu qarzdorliklar bartaraf etilmasdan turib, xorijiy hamkorlarga qayta-qayta valyuta mablag‘lari o‘tkazilayotganligi kuzatilmoqda. Import operatsiyalari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorlikka yo‘l qo‘ygan xo‘jalik subyektlari tomonidan ushbu qarzdorlik to‘liq bartaraf etilmagunga qadar xorijiy hamkorlarga navbatdagi to‘lovni amalga oshirishni vaqtincha cheklash bo‘yicha bank qonunchiligiga tegishli o‘zgartirish kiritish taklif etiladi. Bu esa fikrimizcha, Respublika valyuta zaxiralaridan oqilona foydalanish, valyutani nazorat qiluvchi idoralar tomonidan tashqi savdoga oid valyuta mablag‘lari harakati ustidan o‘tkaziladigan monitoringni tizimli tashkil etish hamda importni maqbullashtirish borasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, xizmat ko‘rsatish korxonalarida o‘tkazilgan soliq nazorati jarayonida eng ko‘p naqdlashtirish orqali soliq bazasini yashirish holatlari yuqoriligicha qolmoqda. “Naqdlashtirish” bilan shug‘ullanuvchi xizmat ko‘rsatish korxonalarini oldindan korxonada faoliyatida soliq nazorati tadbirlari o‘tkazilishini bilgan holda, bank hisobraqamlaridagi pul mablag‘larini o‘zga (yuridik va jismoniy) shaxslarga o‘tkazib (moliyaviy zayom, avans to‘lovlari va boshqalar) yuborib, budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq qarzdorlik sifatida hosil bo‘lib, bankrotlik yo‘li bilan tugatilmoqda. Ushbu muammoni hal qilish maqsadida soliq qarzini o‘zga shaxslardan undirish mexanizmini takomillashtirish maqsadida, Soliq kodeksining 120-moddasi to‘qqizinchi xatboshisini “Agar soliq to‘lovchi soliq qarzi hosil bo‘lishini bilgan holda o‘zining pul mablag‘larini yoki boshqa mulkini o‘zga shaxslarga bergan bo‘lsa, soliq to‘lovchining soliq qarzi shu shaxslardan undirilishi mumkin va undirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi” tahririda bayon etish taklif qilinadi. Mazkur

normaning qonunchilikka kiritilishi bilan “naqdlashtirish” bilan shug‘ullanuvchi korxonalar oldidagi soliq qarzi hosil bo‘lmasligiga olib keladi deb hisoblaymiz. Boshqa tarmoqdagi korxonalar singari xizmat ko‘rsatish korxonalari tomonidan ham soliqdan qochishning yangi sxemasi sifatida bir nechta subyektlarni boshqa bir subyekt tarkibiga qo‘shilishi orqali tugatilishi holatlari hamda soliqqa tortiladigan bazani kamaytirish maqsadida hisob raqamiga “ustav fondini shakllantirish”, “aylanma mablag‘larni to‘ldirish” kabi to‘lov maqsadi bilan pul mablag‘lari tushumini amalga oshirish holatlarining keskin ko‘payib ketish holatlari ko‘paymoqda. Buning oldini olish maqsadida bizning fikrimizcha, xizmat ko‘rsatish korxonalari boshqa subyektlar tarkibiga qo‘shilish to‘g‘risida qaror qabul qilinganda, soliq organlari tomonidan majburiy tartibda soliq auditi o‘tkazilishi va tekshirish natijasi bo‘yicha xulosasi taqdim etilganidan so‘nggina davlat xizmatlari agentligi tomonidan qo‘shilishga ruxsat berish tizimini joriy etish, soliqdan qochishdagi mazkur yo‘nalishning oldini olishda Ustav fondini shakllantirishda ta’sischi (fuqaro) tomonidan ustav fondini to‘ldirish yoki aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun kiritilayotgan pul mablag‘lari manbasi bo‘yicha soliq organlariga deklaratsiya taqdim etish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

29-jadval.

O‘zbekistonda norezident hisoblangan xizmat ko‘rsatish korxonalarida tovarlarning yuqori narxda import qilinishi holati tahlili (ming dollarda)⁸⁶

Ko‘rsatkichlar	yillar		
	2021	2022	2023
Korxonalar soni	764	841	619
Holat soni	8 631	7411	4268
Tovarning import qiymati	515 868,1	612487,4	459431,2
Yuk jo‘natuvchining faktura qiymati	399 127,6	441216,1	379436,6
Farqi (+;-)	116 740,5	171271,3	79994,6
Farqi (%da)	22,6	27,9	17,4

⁸⁶ Davlat soliқ qўmitasi maълumotlari asosida tuzilgan.

Ma'lumki, amaldagi Soliq kodeksiga muvofiq (2023-yil 1-yanvar holatiga) uning 351-moddasiga ko'ra, "agar norezident tomonidan montaj va (yoki) ishga tushirish-sozlash xizmatlari, xodimlarni o'qitish xizmatlari va boshqa shu kabi xizmatlar ko'rsatilishini nazarda tutuvchi asbob-uskunalar (qurilmalar, mexanizmlar, butlovchi va ehtiyot qismlar) sotib olish (sotish) bo'yicha xalqaro shartnomada (kontraktda) ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati alohida ko'rsatilmagan bo'lsa, norezidentning soliq solinadigan daromadi bunday asbob-uskunalar (qurilmalar, mexanizmlar, butlovchi va ehtiyot qismlar) qiymatining 20 foiziga teng deb qabul qilinadi. Xuddi shunday qoidalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida norezident vakillarining tashqi savdo shartnomasi (kontrakti) bo'yicha asbob-uskunalarini montaj qilish, o'rnatish yoki ishga tushirish-sozlash paytida haqiqatdan mavjud bo'lgan taqdirda, hattoki ushbu shartnomada (kontraktda) norezidentlar tomonidan montaj va (yoki) ishga tushirish-sozlash ishlarini amalga oshirish, ular tomonidan xodimlarni o'qitish xizmatlarini va boshqa shu kabi xizmatlarni ko'rsatish nazarda tutilmagan bo'lsa ham, qo'llaniladi"⁸⁷

Biroq yuqorida keltirilgan, 29-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, O'zbekistonda norezident hisoblangan xizmat ko'rsatish korxonalarida tovarlarning yuqori narxda import qilinishi holati 2021 va 2022-yillarda oshib borgan, shu jumladan, tomonidan tovarning import qiymati va yuk jo'natuvchining faktura qiymati ham oshib borgan, shuningdek, ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, norezident korxonalar tomonidan tovarning import qiymati va yuk jo'natuvchining faktura qiymati tahlil qilinayotgan yillar kesimida o'rtacha 20-22 foizga farq qilmoqda. Bu shuni anglatadiki, norezident maqomidagi korxonalar, shu jumladan, xizmat ko'rsatish korxonalarini tomonidan bu normaning buzilgan holatlarda foydalanishi kuzatilmoqda va soliqdan bo'yin tovlashlarga olib kelmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda fikrimizcha, Soliq kodeksining 351-moddasi quyidagicha tahrir qilinishi maqsadga muvofiqdir: agar norezident tomonidan montaj va (yoki) ishga tushirish-sozlash xizmatlari, xodimlarni o'qitish xizmatlari

⁸⁷ Ўзбекистон республикаси Солиқ кодекси. 351-моддаси.


va boshqa shu kabi xizmatlar ko'rsatilishini nazarda tutuvchi asbob-uskunalar (qurilmalar, mexanizmlar, butlovchi va ehtiyot qismlar) sotib olish (sotish) bo'yicha xalqaro shartnomada (kontraktda) ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati alohida ko'rsatilmagan bo'lsa, norezidentning soliq solinadigan daromadi bunday xizmatlarning bozor qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Ana, shundagina, rezident va norezident sifatidagi korxonalariga bir xil normalarning qo'llanishini oqibatida soliqdan bo'yin tovlashlar kamayib, soliq tizimining adolatlilik prinsipi ta'minlanadi. Chunki, soliq to'lovchilarga qaysidir norma bo'yicha imtiyozlar berilsa, ushbu imtiyozlardan samarali foydalanish asosiy masalalardan biri sanaladi, vaholanki, yuqoridagi norma bo'yicha esa bunday deb hisoblab bo'lmaydi.

Bugungi kunda import operatsiyalarini amalga oshiruvchi ayrim xizmat ko'rsatish tadbirkorlik subyektlari tomonidan import tovarlar bojxona tizimida bozor narxidan past narxlanib, qo'shilgan qiymat solig'i undirilmoqda. O'z navbatida, korxonalar tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ini soliq organlariga bojxona qiymati barobarida ko'rsatilib, tovarlarning haqiqiy sotilish bahosi bankdan tashqari aylanmalarni amalga oshirilayotganiga yo'l ochib bermoqda. Shuning uchun tavsiya qilamizki, bunday operatsiyalarni amalga oshiradigan xizmat ko'rsatish korxonalari import orqali olib kirgan tovar mahsulotlarini bojxona organi tomonidan bojxona qiymatini hisoblash mobaynida ushbu import orqali olib kirgan tovar mahsulotning haqiqiy ichki bozordagi qiymatiga qarab bojxona yig'imlarini (import boji, QQS) hisoblashi yoki Davlat soliq xizmati organi va Savdo-sanoat palatasi hamda boshqa manfaatdor tashkilotlardan mutaxassislar ajratgan holda ishchi guruh tashkil qilib, har bir import orqali olib kirgan tovarlarni haqiqatdagi qiymatidan bojxona yig'imlarini (import boji, QQS) undirish mexanizmni joriy qilish lozim, natijada esa bozorlarda import tovarlar narxi o'rtasida tenglik vujudga keladi va soliq ma'murchiligi ta'minlanib, soliqlar o'z vaqtida hisoblanib undiriladi.

Soliqqa tortishdagi muammolarning aksariyati umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish jarayonida ham vujudga kelmoqda. Tahlillarning ko'rsatishicha, umumiy ovqatlanish va oziq-ovqat, nooziq ovqat mahsulotlarini savdosi bilan bilan shug'ullanuvchi subyektlarda mijozlarga xizmat ko'rsatish va

buyurtmalarni qabul qilish uchun mo'ljallangan avtomatlashtirilgan qurilmalar ikkilamchi buxgalteriya vazifasini bajarib, ushbu qurilmalar orqali sotilgan mahsulotlarni soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilmaslik holatlari kuzatilmoqda.

Bu muammoning yechimi sifatida bizningcha, umumiy ovqatlanish va oziq-ovqat, nooziq ovqat mahsulotlarini savdosi bilan bilan shug'ullanuvchi subyektlarda mijozlarga xizmat ko'rsatish va buyurtmalarni qabul qilish uchun mo'ljallangan avtomatlashtirilgan qurilmalarni (ikkilamchi buxgalteriya) soliq organidan ro'yxatdan o'tkazib, ularni qonuniylashtirish lozim. Ushbu qurilma orqali qabul-buyurtma asosida xarid qilingan tovarlar qiymatini onlayn nazorat-kassa mashinasiga integratsiya qilish zarur deb hisoblaymiz. Bu esa umumiy ovqatlanish va oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari savdosi bilan bilan shug'ullanuvchi subyektlarda tovarlar realizatsiyasi hajmini to'liq aks ettirishda imkon yaratadi.



17-rasm. Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishning takomillashtirilgan uslubiy tizimi⁸⁸


Tahlillar ko'rsatishicha, bugungi kunda 2021-yildagiga nisbatan xizmatlar ko'rsatish hajmi qariyb 20 foizga oshdi, albatta buni hukumatimiz tomonidan 2021-2023-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini

⁸⁸ Muallif tomonidan tuzilgan.

rivojlantirish bo'yicha alohida dasturni qabul qilish va uni amalga oshirish natijasi sifatida baholash mumkin. Albatta, bunday holat xizmatlar qiymatini oshirish orqali qo'shimcha soliq bazasining ko'payishiga olib kelishi tabiiy. Shu bilan birgalikda respublikamiz hududlarining xizmat ko'rsatish sohasidagi o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib xizmatlar sohasini rivojlantirish, soliqqa tortishda alohida yondashuvlar asosida tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy resurslar va infratuzilma bilan ta'minlash hamda ularga qulay soliq rejimini joriy etishni ham muhim masalalardan biri sifatida belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zbekiston soliq tizimida xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishda davlat siyosatining asosiy konseptual yo'nalishlari bu xizmatlar sohasini davlat jihatdan rivojlantirish va ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda moliyaviy-soliq preferensiyalarni ko'paytirish orqali ushbu korxonalardan tushadigan soliq tushumlarini soliq bazasini ko'paytirish omillari asosida ko'paytirish asosida ta'minlashga qaratilgan. Xizmatlar sohasidagi korxonalarni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirishda amaldagi ayrim tartiblarni ham takomillashtirishni taqozo etmoqda. Agar xizmat ko'rsatish korxonalarini tomonidan moliyaviy holati yomonlashgan holda, uni aniq hisob-kitoblar asosida rejalashtirgan holda, soliq qarzi bo'yicha yuzaga keladigan soliq summalarini soliq xizmati organlarini xabardor qilish orqali o'zlarining qisqa muddatli moliyaviy imkoniyatlarini tiklab olishda soliq preferensiyalaridan foydalanish masalasi ilmiy-amaliy jihatdan kun tartibiga chiqmoqda. Xususan, yil yakunlari bo'yicha jami daromadi o'n milliard so'mdan oshmagan xizmat ko'rsatish korxonalarida soliq qarzi yuzaga kelgan vaqtda moliyaviy imkoniyatlari yetarli bo'lmagan korxonalar o'z vaqtida soliq to'lovlarini amalga oshira olmay qolayotgan edi va soliq qarzi yuzaga kelib qolishiga sabab bo'lib qolmoqda edi.

Shu sababli kichik biznes maqomidagi xizmat ko'rsatish korxonasi qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'i to'lab kelayotgan holda uning o'tgan yil yakunlari bo'yicha jami daromadi o'n milliard so'mdan oshmagan holda ham ularga soliq qarzi yuzaga kelgan sanadan e'tiboran bir oy ichida soliq organlariga soliqlarni bo'lib-bo'lib to'lash huquqi to'g'risida xabarnoma davlat soliq organiga yuborish

sharti bilan soliq qarzini foizsiz bo‘lib- bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz⁸⁹.



18-rasm. Xizmat ko‘rsatish korxonalarini moliyaviy qo‘llash va soliqqa tortish mexanizmlarini yanada takomillashtirishning konseptual yo‘nalishlari⁹⁰

⁸⁹ Mazkur taklifimiz Soliq kodeksining 100-moddasida tasdiqlanib amaliyotga joriy qilindi.

⁹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bu esa kichik biznes maqomidagi xizmat ko'rsatish korxonalariga ham soliq qarzini foizsiz bo'lib- bo'lib to'lash huquqidan samarali foydalanish orqali ularning moliyaviy imkoniyatlarini tiklab olishga sharoit yaratiladi va budjetga soliq qarzlari summasining kamayishiga ta'sir qiladi. Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyotining tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, ularni soliqqa tortishda soliq bazasini obyektiv shakllantirishga asos bo'ladigan tartiblarni takomillashtirishni taqozo etilmoqda. Jumladan, bugungi kunda xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadigan norezident korxonalari tomonidan ayrim import qilingan ayrim xizmatlar (montaj va (yoki) ishga tushirish-sozlash xizmatlari)ning soliq bazasiga kiritishda bozor qiymatlari asosida asoslanish masalasi muhim deb hisoblaymiz va buni bugungi kunda xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishdagi muammolardan biri sifatida ham qarash mumkin. Ushbu muammoviy jarayonni hal etish va soliqqa tortishning adolatli tamoyiliga asoslangan holda xizmat ko'rsatish korxonalariga soliq solishni takomillashtirish maqsadida quyidagi taklifni kiritamiz. Ya'ni fikrimizcha, xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadigan norezident korxonalari agar, faoliyati uchun montaj, ishga tushirish-sozlash xizmatlari, xodimlarni o'qitish xizmatlari va boshqa shu kabi xizmatlar ko'rsatilishini nazarda tutuvchi asbob-uskunalar sotib olish (sotish) bo'yicha xalqaro shartnomada ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati alohida ko'rsatilmagan bo'lsa, norezidentning soliq solinadigan daromadi bunday xizmatlarning bozor qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlash⁹¹ maqsadga muvofiqligi yuqorida ilmiy asosini (28-jadval) keltirgan edik.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining amaldagi Soliq kodeksiga (461,462-moddalari) ko'ra, korxonalar, shu jumladan, xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lash o'rniga aylanmadan olinadigan soliq to'lashni tanlash huquqiga egadir. Biroq xizmat ko'rsatish korxonalarining ushbu tartiblarning amal qilinishining tahlillari shuni ko'rsatadiki, ayrim soliq to'lovchilar garchi, ularning yillik aylanmasi (daromadi) bir milliard so'mdan oshsa, amaldagi normalar bo'yicha foyda solig'i va QQS to'lovchisiga

⁹¹ Мазкур тақлифимиз Солиқ кодексининг 351-моддасида тасдиқланиб амалиётга жорий қилинди.

xabardor qilish orqali o'tishi va keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lashga o'tishi mumkin edi. Bu esa soliq amaliyotida soliq ma'murchiligini tashkil etishda ma'lum bir qo'shimcha rasmiyatchiliklarni yuzaga keltirmoqda edi. Shundan kelib chiqqan holda fikrimizcha, ushbu tartibda boshqa korxonalar singari xizmat ko'rsatish korxonalarining (jumladan, yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar va yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar) soliq davri davomida jami daromadi bir milliard so'mdan oshsa, ular daromadi ko'rsatilgan miqdorga yetgan kundan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga o'tishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu tartib birinchidan, oyning tegishli miqdoridagi QQS va foyda solig'i summasi, ayrim yirik toifadagi xizmat ko'rsatish korxonalari uchun katta hajmdagi soliqlarni oyning qaysi davri uchun hisoblash osonlashadi, ikkinchidan, soliq ma'murchiligi anchayin soddalashadi, soliq to'lovchining basharti umumiy jami daromadi bir milliard so'mdan oshsa ulardan tegishli tartibda QQS va foyda solig'ini o'zlari buxgalteriya qoidalariga asosan soliqlarni hisoblashga o'tadi va o'zlariga nisbatan soliq majburiyatlarini to'g'ri aniqlab borishga xizmat qiladi.

Bizga ma'lumki, soliqqa tortishdagi eng muhim masalalardan biri bu soliq to'lovchilarga nisbatan qo'llaniladigan soliq stavkalarining belgilanishidir. Xizmat ko'rsatish korxonalarining aksariyati, yuqorida (ikkinchi bobda) keltirib o'tganimizdek, aylanmadan olinadigan soliq turini to'lab kelmoqdalar. Chunki, ularning aksariyatining faoliyati va yillik jami daromadi ana shu soliqni to'lashni taqozo etadi. Soliq kodeksining 467-moddasida ushbu soliq turi bo'yicha faoliyat turlariga qarab xizmat ko'rsatish korxonalari uchun ham soliq stavkalari 14 band bo'yicha tasdiqlangan edi. Jumladan, bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan yuridik shaxslar (bojxona brokerlari, konsert-tomosha ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar, brokerlik idoralari, shuningdek vositachilik, topshiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlari ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar, sug'urta agentlari, shuningdek sug'urta, qimmatli qog'ozlar bozori va tovar-xomashyo birjalarida brokerlik faoliyatini amalga

o'shiradigan yuridik shaxslar, shuningdek rieltorlik faoliyatini amalga oshiruvchi ko'rsatuvchi shaxslar va shu kabilarni kabi xizmat ko'rsatish korxonalari soliqqa tortishda soliq stavkalarining qo'llanishining amaliy tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bu o'rnatilgan soliq stavkalari soliqlarni undirishda qulayliklar birgalikda, soliq to'lovchilar uchun ham soliq organlari uchun ham ayrim hollarda qo'shimcha vaqt va ortiqcha hisob-kitoblarni keltirib chiqarmoqda. Soliq ma'murchiligini soddalashtirish, xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalardan aylanmadan olinadigan soliqlarni to'g'ri hisoblanishini ta'minlash maqsadida bizning fikrimizcha, amaldagi soliq stavkalarini unifikatsiya qilish lozim deb hisoblaymiz:

29-jadval.

Xizmat ko'rsatish korxonalari to'laydigan aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq stavkalari va ularni unifikatsiyalash yuzasidan taklif⁹²

Amaldagi variant ⁹³			Taklif etilayotgan variant ⁹⁴
T/r	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda	
1.	Bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan yuridik shaxslar (bojxona brokerlari)	5	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi soliq to'lovchilari sifatida umumiy 4 foizlik soliq stavkasi belgilash
2.	Lombardlar	25	
3.	Konsert-tomosha ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar	5	
4.	Brokerlik idoralari, shuningdek vositachilik, topshiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlari ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar	25	
5.	Sug'urta agentlari, shuningdek sug'urta, qimmatli qog'ozlar bozori va tovar-xomashyo birjalarida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar, shuningdek rieltorlik faoliyatini amalga oshiruvchi va ko'rsatuvchi shaxslar	13	
6.	Asosiy faoliyati mol-mulkni ijaraga berish hisoblangan yuridik shaxslar (lizing kompaniyalari bundan mustasno)	8	
7.	Umumiy ovqatlanish korxonalari		
	joylashgan joyiga qarab:		
	aholisi soni yuz ming nafar va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	8	
	boshqa aholi punktlarida	6	
	borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda	4	
	shundan		
	umumta'lim maktablari, maktab-internatlar, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalari	Joylashgan joyiga qarab belgilangan soliq stavkasining 75%i	
8.	Ulgurji, shuningdek ulgurji-chakana savdoni amalga oshiradigan savdo korxonalari	4	

⁹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁹³ Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодексининг 467-моддаси мазмуни.

⁹⁴ Мазкур таклифимиз Солиқ кодексининг 467-моддасида тасдиқланиб амалиётга жорий қилинди.

Tahlillarga asoslanib ishlab chiqqan mazkur taklifimiz O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda O‘RQ-812-sonli Qonuni bilan Soliq kodeksining 467-moddasida tasdiqlanib amaliyotga joriy qilindi va bugungi kunda xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortishda amaliy jihatdan qo‘llanilib kelinmoqdaki, birinchidan, soliqqa tortish tizimini soddalashtirgan bo‘lsa, ikkinchidan, xizmat ko‘rsatish korxonalarini zimmasidagi soliq yukini birmuncha bo‘lsa ham yengillashtirilishga erishildi, uchinchidan, soliq to‘lovchilarda soliqlarni hisoblash tizimini soddalashtirildi, eng muhim soliq to‘lovchilar ixtiyorida bir yilning o‘zida o‘rtacha hisob-kitoblarga ko‘ra, 458 mlrd so‘mdan ortiq mablag‘lar qoladigan va ularning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishga erishildi.

Bizga ma‘lumki, Respublikamizning iqtisodiy strategiyasi, jumladan, tashqi iqtisodiy siyosatida eksport hajmini ko‘paytirib borish orqali, mamlakatning jahon bozorida mustahkam mavqeyini o‘rnatish, shu bilan birgalikda milliy valyutamiz-so‘mning barqarorligini ta‘minlashga erishishga ustuvorlik berib kelinmoqda. Agar, 2022-yil doirasida mazkur holatni tahlil qiladigan bo‘lsak, o‘tgan 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi ishtirokchilari soni qariyb 31,5 mingtani tashkil etgan va bu 2021-yilga nisbatan 283 taga ko‘payganligini bildiradi. Bularning orasida eksportyorlar soni 7,2 mingta (2021-yilga nisbatan 125 taga kamaydi)ni tashkil etgan bo‘lsa, 24,3 ming (2021-yilga nisbatan 408 taga ko‘paydi) importyorlar tomonidan tovar va xizmatlar import qilindi.

Aslini olganda tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori sifatida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

Respublikada bu borada so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta‘minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2022-yilda respublikaning tashqi savdo aylanmasini 50,0 mlrd. AQSh dollariga

yetishini va 2021-yilga nisbatan 7,8 mlrd. AQSh dollariga yoki 18,6 % ga oshishini ta'minladi.

30-jadval.

O'zbekiston respublikasi tashqi savdo aylanmasida xizmatlarning ulushi⁹⁵

Ko'rsatkichlar	2021-yil	2022-yil	O'sish sur'ati (%)	Jamiga nisbatan (%)
Tashqi savdo aylanmasi	42 170,5	50 008,4	118,6	X
Eksport	16 662,8	19 309,1	115,9	100,0
xizmatlar	2 581,7	3 959,5	153,4	20,5
Import	25 507,7	30 699,3	120,4	100,0
xizmatlar	1 767,3	2 526,3	142,9	8,6

Keltirilgan jadvaldan ko'rish mumkinki, xizmatlarning tashqi savdo aylanmada eksportdagi ulushi 2021-yilga nisbatan 2022-yilda 153,4 foizga oshgan holda importdagi ulushi ham shu yillarda 142,9 foizga oshgan. Bundan ko'rinadiki, respublikamizda xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining xizmatlarini eksport qilishni yanada rag'batlantirish taqozo etilmoqda. Bunda soliq tizimining rag'batlantiruvchilik funksiyasidan yanada samarali foydalanish lozim deb hisoblaymiz. Amaldagi Soliq kodeksining 464-moddasida agar korxonalarining eksport qilishdan olingan daromadlar umumiy daromadning 15 foizidan ko'prog'ini tashkil etsa soliq bazasidan kamaytirish huquqi berilgan, ammo fikrimizcha, xizmat ko'rsatish korxonalarining eksport faoliyatini rag'batlantirish maqsadida foyda solig'i va aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq solinadigan bazani kamaytirish ko'rinishidagi imtiyozlar tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan tushgan umumiy tushumdagi eksport hajmining ulushidan qat'i nazar qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir⁹⁶. Bu esa fikrimizcha, xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining xizmatlarini eksport qilishni yanada rag'batlantirish orqali soliq to'lovchilarning moliyaviy faoliyatini ham yaxshilashga imkoniyat yaratadi. Xizmat ko'rsatish korxonalarining yana bir muhim xususiyati ularning iqtisodiy faoliyat turiga moslashuvchanligidir va shu bilan ham ishlab chiqarishdagi korxonalarining aksariyatidan farq qiladi. Bizningcha, xizmat ko'rsatish korxonalarining ushbu

⁹⁵ Davlat statistika Agentligi ma'lumotlari asosida muallifning hisob-kitobi.

⁹⁶ Mazkur taklifimiz Soliq kodeksining 467-moddasida tasdiqlanib amaliyotga joriy qilinadi.

xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni soliqqa tortishda qo'llaniladigan siyosatda samarali foydalanish lozim bo'ladi.

Chunki, bu korxonalarining aholi bandligini ta'minlashdagi imkoniyati yuqoriligini e'tiborga olib, qolaversa, hududlarni rivojlantirishda xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar sonini oshirish orqali aholining pul daromadlarini oshirish hamda shu orqali kambag'allikni qisqartirishga erishishning ustuvorligidan kelib chiqib, bu turdagi korxonalariga soliqdan imtiyozlar masalasini ularning manfaatlari nuqtayi nazaridan yondashish talab etiladi.

Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ularga kamida yil muddatga ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz etib belgilash orqali ularning faoliyatini yanada jadal rivojlantirishga erishish mumkin. Ya'ni 2025-yil 1-yanvarga qadar chakana savdo va umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish) xizmatlari, avtotransportda yo'lovchi va yuk tashish, transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish, kompyuter xizmatlari, maishiy texnikani ta'mirlash, agro va veterinariya xizmatlarini ko'rsatuvchi hamda ko'ngilochar maskanlarda xizmatlar ko'rsatuvchi, basharti ko'rsatilgan faoliyat turlarini amalga oshirishdan olgan daromadlari joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha jami daromadning kamida 60 foizini tashkil etsa, tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz etib belgilash lozim deb hisoblaymiz.

Xo'sh, bundan soliq imtiyozlaridan budjetga soliq tushumlari qanchaga kamayadi?, bu kamayishning ijtimoiy xizmatlarga nisbatan moliyaviy oqibati nimalardan iborat bo'ladi? –degan savol tug'ilishi mumkin. Biz buni amaliy tahlillar orqali asoslashga harakat qilamiz (1-ilovaga qarang).

1-ilova ma'lumotlaridagi hisob-kitoblar ko'rsatishicha, agar, xizmat ko'rsatish korxonalariga kamida besh yil davomida ijtimoiy soliq, foyda solig'i, aylanmadan olinadigan soliq. Yuridik shaxslardan olinadigan yer va mulk solig'idan imtiyozlar berilishidan ko'pi bilan 92211 ta xizmat ko'rsatish korxonalarini doirasida 671453,1 mlrd so'mlik budjetdan yo'qotishlarga olib kelishi mumkin bo'lsa-da, ammo yuqorida ta'kidlaganimizdek, ularning sonining oshishi hisobiga ushbu yo'qotish summalari, 2026 yildan boshlab 1,8 martaga o'rni qoplanishi bilan

birgalikda 120 mingdan ortiq qo‘shimcha xizmat ko‘rsatish korxonalarining paydo bo‘lishiga asos bo‘ladi. Bu hisob-kitoblarimiz vakolatli vazirliklar va hokimliklarning hududlarni rivojlantirish dasturlari hisob-kitoblariga asoslangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, 2025-yilgacha ayrim savdo va xizmat ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz etib belgilash, 2027-yilga qadar mehmonxona va maydoni 5 ming m² dan yuqori bo‘lgan savdo komplekslari uchun yer solig‘i va mol-mulk solig‘i stavkasi 90 foizga kamaytirish, 2025-yil qadar 28 ta tuman (shahar)lardagi turizm hududlarda ayrim savdo va xizmat ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz etib belgilash, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlar, telekommunikatsiya operatorlari va provayderlari tomonidan telekommunikatsiya infratuzilmasini joriy etish loyihalari doirasida O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, belgilangan tartibda shakllantirilgan ro‘yxat bo‘yicha olib kiriladigan texnologik uskunalar, materiallar, dasturiy ta‘minot va ehtiyot qismlarni 2025-yilgacha bojxona to‘lovlaridan ozod qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.⁹⁷

Tadqiqot ishimizning ushbu bandi doirasida qilgan tadqiqotlar asosida umumiy xulosalar qiladigan bo‘lsak, biz tomonidan yuqorida asoslagan takliflarimizning amaliyotga joriy qilinishi oqibatida, budjetdan vaqtincha soliq tushumlari kamaysa-da, ammo savdo, mehmonxona, ovqatlanish va logistika xizmatlarini, shuningdek, texnik xizmat ko‘rsatish va ko‘ngilochar maskanlar, avtomobil yo‘llari, elektr energiyasi va ichimlik suvi ta‘minoti hamda boshqa infratuzilmani yaxshilash va tayyor loyihalar asosida turizm xizmatlarini, chegara hududlarda joylashgan hamda hududidan xalqaro avtomagistral va temir yo‘llar o‘tgan tumanlarni - savdo, turizm, logistika hamda yo‘l bo‘yi xizmatlarini ko‘rsatishga ixtisoslashtirilishi, qishloq xo‘jaligi ulushi yuqori bo‘lgan tumanlarda - zamonaviy agroxizmatlarni rivojlantirilishi, zamonaviy bozor xizmatlari, ta‘lim,

⁹⁷ Мазкур таклифларимиз асосида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 апрелдаги 104-сонли “Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорида акс эттирилиб, амалиётга жорий қилинган.

tibbiyot, san'at, turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish hamda transport xizmatlarini rivojlantirilishi, yirik shaharlarda yuqori daromadli xizmatlarni, ayniqsa, yirik savdo va ko'ngilochar xizmat ko'rsatish obyektlarini ko'paytirish, ta'lim va tibbiyot muassasalari joylashgan hududlarda ixtisoslashgan klasterlar tashkil etish orqali xizmatlar hajmi va ularning qiymati oshishi hisobiga qo'shimcha soliq bazasi shakllantiriladi va yo'qotilgan soliq tushumlari o'rni qoplanadi.

3-bob bo'yicha xulosa

Dissertatsion tadqiqotimizning mazkur bobi bo'yicha qilgan tadqiqotlar asosida ayrim umumiy xulosalar chiqarish mumkin bo'lib, ular quyidagilardir:

Jahon amaliyotida xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishning umumiy o'ziga xos xususiyatlari mavjud, ya'ni

birinchidan, xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishning xalqaro amaliyot xususiyatlarida quyidagi uch yo'nalishni: har bir davlatning milliy soliq tizimi xususiyatlaridan kelib chiqib soliqqa tortilishi, ikkiyoqlama soliqqa tortishning tamoyillari va qoidalariga mos holda soliqqa tortilishi hamda xizmat ko'rsatish korxonalarining joylashuvi va ularning faoliyat turlaridan kelib chiqib soliqqa tortilishini ko'rish mumkin;

ikkinchidan, dunyoning aksariyat mamlakatlari (AQShdan tashqari) tovarlar va xizmatlarning chakana savdosidan undiriladigan qo'shilgan qiymat solig'ini qo'llaydi. QQS stavkalari mamlakatdan mamlakatga farq qiladi va 0% (nol stavka) dan yuqori foizgacha bo'lishi mumkin. Ko'pgina mamlakatlar tovarlar va xizmatlarning chakana savdosidan olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) yoki shunga o'xshash soliqni qo'llaydi;

uchinchidan, aksariyat davlatlarda (masalan, AQSh, Germaniya, Rossiya, Qozog'iston, Armaniston, Yaponiya, Braziliya, Norvegiya va shu kabi) xizmat ko'rsatish korxonalaridan undiriladigan soliqlar O'zbekistondagi amaliyotga o'xshash holda ko'pincha mahalliy soliqlar sifatida mahalliy (munitsipal) budjetlarga jalb qilinadi. Ayrim davlatlarda masalan, AQSh, Germaniya, Braziliya, Rossiya kabi davlatlarda xizmat ko'rsatish korxonalarini uchun mintaqalar yoki

munitsipalitetlar tomonidan o‘rnatilgan mahalliy soliqlar joriy qilinishi mumkin. Bular mulk solig‘i, yer solig‘i va boshqalarni o‘z ichiga olishi mumkin;

to‘rtinchidan, xizmat ko‘rsatish korxonalarini orqali aholini soliq tizimi orqali ijtimoiy himoya qilish mexanizmlari ham qo‘llaniladi. Masalan, Rossiyada ayrim turdagi xizmatlarga nollik stavka (chunki, nollik stavkani qo‘llash korxonani emas, balki, iste‘molchini himoya qilish maqsadida qo‘llaniladi)dan foydalaniladi. Shundan kelib chiqqan holda Rossiyada bo‘lgani singari, aholi eng ko‘p foydalaniladigan xizmatlar turlaridan kelib chiqib, aholini moliyaviy qo‘llash hamda bu turdagi xizmat turiga talabni rag‘batlantirish maqsadida ayrim xizmat turlari, masalan, mehmonxona xizmatlari, transport xizmatlari, davolanish xizmatlari kabilarga ham nollik stavkani qo‘llash zarur deb hisoblaymiz.

O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha alohida dasturni qabul qilish va uni amalga oshirish natijasi sifatida baholash mumkin. Albatta, bunday holat xizmatlar qiymatini oshirish orqali qo‘shimcha soliq bazasining ko‘payishiga olib kelishi tabiiy. Shu bilan birgalikda respublikamiz hududlarining xizmat ko‘rsatish sohasidagi o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib xizmatlar sohasini rivojlantirish, soliqqa tortishda alohida yondashuvlar asosida tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy resurslar va infratuzilma bilan ta‘minlash hamda ularga qulay soliq rejimini joriy etishni ham muhim masalalardan biri sifatida belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbekiston soliq tizimida xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortishda davlat siyosatining asosiy konseptual yo‘nalishlari bu xizmatlar sohasini davlat jihatdan rivojlantirish va ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hamda moliyaviy-soliq preferensiyalarni ko‘paytirish orqali ushbu korxonalardan tushadigan soliq tushumlarini soliq bazasini ko‘paytirish omillari asosida ko‘paytirish asosida ta‘minlashga qaratilgan. Xizmatlar sohasidagi korxonalarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirishda amaldagi ayrim tartiblarni ham takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Biz tomonidan yuqorida asoslagan takliflarimizning amaliyotga joriy qilinishi oqibatida, budjetdan vaqtincha soliq tushumlari kamaysa-da, ammo savdo,

mehmonxona, ovqatlanish va logistika xizmatlarini, shuningdek, texnik xizmat ko'rsatish va ko'ngilochar maskanlar, avtomobil yo'llari, elektr energiyasi va ichimlik suvi ta'minoti hamda boshqa infratuzilmani yaxshilash va tayyor loyihalar asosida turizm xizmatlarini, chegara hududlarda joylashgan hamda hududidan xalqaro avtomagistral va temir yo'llar o'tgan tumanlarni - savdo, turizm, logistika hamda yo'l bo'yi xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashtirilishi, qishloq xo'jaligi ulushi yuqori bo'lgan tumanlarda - zamonaviy agroxizmatlarni rivojlantirilishi, zamonaviy bozor xizmatlari, ta'lim, tibbiyot, san'at, turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish hamda transport xizmatlarini rivojlantirilishi, yirik shaharlarda yuqori daromadli xizmatlarni, ayniqsa, yirik savdo va ko'ngilochar xizmat ko'rsatish obyektlarini ko'paytirish, ta'lim va tibbiyot muassasalari joylashgan hududlarda ixtisoslashgan klasterlar tashkil etish orqali xizmatlar hajmi va ularning qiymati oshishi hisobiga qo'shimcha soliq bazasi shakllantiriladi va yo'qotilgan soliq tushumlari o'rni qoplanadi.

XULOSA

Dissertatsion tadqiqot ishimiz doirasida amalga oshirgan ilmiy-nazariy tahlillarimiz asosida bir qator ilmiy xulosalarni shakllantirishga imkon berdi:

1. Xizmat ko'rsatish korxonalarining vujudga kelishining asoslari sifatida avvalo iqtisodiy tizimning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tizim shaklida mavjud bo'lishida namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarish sohasidagi tovarlar ishlab chiqarilishning iqtisodiy-texnologik xususiyatlari va bu tizimning bir maromda ketishi uchun ma'lum bir qo'shimcha faoliyatga ehtiyoj tug'iladiki, bunday ehtiyojlarni ishlab chiqarish va ko'rsatish mohiyati jihatdan xizmat tushunchasi bilan izohlanadi. Bundan tashqari ishlab chiqarilgan tovarlarni iste'mol qilishning xususiyati esa ishlab chiqarilgan tovarlarni uning iste'molchilariga yetkazishda oraliq bo'g'inni talab qiladiki, bu jarayon esa xizmatlar sohasini yoki uni amalga oshirishni korxonalariga bo'lgan ehtiyojni taqozo etadi. Tovar ishlab chiqarish hajmining oshib borishi, uning diversifikatsiyalashuvi, tovarlarni iste'mol etishda ma'lum bir qo'shimcha xizmatlarni talab etishi ham xizmat ko'rsatish korxonalarining yuzaga kelishiga muhim omil sifatida yuzaga chiqadi.

2. Bu turdagi korxonalar bir qator muhim xususiyatlarga egadir: *birinchidan*, ularning iqtisodiy-moliyaviy jihatdan bozor talablariga tez moslashuvchanligidir, ya'ni agar ixtisoslashgan faoliyat yo'nalishida raqobat kuchayib ketgan holatda xizmat ko'rsatishning yaqinroq, (o'rinbosar xizmat) xizmat turiga moslashishi nisbatan tez amalga oshadi. *Ikkinchidan*, uning moslashuvchanligi bu turdagi korxonalarining boshqa bir muhim xususiyati-nisbatan risk darajasining kamligini ham ko'rsatadi, bu kabi korxonalarni tashkil qilishda unga tikilgan moliyaviy sarmoyalarni qaytishi va samaradorlik ko'rsatkichlarini keltirishida risk boshqa yirik korxonalariga nisbatan kamroq bo'ladi, bu esa xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarning oqimining ortishiga va bu turdagi korxonalarining oshishiga muhim omil bo'ladi.

3. Xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish soliq tizimi tarixining dastlabki shakllanishidan buyon amalga oshirilib kelingan, ushbu korxonalarni soliqqa tortish esa dunyoning hozirgi taraqqiyot davrida asosan soddalashtirilgan

tartibda va umumiy tartibda soliqqa tortib kelinmoqda. Bunday soliqqa tortish mexanizmlarining asosini esa xizmat ko'rsatish korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakli va faoliyatining ichki va tashqi xususiyatlari tashkil etmoqda.

4. Kichik biznes maqomidagi xizmat ko'rsatish korxonasi qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'i to'lab kelayotgan holda uning o'tgan yil yakunlari bo'yicha jami daromadi o'n milliard so'mdan oshmagan holda ham ularga soliq qarzi yuzaga kelgan sanadan e'tiboran bir oy ichida soliq organlariga soliqlarni bo'lib-bo'lib to'lash huquqi to'g'risida xabarnomani davlat soliq organiga yuborish sharti bilan soliq qarzini foizsiz bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish kichik biznes maqomidagi xizmat ko'rsatish korxonalariga ham soliq qarzini foizsiz bo'lib-bo'lib to'lash huquqidan samarali foydalanish orqali ularning moliyaviy imkoniyatlarini tiklab olishga sharoit yaratadi.

5. Xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadigan norezident korxonalarini agar, faoliyati uchun montaj, ishga tushirish-sozlash xizmatlari, xodimlarni o'qitish xizmatlari va boshqa shu kabi xizmatlar ko'rsatilishini nazarda tutuvchi asbob-uskunalar sotib olish (sotish) bo'yicha xalqaro shartnomada ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati alohida ko'rsatilmagan bo'lsa, norezidentning soliq solinadigan daromadini bunday xizmatlarning bozor qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlash xizmat ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortishda soliq bazasini obyektiv shakllantirishga xizmat qiladi.

6. Xizmat ko'rsatish korxonalarining (jumladan, yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar va yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar) soliq davri davomida jami daromadi bir milliard so'mdan oshsa, ular daromadi ko'rsatilgan miqdorga yetgan kundan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga o'tish oyning tegishli miqdoridagi QQS va foyda solig'i summasi, ayrim yirik toifadagi xizmat ko'rsatish korxonalarini uchun katta hajmdagi soliqlarni oyning qaysi davri uchun hisoblashi osonlashadi, ikkinchidan, soliq ma'murchiligi anchayin soddalashadi, soliq to'lovchining basharti umumiy jami daromadi bir milliard so'mdan oshsa ulardan tegishli tartibda QQS va foyda solig'ini o'zlari

buxgalteriya qoidalariga asosan soliqlarni hisoblashga o'tishi va o'zlariga nisbatan soliq majburiyatlarini to'g'ri aniqlab borishga xizmat qiladi.

7. Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalaridan aylanmadan olinadigan soliqlarni to'g'ri hisoblanishini ta'minlash maqsadida amaldagi soliq stavkalarini unifikatsiya qilish soliqqa tortish tizimini soddalashtiradigan bo'lsa, ikkinchidan, xizmat ko'rsatish korxonalari zimmasidagi soliq yukini birmuncha bo'lsa ham yengillashtirilishga erishiladi, uchinchidan, soliq to'lovchilarda soliqlarni hisoblash tizimini soddalashtiriladi, eng muhim soliq to'lovchilar ixtiyorida bir yilning o'zida o'rtacha hisob-kitoblarga ko'ra, 458 mlrd so'mdan ortiq mablag'lar qoladigan va ularning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishga erishiladi.

8. Biz tomonidan yuqorida asoslagan takliflarimizning amaliyotga joriy qilinishi oqibatida, budjetdan vaqtincha soliq tushumlari kamaysa-da, ammo savdo, mehmonxona, ovqatlanish va logistika xizmatlarini, shuningdek, texnik xizmat ko'rsatish va ko'ngilochar maskanlar, avtomobil yo'llari, elektr energiyasi va ichimlik suvi ta'minoti hamda boshqa infratuzilmani yaxshilash va tayyor loyihalar asosida turizm xizmatlarini, chegara hududlarda joylashgan hamda hududidan xalqaro avtomagistral va temir yo'llar o'tgan tumanlarni - savdo, turizm, logistika hamda yo'l bo'yi xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashtirilishi, qishloq xo'jaligi ulushi yuqori bo'lgan tumanlarda - zamonaviy agroxizmatlarni rivojlantirilishi, zamonaviy bozor xizmatlari, ta'lim, tibbiyot, san'at, turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish hamda transport xizmatlarini rivojlantirilishi, yirik shaharlarda yuqori daromadli xizmatlarni, ayniqsa, yirik savdo va ko'ngilochar xizmat ko'rsatish obyektlarini ko'paytirish, ta'lim va tibbiyot muassasalari joylashgan hududlarda ixtisoslashgan klasterlar tashkil etish orqali xizmatlar hajmi va ularning qiymati oshishi hisobiga qo'shimcha soliq bazasi shakllantiriladi va yo'qotilgan soliq tushumlari o'rni qoplanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

- 1.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
- 1.2. O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolik kodeksi”, O‘zbekiston Respublikasi “Xususiy korxonalar to‘g‘risida”gi qonuni, “Davlat korxonalarini to‘g‘risidagi Nizom” 21.04.2021-y.
- 1.3. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi 2019-yil 30-dekabrda O‘RQ 599-son Qonuni bilan tasdiqlangan.
- 1.4. O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi 2013-yil 26-dekabrda O‘RQ 360-son Qonuni bilan tasdiqlangan.
- 1.5. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda “Soliq va budget siyosatining 2023-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ 812-son Qonuni.
- 1.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevralda PF-21-son “Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.
- 1.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyunda PF-93-son “Kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni.
- 1.8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-noyabrda “Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.
- 1.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-mayda “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5113-sonli qarori.
- 1.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 4-aprelda PF-4296-son “Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini

nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni.

1.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-sentabrdagi PF-6314-son “Tadbirkorlik subyektlari uchun ma‘muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.

1.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-sentabrdagi PF-6314-son “Tadbirkorlik subyektlari uchun ma‘muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.

1.13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilning 6-sentabrdagi PF-5813-son “Savdo va xizmat ko‘rsatish sohasidagi hisob-kitoblar tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.

1.14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PF5468sonli “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi PF5116sonli “Soliq ma‘muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi PQ4389sonli “Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

1.17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrdagi PQ4086sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari hamda 2020-2021-yillarga budjet mo‘ljallari to‘g‘risida”gi Qarori.

1.18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 31-maydagi PQ3756sonli “Imtiyozlar va preferensiyalar berish tartibini tubdan takomillashtirish

chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

1.19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrdaqi PQ3454sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi Qarori.

1.20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24-dekabrdaqi PQ1449sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2011-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi Qarori.

1.21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son «Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida»gi Qarori.

1.22. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldaqi 320-son Qarori bilan tasdiqlangan.

1.23. Ko‘chmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-dekabrdaqi 1060-sonli Qarori bilan tasdiqlangan.

1.24. O‘zbekiston Respublikasining “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasi va 2021-yil uchun Budjetnoma bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining Xulosasi.

1.25. “O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlarining 2020-yildagi ijrosi to‘g‘risida”gi hisobot bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining Xulosasi.

Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

2.1. Almu, R.A. Surveu of rrorertu tax sustems in Yeurore R. Almu Rerort rrerared for Derartment of taxes and sustoms, The Ministru of Finanse, Rerublis of Slovenia, 2001. – 122 r.

2.2. Абдуллина А.Р. Представители как субъекты уклонения от уплаты налогов с организации Научная перспектива. 2016. № 10.

2.3. Александрова Л.И. Основные особенности и проблемы выявления уклонений от уплаты налогов. Актуальные проблемы правового регулирования. 2017.

2.4. Абрамов С.А. Зотов Д.Д. Преступления в сфере финансов (ст. 198, 199, 199.1, 199.2 УК РФ) Право и общество в условиях глобализации: перспективы развития: сборник научных трудов международной научнопрактической конференции. 2017.

2.5. Андреева Е.В. Уклонение от уплаты налогов и сборов: уголовно правовой аспект. Студенческие научные общества экономике регионов Сборник материалов Международной молодежной научной конференции. 2018.

2.6. Архипова М.В. Редькина Е.А. Институт освобождения от уголовной ответственности в нормах общей и особенной части Уголовного кодекса РФ Пролог: журнал о праве. 2013. № 4.

2.7. Azimov.S.S. “Kameral soliq tekshiruvini tashkil etishda tashqi manba ma'lumotlaridan samarali foydalanish” mavzusidagi PhD ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi, 2022-yil.

2.8. Абдурахманов.О.К. Налоговые системы стран с переходной экономикой: Монография. М. Издательство “Палеотин” 2005. 376 с.

2.9. Агасандян Г.А. Гасанов И.И. Ерешко Ф.И. Новые подходы в проблеме комплексного управления водными ресурсами. М. ВЦ РАН, 2003. 54 с.

2.10. Алиев.Х.Б. Развитие налогообложения недвижимого имущества физических лиц в Российской Федерации: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 Алиев Хаджимурад Басирович. – Махачкала, 2012. 169 с.

2.11. Almardonov M. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga soliq tizimining ta'siri: Monografiya. T. TMI, 2003. 233 b.

2.12. Azimov S.S. Kameral soliq tekshiruvini tashkil etishda tashqi manba ma'lumotlaridan samarali foydalanish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. 2022.

2.13. Ashurova N.B. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. I.f.d. dissertatsiyasi. T. 2018. 247 b.

2.14. Axmedovich.B.A. Kichik tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish yo‘llari. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2012

2.15. Бeлaй O.B. Oб oтнeceнии нaлoгoвыx пpeстyплeний к пpeстyплeниям пpoтив пopядкa yпpaвлeния Учeныe зaписки Poccийcкoй Aкaдeмии пpeдпpинимaтeльcтвa. 2013. № 34.

2.16. Бpaжникoв.B.B.К вoпpocy oб oбъeктивнoй cтopонe yклoнeния oт yплaты нaлoгoв. Becтник Oмcкoй юpидичecкoй aкaдeмии. 2017. Tом 14. № 3.

2.17. Дюркгейм.Э.О. paздeлeнии oбщecтвeннoгo тpyдa. Мeтoд coциoлoгии. М. 1991. Нopт Д. Инcтитyты, инcтитyциoнaльнoыe измeнeния и фyнкциoниpoвaниe экoнoмики. М. 1997.

2.18. Ergashev I.I. Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion, investitsion jarayonlarni rivojlantirish va samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2018 y.

2.19. Ergashev.I.A. “Soliq ma‘muriyatchiligi tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi PhD ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi.

2.20. Isayev.F.I. Soliq tahlili metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2022.

2.21. Ismailov.B.A. Xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va tamoyillari. Iqtisod va moliya jurnali. 2021, 8(144).

2.22. Isakov.J.Ya. Xizmat ko‘rsatish sohasining samaradorligi va uning rivojlanishini ekonometrik modellashtirish (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida). Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2001-y.

2.23. Jamolov.I.Z. Xufiyona iqtisodiyotni bartaraf etishda soliq mexanizmining ta‘siri: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent, 2005.

2.24. Jumaev.N.X. O‘zbekistonda valyuta munosabatlarini tartibga solish metodologiyasini takomillashtirish. Dissertatsiya avtoreferati. – T. 2008.

- 2.25. Jo‘rayev.A. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari: Monografiya. – T. Fan, 2004. – 243 b.
- 2.26. Johnson, S. Kaufmann, D. Shleifer, A. Goldman, M.I. & Weitzman, M.L. (1997). The unofficial economy in transition. Brookings papers on economic activity.
- 2.27. Коттке.К. «Грязне» деньги – что это такое? Справочник по налоговому законодательству в области «грязных» денег. М. 1998.
- 2.28. Котлер.Ф. Маркетинг менеджмент. Экс пресскурс. 2е изд. Пер. с англ. под ред. Божук С. Г. СПб. Питер, 2006. 464 с.
- 2.29. Кулишер.И.М. Очерки финансовой науки, 1919, 147 с.
- 2.30. Kurbanov.D.R. O‘zbekiston Respublikasida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish. I.f.d (DSc) dis. avtoreferati. – T. 2020.
- 2.31. Георгиевна. Активизация предпринимательской деятельности В сфере услуг методами налогового стимулирования. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Санкт Петербург. 2018г.
- 2.32. Gadoyev.E.F. va b. Bilvosita soliqlar: qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i. Toshkent: «NORMA» 2011. 327 b.
- 2.33. Лукова.Л.Н. Букина, И.С. Налоговые системы зарубежных стран: учебник для бакалавриата и магистратуры. Юрайт. 2017. 428 с.
- 2.34. Маковецкий.С.А. Зарецкая Е.А. Уклонение от уплаты налогов: особенности преступления и наказания. Вестник института экономических исследований 2017, № 3(7).
- 2.35. Mustafoyev.G‘.S. Xizmat ko‘rsatish va raqamli xizmatlar: rivojlanish bosqichlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020-yil.
- 2.36. Malikov.T.S. Haydarov N.X. Moliya: umumdavlat moliyasi. O‘quv qo‘llanma. T. Iqtisod-moliya, 2009. 556 b.
- 2.37. Mo‘minov.B.O. Ko‘p ukladli iqtisodiyot sharoitida agroximservis xizmati ko‘rsatishning tashkiliy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot

fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2020-y.

2.38. Нудель С.Л. Вопросы квалификации уголовнонаказуемого уклонения от уплаты налогов и (или) сборов. Научные ведомости № 2(33) 2007.

2.39. Niyazmetov.I.M. Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta'minlash. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.

2.40. Niyazmetov.I.M. "Soliq yukini optimallashtirish: nazariya, uslubiyat va amaliyot" Monografiya. Toshkent: "Moliya" 2016. 192 b.

2.41. Normatov.B.A. "O'zbekiston Respublikasida soliq tekshiruvlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish" mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent: 2020.

2.42. Normurzayev.U.X. Soliq imtiyozlarining samaradorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Diss. avtoreferati. T. 2022.

2.43. Niyazmetov.I.M. Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta'minlash. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T. 2018.

2.44. Ochilov.I. Bozor munosabatlari sharoitida xizmatlarning turlari va ularning tavsifi. Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. T. "Iqtisodiyot-moliya" 2008-yil.

2.45. Пансков В.Г. Налогообложение природных ресурсов: проблемы и пути решения. Журнал Экономика и бизнес, 2018. 411 с.

2.46. Пансков.В.Г. Принцип справедливости и его отражение при налогообложении физических лиц в российской налоговой системе В.Г. Пансков Этап: экономическая теория, анализ, практика. 2016. №3. 58-72 с.

2.47. Петти.У. Трактат о налогах и сборах. М. 1997. 346 с.

2.48. Павлова.В.А. Концепция кадастровой оценки земель как основа налогообложения недвижимости Имущественные отношения в РФ. 2012. №7.

2.49. Пылаева.А.В. Совершенствование системы налогообложения в условиях развития кадастровой оценки недвижимости: диссертация кандидата

экономических наук: 08.00.10 Пылаева Алена Владимировна. Нижний Новгород 2010. – 181 с.

2.50. Рикардо, Д. Начала политической экономии и налогового обложения. Избранное Д. Рикардо. М. Эксмо, 2007. 960 с.

2.51. Расследование налоговых преступлений. Учебное пособие. Екатеринбург, 2016.

2.52. Рахмонов, А. Сафаров, У. Комплаенс и административные проблемы механизма НДС Узбекистана Общество и инновации. 2, 7/S (авг. 2021).

2.53. Spencer H. Principles of sociology. Hamden, 1969.

2.54. Schutz A. Luckman, T. The Structures of the Life, World. Evanston,

2.55. Cadosch, R. Switzerland – Corporate Taxation R. Cadosch. – IBFD, Tax Research Platform: Country Analyses – Switzerland

2.56. Cannaday, R.E. Property Tax Assessment: Measures and Tests of Uniformity Applied to Chicago Condominiums R.E. Cannaday, Illinois Business Review. 1997. 44.2 – 913 pp.

2.57. Санина, А.Г. Уклонение от уплаты налогов как проблема социального управления. М. СПб. АльянсАрхео, 2009.

2.58. Sanakulova, B.R. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta’minlash. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2016.

2.59. Тютюнникова, Е.С. Формирование налоговой политики предприятия в современных условиях хозяйствования. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2003 г.

2.60. Toshmatov, Sh.A. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlar roli. Monografiya. T. Fan va texnologiya, 2008. 204 b.

2.61. Toshmatov, Sh.A. Qo‘shilgan qiymat solig‘i. Monografiya. – T. Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2004. 160 b.

2.62. Toshmuradova, B. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. – T. “Yangi asr avlodi” 2002. – 128 b.

2.63. Malikov.T.S. N.X.Haydarov Moliya: umumdavlat moliyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: «Iqtisodmoliya», 2009. 556 b.

2.64. Tuxliyev.I.S. Hayitboyev R. Ibodullayev N.Ye. Amriddinova R.S. Turizm asoslari: O‘quv qo‘llanma – S. SamISI, 2010 247 b.

2.65.Urmonov.J.J. (2018), Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish masalalari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DcS) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi.

2.66. Вачугов.И.В. Уклонение от уплаты налогов, как составляющая теневой экономики: рост или сокращение? Налоги и налогообложение. 2019. № 6.

2.67. Vahobov.A.A. Jo‘rayev. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik. – T. “Sharq” nashriyoti, 2009.

2.68.Brown L Ayres E. (Edit) The World Watch Reader on Global Environmental Issues. N.Y. London: W.W. Norton Co. 1998. 358 p.

Foydalanilgan boshqa adabiyotlar.

- 3.1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasining axborotnomasi.
- 3.2. <http://www.Soloq.uz>(Davlat soliq qo‘mitasi sayti)
- 3.3. <http://www.mf.uz> (Moliya vazirligi sayti)
- 3.4. <http://www.stat.uz>(Davlat statistika qo‘mitasi sayti)
- 3.5. <https://www.sciencedirect.com>
- 3.6. <http://www.doingbusiness.org> – (Doingbusiness – biznes yuritish loyihasi).
- 3.7. <https://www.indexmundi.com> – (IndexMundi – bir nechta manbalardan tuzilgan batafsil mamlakat statistikasi, diagrammalar va xaritalarni o‘z ichiga olgan sayt).
- 3.8. <https://taxfoundation.org> – (Soliq fondi – Vashingtondagi tahlil markazi).
- 3.9. <https://www.nalog.gov.ru> – (Rossiya Federatsiyasining Federal soliq xizmati).
- 3.10. <https://davreestr.uz> – (Ko‘chmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarning davlat reestri).

3.11. <https://kadastr.uz> – (O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligi sayti).

3.12. <http://www.gov.uz> (O‘zbekiston Respublikasi hukumati rasmiy sayti).

3.13. <http://www.lex.uz> – (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi).

Xizmat ko'rsatish korxonalariga maxsus soliq rejimi va soliq imtiyozlari belgilanishi natijasida budjetga yilda ayrim soliqlar bo'yicha kutilayotgan (yo'qotish)lar hisob-kitobi⁹⁸ (2022-uchun) mlrd so'm.

№	Soliq imtiyozi mazmuni	Budjet yo'qotilishi (2022-yilda)		Shundan:											
				Ijtimoiy soliqdan		Aksiz solig'idan		Foyda solig'idan		Aylanmadan olinadigan soliqdan		Yuridik shaxslarning yer solig'idan		Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'idan	
		son	summa	son	summa	son	summa	son	summa	son	summa	son	summa	son	summa
1.	2025-yilgacha ayrim savdo va xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz etib belgilash	73465	528225,9	73465	528225,9	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
2.	2027-yilga qadar mehmonxona va maydoni 5 ming m2 dan yuqori bo'lgan savdo komplekslari uchun yer solig'i va mol-mulk solig'i stavkasi 90 foizga kamaytirish	1 874	88 774,7	0	0,0	0	0,0	452	6 110,6	0	0,0	711	63 308,6	711	19 355,5
3.	2025-yil qadar 28 ta tuman (shahar)lardagi turizm hududlarda ayrim savdo va xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz etib belgilash	16872	54 452,5	0	0,0	0	0,0	0	0,0	14 090	33 335,6	1 391	17 632,8	1 391	3 484,1
	Jami;	92211	671453,1	73465	528225,9				6 110,6		33 335,6	2102	80941,4	2102	22839,6

⁹⁸ Муаллифнинг ҳисоб-китоби.

